

**O‘ZBEKISTON RESRUBLIKASI
OLIJ VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

O.S. KOMOLOV, M.J. BAUYETDINOV, D.B. GOFUROV

DAVLAT BUDJETI

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 657.01(075)
KBK 65.052
K 56

O.S. Komolov, D.B.Gofurov, M.J.Bauyetdinov.
“Davlat budjeti” O‘quv qo‘llanma –T.: «Innovatsion
rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 –200 b.

ISBN 978-9943-7628-9-3

Ushbu o‘quv qo‘llanmada davlat budjetining ijtimoiy-iqisodiy mohiyati, ahamiyati, zarurligi, vazifalari, davlat budjetining rivojlanish bosqichlari, budjet tizimining tuzilishi va budjet munosabatlari, davlat budjetining daromadlari tizimi, uni shakllantirish manbalari va xususiyatlari, davlat budjeti xarajatlari tizimi, uning tarkibiy tuzilishi, davlat budjetdan xarajatlarni moliyalashtirish xususiyatlari, budjet jarayoni va budjet ijrosining g‘aznachilik tizimi masalalari o‘z aksini topgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma barcha iqtisodiy bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalari, magistrilar, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 657.01(075)
KBK 65.052

Taqrizchilar

A.X.Islamqulov – i.f.d. professor.
J.X.Ataniyazov – i.f.d. professor.

ISBN 978-9943-7628-9-3

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

«Davlat budjeti» fani yalpi ichki mahsulot va milliy daromad taqsimlanishi jarayonida davlat ixtiyorida hosil bo'ladigan markazlashtirilgan pul fondini tashkil qilish va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari tizimini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Davlat budjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlarini, uning rivojlanish qonuniyatlarini hamda boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro aloqalarini o'rganadi; davlat budjetining xo'jalik yuritish tizimidagi ob'ektiv zarurlari haqida tushuncha beradi.

Mazkur fanni o'rganish jarayonida davlat daromadlarining asosiy elementi hisoblangan budjet daromadlari va ularni shakllantirishning iqtisodiy-huquqiy asoslari ko'rib o'tiladi. Bozor iqtisodiyotining hozirgi sharoitida davlat budjeti xarajatlarining xususiyatlari, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish jarayonida davlat budjetining ahamiyati, budjet xarajatlari tarkibi, xarajatlarning amalga oshirish mexanizmlari, xarajatlar tarkibini davlat funksiyalaridan kelib chiqqan holda o'zgarish tendentsiyalarini o'rganadi. Davlat budjeti munosabatlari vositasida iqtisodiyotga ta'sir qilishning iqtisodiy-nazariy asoslarini o'rganadi. Mazkur fan orqali biz mamlakat budjeti qurilmasi, budjet tizimi, uning daromadlari va xarajatlari hamda ularni rejalashtirish uslubiyotini o'zlashtirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanuvchi fanlarning umumiy ravishdagi predmeti turli xil pul munosabatlari hisoblanib, mazkur pul munosabatlari pirovardida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlari shakllantirilishi yoki ularning taqsimlanish jarayoni sodir bo'ladi. «Davlat budjeti» fani ham moliyaviy munosabatlarning asosiy shakllaridan biri hisoblanib, davlat ixtiyoridagi pul fondlarining shakllantirilish va undan foydalanish jarayonini qamrab oladi.

«Davlat budjeti» fanining predmeti, YaIM va milliy daromad taqsimlanishi jarayonida markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish va foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari maydonga chiqadi.

Davlat budjetiga iqtisodiy kategoriya sifatida, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan YaIM va milliy daromadni taqsimlanish jarayonida davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ehtiyojlari uchun zaruriy markazlashtirilgan pul fondlarini

shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq imperativ tavsifdagi pul munosabatlari tizimi hisoblanadi.

Huquqiy kategoriya sifatida esa davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlash-tirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mamlakatimiz prezidenti tomonidan Oliy Majlisga yo‘llangan murojlatnomada “Byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, byudjet hisobidan mablag‘ ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko‘rsatkichlaridan iborat, natijaga yo‘naltirilgan indikatorlari bo‘lishi kerakligi shuningdek, budjet mablag‘larining maqsadli hamda oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish zarurligi”¹ alohida ta’kidlangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi, davlat budjetining nazariy va amaliy asoslari, budjetning ob‘ektiv iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari, budjet ijrosi va davlat budjeti shakllanishi va rivojlanish strategiyasi, budjet munosabatlari rivojlanishidagi istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quvchida nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratdir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojlatnomasi

I BO‘LIM. DAVLAT BUDJETI VA BYUDJET TIZIMI AMAL QILISHINING NAZARIY ASOSLARI

I BOB. DAVLAT BUDJETINING IJTIMOIIY - IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

1.1. Davlat budjetining ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tarkibi shakllanishi va rivojlanishida davlatning tartibga solish funksiyasi muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishining mexanizmlaridan biri shuningdek, jamiyatning moliya tizimi hisoblanib, uning markaziy bo‘g‘inini davlat budjeti tashkil etadi.

Davlat budjeti orqali mamlakat miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulot taqsimlanish jarayonida davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi shakllantiriladi.

Budjet davlat daromadlarining asosiy qismini o‘zida jamlaydi va davlatning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy vazifalarini amalga oshirish uchun zaruriy pul mablag‘lari fondini o‘zida aks ettiradi.

Jamiyat taraqqiyotida xo‘jalik mexanizmining bosqichma-bosqich takomillashib borishi, davlatlarni jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy tizimidagi roli ortishi ularning ixtiyorida ijtmoiy ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan qo‘shilgan qiymatning bir qismi hisobiga doimiy ravishda pul resurslarining shakllantirilishini ob‘ektiv zarur qilib qo‘yadi. Bunday davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondlarining asosiy shakli budjet bo‘lib, budjet davlatning asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o‘tilishi va davlat boshqaruvining demokratik tamoyillarini shakllantirish asoslaridan biri bo‘lgan iqtisodiyot erkinlashtirishning hozirgi sharoitida makro va mikro darajadagi moliyaviy resurslar oqimlarining barqaror mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslar oqimlarini mukammallashtirish iqtisodiyotni rivojlanishining o‘zaro nisbiyligini va tengligini ta‘minlaydi, iqtisodiyotning turli sektorlari va sohalari rivojlanishi va samarali ishlashini ta‘minlaydi hamda budjet daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi ta‘minlanadi.

Davlat budjetining mohiyati ham davlatning qo‘lida markazlashtirilgan pul jamg‘armalari tashkil etilishi va davlatning ijtimoiy - iqtisodiy siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni natijasida yaratilgan qiymatni bir qismi hisobiga markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish bilan bog‘liq pul munosabatlarini bildiradi.

Budjet munosabatlari – jamiyat iqtisodiy tizimining ajramas qismi uning amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarni bajarishi uchun zaruriy moliyaviy bazani shakllantirish bilan ob‘ektiv ravishda aniqlanadi.

Davlat budjeti orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qayta taqsimlanadi. Yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar: maorif, sog‘liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, tinchlik, chegaralar dahlsizligini saqlash va favqulodda holatlar uchun saqlanadigan davlat zaxiralarining mavjud bo‘lish zarurati tufayli kelib chiqadi. Shuningdek, davlat budjet orqali davlat jamiyatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir qilishning moliyaviy dastaklariga ega bo‘ladi. Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat hokimiyatining iqtisodiy imkoniyatlarining moliyaviy asosini yaratadi.

Demak, bir tomondan budjetning paydo bo‘lishi davlatlarning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatidagi budjetning sifat belgilariga aniqlik kiritiladi.

Budjet- murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki uning moddiy asosini kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil qiladi. Budjet sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida birinchi darajadagi vazifa uning moddiy mazmunini o‘zida aks ettiruvchi takror ishlab chiqarish nisbatlari buzilishiga salbiy ta’sir etmasligi lozim (hatto har qanday kuchli ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan budjet siyosatida ham). Aks holda asoslanmagan budjet siyosati natijasida ishlab chiqarish jarayonidagi tanazzuliklarga olib kelinadi va oxir oqibat davlat budjeti daromadlari shakllanishida ham muammolar paydo bo‘ladi.

Budjet munosabatlari davlat bilan xo‘jalik sub’ektlari hamda aholi o‘rtasidagi qiymat taqsimlanishi jarayonida paydo bo‘luvchi moliyaviy munosabatlardir. Bunday moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki birinchidan, yuqorida ta’kidlaganimizdek ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichida vujudga keladi, ikkinchidan, markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va undan davlat manfaatlari yuzasidan foydalanishga yo‘naltiriladi. Davlat manfaatlari esa – bu ijtimoiy manfaatlar hisoblanadi. Zero, taniqli iqtisodchi J.M.Keyns ta’kidlaganidek, “Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy manfaatlar faqatgina davlatlardagina o‘z ifodasini topadi”. Budjet davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida o‘ziga xos ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Demak, davlat budjeti iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida markaziy bo‘g‘inda ishtirok etishi bilan aholining ma’lum qatlami manfaatlarini o‘zida aks ettiradi. Bu tushunchada budjet munosabatlari o‘zida iqtisodiy rivojlanishning aniq falsafasi va ideologiyasini aks ettiradi.

O‘zining moddiy mazmuniga ko‘ra, davlat budjeti - davlatning markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini shakllantirish va undan foydalanishning alohida shaklidir, ijtimoiy - iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra esa milliy daromadni taqsimlashning asosiy qurolidir.

Davlat budjeti moliya tizimining markaziy bo‘g‘inini tashkil qiladi. Shuning uchun davlat budjeti moliyaning ayrim o‘ziga xos sifat belgilarini o‘zida namoyon qiladi.

Davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o‘rtasida yuzaga keluvchi moliyaviy munosabatlar budjet munosabatlari hisoblanadi. Shuningdek, budjet munosabatlarining moliyaviy munosabatlardan farqli 4 jihatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tishimi mumkin:

- budjet davlat qo‘lida milliy daromadning bir qismini jamlash, ijtimoiy ehtiyojlar va alohida davlat - hududiy tuzilmalar uchun undan foydalanish bilan bog‘liq qayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi;

- budjet yordamida milliy daromadning bir qismi va ayrim holatlarda milliy boylik xalq xo‘jaligining tarmorqlari, mamlakat hududlari, ijtimoiy faoliyat sohalari o‘rtasida qayta taqsimlanadi;

- qiymatni budjet orqali qayta taqsimlash nisbati moliyaning boshqa bo‘g‘inlariga nisbatan yirik miqdorni tashkil qiladi va

kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va jamiyat rivojlanishining har qaysi tarixiy bosqichlarida uning rivojlanishi oldidagi vazifalari orqali aniqlanadi;

- budjetni taqsimlash sohasi davlat moliyasida markaziy o'rinni egallab, moliyaning boshqa bo'g'inlariga nisbatan budjet muhim ahamiyatga ega;

- budjet munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ular YaIM va milliy daromadning taqsimlanishi jarayonida davlat ixtiyorida markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq imperativ xarakterdagi pul munosabatlari tizimidir.

Fikrimizcha, har qanday moliyaviy munosabatlar ham imperativ xarakterga ega bo'lavermaydi. Masalan, xo'jalik sub'ektlari takror ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qiymatning taqsimlanish jarayonidagi budjet va budjetdan tashqari fondlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar vositasidagi ajratmalar imperativ xarakterdagi moliyaviy munosabatlar hisoblanadi. Xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi hisoblanuvchi sof foydani ishlab chiqarish ehtiyojlari yoki shaxsiy iste'mol ehtiyojlari uchun taqsimlanishi hisobiga korxonalar ixtiyorida shakllantiriladigan markazlashtirilmagan pul fondlari imperativ xarakterga ega bo'lmaydi.

Davlat budjetiga ta'rif berilganda uning iqtisodiy kategoriya va huquqiy kategoriya sifatida xususiyatlariga alohida ahamiyat berish kerak.

Iqtisodiy kategoriya sifatida, *davlat budjeti - ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan YaIM va milliy daromadni taqsimlanish jarayonida davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ehtiyojlari uchun zaruriy markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq imperativ tavsifdagi pul munosabatlari tizimi hisoblanadi.*

Huquqiy kategoriya sifatida, *davlat budjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.*

Demak, budjet iqtisodiy mohiyati nuqtai nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib o'tiladigan bo'lsa, davlatning

moliyaviy asosini, qonuniy o‘rnatilishi nuqtai nazaridan esa budjet-davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko‘rib o‘tiladi.

1.2. Budjet – davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida

Boshqarishning ma‘muriy buyruqbozlik usulidan ho‘jalik yuritishning bozor mexanizmlariga o‘tilishi davlatning moliya tizimida, xususan uning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan budjet tizimida tub islohotlar o‘tkazilishiga olib keldi. Hozirgi sharoitda O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat budjeti tizimi respublika va mahalliy hokimiyat organlari darajasida vakolatlarni qayta taqsimlanishning huquqiy mexanizmini shakllantirishning dastlabki bosqichlarini amalga oshirmoqda. Umuman olganda so‘nggi vaqtlarda amaldagi islohotlardagi o‘zgarishlar ya‘ni iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida jamiyat rivojlanishining moliyaviy strategiyasi islohotlar talablariga mos yondashuvlarni talab qiladi. Amaldagi islohotlar esa budjet sohasida vakolatlarni mahalliy hokimiyat organlariga ko‘proq berishni talab qilmoqda.

Professor L.A.Drobozina “pul mablag‘larining asosiy markazlashtirilgan fondi”², - deb ta‘kidlaydi. Professor A.Yu.Kazak esa “...asosiy moliyaviy reja sifatida... muhim moliyaviy to‘g‘rilovchi sifatida... pul munosabatlarining... majmuasidir”³, - deb ta‘kidlaydi. Mazkur ta‘riflardan ham ko‘rinib turibdiki, aksariyat iqtisodchi olimlarning budjet kategoriyasiga yondashuvida mantiqning yaxlit qoidasiga rioya qilinmaydi.

Fikrimizcha, davlat budjeti tushunchasida uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi va mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatidagi talqinlarini bir - biridan farqlash lozimdir. Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet obyektiv xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlari tizimi sifatida qaraladi.

Huquqiy kategoriya sifatida budjet tegishli hudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat

² Л.А.Дробозина «Финансы», учебник для вузов, Поляка Г.Б., 2004

³ А.Ю. Казак «Финансы и кредит»: Учебник / А.Ю. Казак и др.; под ред. А.Ю. Казака. –Екатеринбург, 1994.

idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me'yorlardan iboratdir.

Budjet asosiy moliyaviy reja sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- budjet universal moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'la qamrab oladi;

- budjet boshqa turdagi moliyaviy rejalarga nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Asosiy moliyaviy reja sifatida shuni ta'kidlash joizki, unda moliyaviy rejalashtirishga tegishli bo'lgan: tushumlarning aniq manbalari bo'yicha pul daromadlari (budjet fondini shakllantirish); aniq yo'nalishlar va tadbirlar bo'yicha pul xarajatlari (budjet fondidan foydalanish) kabi alomatlarini o'z aksini topadi.

Moddiy ma'noda budjet - tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iborat. Davlat tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarni budjet hisobidan moliyaviy ta'minlash deganda budjetning aynan ana shu moddiy ma'nosi ko'zda tutiladi.

Budjet qurilishi masalasi davlatning budjet tizimi amal qilishining tashkiliy asoslarini o'zida aks ettiradi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimiga asoslangan rejali iqtisodiyot davrida mamlakatning budjet qurilishi boshqarishning ma'muriy usullariga muvofiq ravishda tashkil qilindi, bozor iqtisodiyoti sharoitida esa budjet qurilishi oldingi tizimdan tubdan farq qiluvchi usullari va tashkiliy asoslar vositasida tashkil qilindi.

«Budjet» va «Moliya» kategoriyalari bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar hisoblanadi.

Har ikkala kategoriya ham ma'lum sifat belgilariga egadir. Chunonchi, moliyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri taqsimlash tavsifiga egadir. Budjet ham taqsimlash tavsifiga ega bo'lib, moliyaning birlamchi taqsimlash jarayonida emas balki qayta taqsimlash jarayonida vujudga keladigan pul munosabatlari hisoblanadi. Demak, budjet qayta taqsimlash kategoriyasi hisoblanadi.

Moliyaning yana bir xususiyatli belgisi pul munosabatlariga egaligi hisoblanadi. Budjet ham pul munosabatlari tavsifiga egadir.

Chunki, qiymatni taqsimlash jarayonida vujudga keladigan pul munosabatlari hisoblanadi

Moliyaning o'ziga xos xususiyatli belgilaridan biri, fondli xususiyatga egaligi hisoblanadi. Moliyaga - YaIM va milliy daromadni taqsimlashda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari hisoblanadi deb ta'rif beriladi. Davlat budjeti esa, YaIM va milliy daromadni taqsimlanish jarayonida markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari hisoblanadi, deb ta'rif beriladi.

1.3. Davlat budjetining asosiy funksiyalari

Budjetning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati uning funksiyalarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Budjetning iqtisodiy mazmunini yoritishga bag'ishlangan moliyaviy - iqtisodiy adabiyotlarda budjetning funksiyalari nuqtai nazaridan turli iqtisodchilarning polisemantik xarakterdagi fikr mulohazalarini kuzatishimiz mumkin.

Masalan, V.M.Rodionova budjetni taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishni talqin qiladi. Shuningdek, muallif moliyaga tegishli funksiyalar sifatida ham taqsimlash va nazorat funksiyalarini bajarishini ham talqin qiladi⁴. Faqatgina bu erda budjetning taqsimlash funksiyasini taqsimlash jarayonining 2-bosqichida amal qilishiga e'tibor berishimiz lozim.

Fikrimizcha ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish va umuman ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilishda budjet muhim rol o'ynaydi, bu esa o'z navbatida budjetning taqsimlash funksiyasi asosida unga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.

Budjet - moliya sohasida qator ilmiy ishlarni amalga oshirgan professor G. Romanovskiy budjetning bajaradigan funksiyalari sifatida budjet fondini shallantirish, budjet fondidan foydalanish va nazorat kabi elementlarni talqin qiladi⁵.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda budjet vositasida milliy daromadning sezilarli qismi qayta taqsimlanib, moliyaning boshqa hech qaysi bo'g'ini tarmoqlar, hududlar va iqtisodiyotning sohalari,

⁴ Родионова В. Финансы. – М.: 1995. Финансы и статистика.

⁵ Романовский Г. Бюджетная система РФ. – М.: 1998. Финансы и статистика.

davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy darajalarida mablagʻlarni bunday yirik miqdorda qayta taqsimlash imkoniyatiga ega emasdir.

Bozor munosabatlari sharoitlarida milliy daromadning taqsimlanishi pul daromadlari va jamgʻarmalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish vositasida amalga oshiriladi. Bunday daromadlarga avvalo davlat daromadlari, korxonalar va tashkilotlar daromadlari, turli tijorat tarkiblari, moliyaviy institutlar hamda aholi daromadlari kiradi.

Milliy daromadni sezilarli qismi davlat, xususiy va tijorat korxonalarini daromadlarini soliqqa tortish vositasida budjet fondiga toʻgʻridan - toʻgʻri taqsimlash yoʻli bilan kelib tushadi. Aholini sof daromadlarining bir qismini budjetga qayta taqsimlash tartibida kelib tushadi.

Budjetga taʼsir koʻrsatuvchi obʼektiv omillarga jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari va jamiyatning rivojlanish darajasi, milliy daromadning qay darajada taqsimlanishi kabi omillar kiradi.

Subʼektiv omillarga esa davlatning shakli (respublika, monarxiya.....), oʻtkazilayotgan islohotlar va siyosat yoʻnalishlari kiradi.

Budjet daromadlari va xarajatlari ijtimoiy tuzumlarda turli koʻrinishlarga ega boʻlgan. Sobiq sotsialistik tuzumdagi budjet munosabatlarini koʻzdan kechiradigan boʻlsak, budjet daromadlari davlat korxonalarining foydasidan ajratmalar va davlat mulkidan keladigan daromadlar hisobiga shakllanar edi. Bunday holat moliya - budjet tizimini boshqarishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish imkoniyatini bermay qoʻyadi, yaʼni unda xoʻjalik subʼektlarining manfaatdorligi past boʻlib turli imtiyozlar va ragʻbatlantirishlarning foydasi unchalik boʻlmaydi.

Budjet xarajatlari esa sotsialistik tuzumda asosan xalq xoʻjaligini rivojlantirish uchun sarflanar edi. Mudofaa xarajatlari esa “qurollanish poygasi” tufayli xarajatlarning salmoqli ulushini tashkil qilardi. Xarajatlarning ushbu yoʻnalishlarga moyilligi, aholini ijtimoiy-madaniy tadbir ehtiyojlariga koʻp mablagʻlar sarflash imkonini bermay qoʻydi va bu sohalarda jahondagi koʻpgina mamlakatlardagi vaziyatdan orqada qolib ketishiga olib keldi. Jamiyatda budjet munosabatlarining, yuqorida aytib oʻtganimizdek, notoʻgʻri oʻrnatilishi sotsialistik tuzum emirilishining moliyaviy sabablaridan biri boʻldi.

Mustaqillik yillaridagi iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida shakllantirish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishni tartibga solish va milliy daromad taqsimlanishida budjetning ham roli o'zgardi.

Bozor iqtisodiga o'tish ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tub islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi, shu jumladan iqtisodiy sohada bozor munosabatlarining tashkil topishi, turli mulkchilik shakllanishi, o'tish davrida O'zbekiston davlati oldida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, O'zbekistonni don va yoqilg'i – energetika mustaqilligiga erishish masalalari, xalq xo'jaligida chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish lozimligi, aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlarning garovi ekanligi, bularning barchasi budjet va moliya siyosatida tubdan o'zgarishlar qilishni talab qiladi va davlat budjeti xarajatlari tuzilishini belgilaydi.

Davlat budjeti orqali milliy daromadning bir qismi taqsimlanishi jamiyat ijtimoiy hayotining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari tarmoqlari o'rtasida mablag'larni taqsimlash yo'li bilan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va jamiyatning boshqa yalpi ehtiyojlarini qondirish uchun markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish zarurati bilan bog'liqdir.

Budjet iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga tegishli sifat belgilari unga ham xosdir. Uning pul munosabatlari hisoblanishi va moliyaning asosiy funksiyalarini bajarishi bilan belgilanadi. Budjet iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- YaIMni qayta taqsimlash;
- Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish;
- budjet sohasidagi muassasalarni moliyaviy ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- nazorat.

Bozor islohotlari sharoitida davlatning vazifalari o'zgarishi budjet munosabatlarini tashkil qilish jarayonida o'z aksini topadi. Umuman davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qisqartirish va iqtisodiyotdagi tadbirlarlik faoliyatini rag'batlantirish sharoitida budjetning YaIMga nisbatan salmog'i qisqarib bormoqda. Amaldagi budjet islohotlari iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida ustuvor sohalarni qo'llab - quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun qulay moliyaviy iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishga qaratilmoqda.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy kategoriya sifatida, davlat budjeti - ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan YaIM va milliy daromadning taqsimlanishi jarayonida davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ehtiyojlari uchun zaruriy markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq imperativ tavsifdagi pul munosabatlari tizimidir.

Huquqiy kategoriya sifatida, davlat budjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Demak, budjet iqtisodiy mohiyati nuqtai nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib o'tiladigan bo'lsa, davlatning moliyaviy asosini qonuniy o'rnatilishi nuqtai nazaridan esa budjet - davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko'rib o'tiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjetining ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
2. Iqtisodiy kategoriya sifatida budjetning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
3. Davlat budjetining ta'rifini aytib bering?
4. Milliy mustaqillik qo'lga kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti tizimi qanday bo'lgan?
5. Milliy mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng budjet tizimidagi institutsional o'zgarishlar nimalardan iborat bo'ldi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston, 2015 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016y. -168 b.

8. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

9. Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

10. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).
- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
- www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
- www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

II BOB. DAVLAT BUDJETINING RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA BYUDJET SIYOSATI

2.1. Budjet siyosatining ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni

Moliyaviy siyosat tamoyilidan, ya'ni birinchi darajali jamiyat ehtiyojlarini va bu ehtiyojlarni qondirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, hamda moliyaviy resurslarning shakllanish manbalarini va uslublarini tanlashdan kelib chiqqan holda quyidagilar davlat tomonidan budjet siyosatini olib borish asosini tashkil etadi:

- davlat budjeti daromadlarining shakllanish manbalarini aniqlash;
- budjet xarajatlari ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- budjet disbalansi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaralarini aniqlash;
- budjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini;
- budjet tizimidagi alohida bo'g'inlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tamoyillarini aniqlash.

Shu bilan birga, budjet siyosati tarkibida soliq siyosati, investitsiya siyosati, davlat qarzlarini boshqarish siyosati ham olib boriladi.

Davlatning unga yuklatilgan vazifalar bajarilishi undagi mavjud zarur moliyaviy resurslar bilan bog'liq, bu esa o'z navbatida davlat tomonidan tuzilgan pul mablag'lari qismini budjetda to'planishini talab etadi.

Budjetda bu mablag'larning sarflanishi davomida va ulardan foydalanishda davlat bilan soliq to'lovchilar va budjet ajratmalari oluvchilar o'rtasida moliyaviy munosabatlar o'rnatiladi. Bu munosabatlar hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan moliya budjet siyosatiga muvofiq yo'lga qo'yiladi. Moliya budjet siyosati o'z ichiga davlat va mahalliy hokimiyat organlarining soliq, pul-kredit, baholash va boshqa moliyaviy sohalardagi faoliyatlarini oladi.

Moliya-budjet siyosati - hokimlik organlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar va harakatlar yig'indisi bo'lib, u budjet tizimini boshqarishda va ularni o'z vazifalarini bajarishlari uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanishlari bo'yicha moliya budjet sohasidagi maqsad va vazifalarni aniqlashni ko'zda tutadi, budjetdagi pul

mablag‘larini safarbar etish mexanizmining ishlatilish yo‘nalishlarini tanlaydi va budjet tizimida moliya budjet instrumentlari yordamida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarini tartibga solishni tashkil etadi.

Moliya budjet siyosati asosan hokimlik organlari tomonidan ishlab chiqilgan budjetga mablag‘larni safarbar etish va ulardan foydalanish borasidagi tadbirlar bo‘yicha, ya’ni budjet jarayonida amalga oshiriladi.

Hokimiyatning vakillik va ijro organlari tomonidan moliya budjet siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda budjet tizimini boshqarish bo‘yicha harakatlar - tadbirlar yig‘indisi budjet jarayoni deyiladi.

Budjet mahalliy darajada hokimlik organlarining qarorlariga muvofiq aniqlanadi. Bu siyosatni moliya va soliq organlari, pul - kreditni tartibga solish organlari, hisob - kitob nazorati organlari o‘z faoliyatida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida budjet ijrosi muddati kalendar yilining 1 yanvaridan 31 dekabrighacha bo‘lgan davr etib belgilangan.

Budjet jarayonining davomiyligi budjet davridan aytarli darajada ko‘proq, chunki budjet jarayonida budjetni rejalashtirish, navbatdagi budjet nazorati va boshqa harakatlar uchun zarur vaqtni o‘z ichiga oladi. Budjet qonunchiligiga muvofiq taqsimlangan, ya’ni budjet jarayonida qatnashish huquq va majburiyatlariga ega bo‘lgan organlar amalga oshiradi. Shunday huquqlar quyidagilar bo‘yicha bo‘lingan:

- ijroiya hokimiyat va vakillik organlari;
- moliya va soliq organlari;
- pul - kreditni tartibga soluvchi organlar va davlat moliya nazorat organlari;
- budjet mablag‘larini bosh taqsimlovchilar va budjet mablag‘larini taqsimlovchilar;
- budjetdan tashqari davlatning maqsadli jamg‘armalari.

Hokimiyatning vakillik organlari budjet loyihalarini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi, ularning ijrosi bo‘yicha hisobot tayyorlaydi. Hokimlikning ijroiya organlari jamlangan moliya rejalarini amalga oshiradi, budjet loyihalarini tuzadi, budjet loyahasini hokimlikning vakillik organlarida ko‘rib chiqish uchun tavsiya etadi.

Markaziy bank hukumat bilan birgalikda davlatning pul - kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi va Oliy Majlisda muhokama qilish uchun taqdim etadi, bu jarayonni amalga oshirishga

davlat budjeti xazinasining pul hisob - kitob raqamlari, davlat maqsadli budjetdan tashqari jamg'armalarning hisob - kitob raqamlari va mahalliy budjetlarning hisob - kitob raqamlari xizmat qiladi.

Budjet mablag'larining bosh (taqsimotchi) boshqaruvchisi - hokimiyatning ijroiya organlari budjet mablag'arini to'g'ridan - to'g'ri birinchi oluvchilari bo'lib, ular budjet mablag'larini boshqaruvchilar va oluvchilar o'rtasida taqsimlash huquqiga ega.

U budjet mablag'lari boshqaruvchilari va budjetdan oluvchilar bo'yicha budjet xarajatlari ro'yxatini tayyorlaydi va ularga budjet tayinlanish haqida xabar etkazadi, hamda daromadlar va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi, zarur hollarda tasdiqlangan smetadagi mablag'larni moddalar bo'yicha taqsimotiga o'zgartirish kiritadi, budjet oluvchilar tomonidan budjet mablag'larining unumli, maqsadli ishlatilish yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

Budjet mablag'larini boshqaruvchi - ijroiya hokimiyatining organi mablag'larni budjet oluvchilar o'rtasida taqsimlaydi, ularga budjet ajratmalari haqida xabarnoma etkazadi, budjet oluvchilar daromadlari va xarajatlari smetasini tasdiqlaydi,

Ularni budjet mablag'laridan to'liq maqsadli foydalanishlarini nazorat etadi.

Budjetdan mablag' oluvchi (budjet muassasasi) – tashkilot, hokimiyatning ijroiya organlari tomonidan tuzilgan tijoratdan holi bo'lgan xususiyatdagi vazifalarni amalga oshiradi (boshqaruv, mudofaa, ijtimoiy - madaniy tadbirlar va boshqalar) va smeta tartibida budjet yoki budjetdan tashqari jamg'armalar orqali moliyalashtiriladi.

Nazorat hisob - kitob organlari budjetga muvofiq va budjetdan tashqari jamg'armalar ijrosi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi, budjet va budjetdan tashqari jamg'armalar ijrosi bo'yicha tashqi audit tekshiruv olib boradi.

Yuqorida qayd etilgan hokimlik organlari va muassasalar budjet jarayonining qatnashchilari hisoblanadi. Budjet jarayoni o'z ichiga quyidagilarni oladi: - jamlangan moliyaviy rejalashtirish va tahminlashtirish; - budjet loyahasini tuzish, muhokama etish va tasdiqlash; - budjet yili davomida budjet ijrosi; - budjet ijrosining nazorati va tahlili.

Davlat budjetining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda, uning iqtisodiyotimizda tutgan o'rni borasida mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov o'z fikrini bildirar ekan "Iqtisodiyotni

barqarorlashtirish – bozorni shakllantirish yo‘lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir” deya ta’kidlaganlar. Mana shu bosqichda quyidagilar eng muhim va birinchi navbatdagi choralar sifatida olg‘a suriladi.

Respublika budjetidagi taqchillikni cheklashga va uni izchillik bilan juda kamaytirishga qaratilgan qattiq moliyaviy siyosatni o‘tkazish, boshqaruv apparatini saqlash uchun davlat mablag‘lari sarflashni, zarar ko‘ruvchi korxonalar va boshqa nozarur maqsadlarga dotatsiya ajratishni kamaytirishga qaratilgan yo‘l izchillik bilan o‘tkaziladi, Budjet mablag‘lari sira kechiktirib bo‘lmaydigan davlat ehtiyojlari va ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladi»,⁶– degan fikr bilan aniqlab bergan edi.

Davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish dastavval davlat budjeti hamda boshqa budjetdan tashqari fondlar bilan bog‘liqdir. Budjet munosabatlari korxonalar, muassasalar va aholi bilan davlat o‘rtasida paydo bo‘ladigan, hamda markazlashtirilgan pul mablag‘lari %ini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarni bildiradi.

Davlat budjetiga davlatni moliyaviy funksiyalarini amalga oshirish vositasi sifatida qarash lozim.

“Davlat budjeti – davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”.

Davlat daromadlari soliqlar, soliq bo‘lmagan majburiy to‘lovlar va olingan qarzlardan tashkil topadi. Ta’kidlash lozimki, davlat olgan qarzlarning hammasi ham va har qanday mamlakatlarda ham davlat budjeti daromadlariga qo‘shilavermaydi. Masalan, Yaponiyada navbatdagi fiskal yil uchun budjetni Rarlament tomonidan tasdiqlash jarayonida ma’qullangan davlat qarzlarning bir qismi budjet daromadlariga olib boriladi, qarzlarni davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish jarayonida olingan qismi esa (ham soliq manbalarini, ham qarzar manbalarini o‘z ichiga olgan budjetni), budjet taqchilligiga taalluqli bo‘ladi. Shunday amaliyot hamma mamlakatlarda ham qabul qilinmagan va davlat qarzlari davlat daromadlariga soliqlar hamda

⁶ Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O‘zbekiston, 1998. 112 - bet.

boshqa soliq bo‘lmagan majburiy to‘lovlar etarli bo‘lmagan holatda amalga oshiriladi, ya’ni fiskal taqchillik summasida amalga oshiriladi.

Hukumat (davlat) xarajatlari umumiy ko‘rinishda davlat tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilish va transfert to‘lovlarini bildiradi. Davlat xaridlarini hamda davlat transfertlarini bir - biridan ajratish lozim. Davlat haridlari, masalan, qurol - yaroq sotib olish, qurilish, sudyalarning xizmatini, o‘qituvchilar, davlat apparati ishchilari xizmatlari haqini to‘lash va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Transfert to‘lovlari - jamiyat a‘zolarining ma’lum bir qismiga ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar, fahriylarga nafaqalar shaklida, soliq to‘lovchilardan olingan soliq daromadlarini qayta taqsimlovchi to‘lovlardir.

Davlat budjeti odatda, respublika budjeti hamda mahalliy budjetlardan iborat bo‘ladi. Jamiyatda (mamlakatda) amal qiladigan budjetlar majmuasi budjet tizimi deb yuritiladi. Davlatning budjet tushumi ishlab chiqilgan (yagonalik) yahlitlik va mustaqillik tamoyillari asosida tuziladi. Davlat tomonidan fiskal siyosatni tutib turuvchi (chegaralovchi) yoki kengaytiruvchi holatida olib borilishi mamlakat iqtisodiyotini uni turli rivojlanish davrlarida barqarorlashtirishga qaratilgan.

Budjetning daromadlar qismi jismoniy va huquqiy shaxslardan olinadigan soliqlar, tashqi savdodan olinadigan boj va shunga o‘xshash manbalar hamda davlat korxonalarini sotilishidan tushgan tushumlar va xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalari davlat ulushidan kelgan foydalar.

Budjetdan tashqari fondlar – davlatning pul mablag‘lari hisoblanib, maqsadli yo‘naltiriladi va davlat budjetiga kirmaydigan jamg‘armalardir.

Islohotlar davrida davlatning soliq daromadlari keskin qisqardi, qaysiki bu ishlab chiqarishning pasayishi natijasida soliq solinadigan bazaning qisqarishi natijasidir, 1992 yilda boshlangan lekin oxirigacha etkazmagan soliq islohotlari ichki talabning pastligi, biznesni yashirin iqtisodiyotga qarab ketishi va soliq to‘lashdan ommaviy ravishda qochish omillari bilan bog‘liqdir.

Budjetning daromad qismi pasayadi, uning xarajatlar qismi esa asta-sekin qisqaradi, lekin budjetning muvozanati uchun bu etarli emas. Bundan tashqari budjet rejalarini daromadlar bo‘yicha surunkali bajarilmasligi xarajatlarni ma’lum bir guruhlar bo‘yicha amalga

oshirish, natijada xarajatlarning tarkibi eng samarasiz ravishda tuzildi. Bu na o‘shirishni ta‘minlash qobiliyatiga ega na jamiyatda ijtimoiy - siyosiy barqarorlikni etarli darajada saqlashda yordam bera oladi.

Ayrim tahlilchilar ko‘pgina davlatlarda qaysidir davrda budget taqchilligi YaIM ga nisbatan 5-7 % miqdorida amal qilinishini hisobga olib Rossiyadagi budget taqchilligini og‘ir darajada emas deb hisoblaydilar. Ammo, bunday taqchillik YaIMni 7 yillik inqiroz davrida 40 % miqdorida qisqargan va kattagina davlat xarajatlarini (oxirgi 7 yil davomida Rossiya YaIM har bir aholi jon boshiga hisoblaganda 40 % ga kamaygan, YaIM ning har bir aholi jon boshiga tushuvchi darajasi bo‘yicha hozirgi davrda Xitoy, Albaniya, Dominikan Respublikasi, Reru va Raragvay davlatlari bilan tengdir) amalga oshirayotgan holatdagi davlat uchun kattadir. Muammoning yana bir jihati, ichki jamg‘arishning uzoq muddat saqlay olmaydigan va uning umumiy darajasini saqlay olmaydigan xususiy moliya tizimining bo‘shligi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetining tarixi

Jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasining shakllanishi va rivojlanishdagi tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichidan muayyan siyosat doirasida amalga oshiriladigan davlat tomonidan tartiblash muhim rol o‘ynaydi.

Davlatning o‘z vazifasi va funksiyalarini bajarishga, o‘z iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga imkon beradigan qurol, dastaklardan biri - davlat budgeti hisoblanadi.

1868 yilda chor Rossiyasi hukumati Turkistonda moliya qo‘mitasini tashkil etganidan keyin birinchi marta davlat xazinasini xonning shaxsiy xazinasidan ajratildi, bu qo‘mita davlat daromadlari va xarajatlari to‘g‘risida Nizom (davlat budgeti to‘g‘risida nizom) ishlab chiqdi.

1924 yilda davlat hokimiyatining qaroriga muvofiq va O‘zbekistonning Ittifoq tarkibiga kirishi bilan O‘zbekiston Respublikasining birinchi davlat budgeti tuzilgan. 1924 yildan to 1991 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi davlat budgeti Ittifoq davlat budgeti tartibiga kirgan. 1991 yildan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqil budgetiga ega.

O‘zbekiston, o‘zini mustaqil davlat deb e‘lon qilib, davlatni tanglikdan chiqarish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va dunyoviy, iqtisodiy va siyosiy mustaqil, qudratli, gullab-yashnaydigan kuchli demokratik davlat qurish dasturini ishlab chiqdi va uni amalga oshirishga kirishdi.

Strategik vazifalarni bajarish davlat taraqqiyotining u yoki bu bosqichi xususiyatlariga qarab taktik vazifalarni hal qilishni ham nazarda tutadi. Tarixiy tajriba nuqtai nazaridan qisqa, lekin mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida g‘oyat muhim bosqich bo‘lgan davrdagi davlat budjeti rivojining bosqichlarini ko‘rsatib o‘tamiz.

Mustaqillik e‘lon qilingunga kadar “O‘zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo‘lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi”. Bu davrga kelib davlat budjeti taqchilligi 80 %ga yaqin bo‘lib, Ittifoq davlat budjeti subvensiyalari hisobidan qoplanar edi.

O‘zbekiston davlat budjetining bunday ahvolga tushib qolishi sabablaridan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tamiz. Ittifoqda davlat korxonalarini ikki toifaga bo‘linar edi:

1) bevosita markazga bo‘ysunadigan yirik korxonalar (masalan V.R. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya birlashmasi kabi mudofaa maqsadlaridagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar);

2) mahalliy respublika nazoratida bo‘lgan korxonalar.

Shunday bo‘linishga muvofiq birinchi toifaga kiradigan korxonalar foydasi respublika budjetini chetlab o‘tib bevosita Ittifoq budjetiga tushar edi. O‘zbekiston Respublikasi budjeti daromadlari, asosan ikkinchi toifaga kiradigan korxonalar foydasi hisobidan shakllanar edi.

Respublika paxta etishtirgan holda uni Ittifoq huquqida va chet ellardagi iste‘molchilarga sotishdan foyda olmas edi. “Mamlakatimizdan katta miqdordagi – etishtirilgan paxta hosilining aksariyat hajmi – moddiy boylik osonlikcha tashib ketilar edi. Foyda Ittifoq davlat budjetiga borib tushar edi. Oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan materiallar, jahon bozorida o‘ta haridorgir bo‘lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foyda O‘zbekiston xazinasiga tushmas edi.

1988 yilda O‘zbekistonda iste‘mol tovarlari sanoatini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha tadbirlar tufayli aylanma soliqlarida budjetga tushumlar qisqardi, chunki korxonalar to‘laydigan

aylanma soliqlarining 30 %ni ularning o‘z tasarrufida qoldiriladigan bo‘ldi. Sobiq Ittifoq tizimi sharoitida O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetini shakllantirish O‘zbekiston Moliya Vazirligi tomonidan amalga oshirilar edi. Budget xarajatlari ichki ehtiyojlarga bog‘liq bo‘lib, SSSR Moliya Vazirligi va “Soyuz Gosplani” tomonidan ishlab chiqilgan me‘yorlar, mezonlar va yo‘riqnomalardan foydalangan holda Respublika gosplani tomonidan o‘rnatilgan me‘yorlar va mezonlar hamda yo‘riqnomalar asosida aniqlanar edi.

Davlat budjeti daromadlarining sezilarli qismini davlat korxonalari va tashkilotlari foydasidan ajratmalar tashkil qilar edi. Shuningdek, bir qator soliqlar, oborot solig‘i, aktsiz solig‘i, tuli mahalliy soliqlar va boshqa to‘lovlar hisobidan shakllantirilar edi.

Respublika budjetining daromadlarini etmagan qismini xarajatlarga solishtirilgan holda transfertlar(subvensiyalar) hisobiga qoplanar edi. 1988 yilgacha doimiy usib boruvchi budjet taqchilligi soyuz budjetidan avtomatik rejalashtirilgan transfertlar hisobiga moliyalashtirilgan. Bunday transfertlar “kredit” deb atalar edi, amalda esa ular gosbank tomonidan beriladigan grantlar (ssudalar, dotatsiyalar) hisoblanar edi (2.1.-jadvalga qarang).

1 - jadval

Davlat budjetining 1985-1991 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari⁷

(mln. rub)

№	Ko‘rsatkichlar	1985	1986	1987	1988	1989	1990	1991
1.	Umumiy harajalar	7,92	8,25	8,989	9,065	10,00 4	11,50	32,55 4
2.	Ichki daromadlar	7,517	7,42 5	7,202	7,031	7,708	8,042	12,71 8
3.	Subvensiyalar	407	829	1,787	1,884	1,961	3,122	15,76 0
4.	Kreditlar	-	-	-	150	335	335	4,077
5.	YaMM joriy baholarda	-	-	27,26 9	29,37 2	30,69 8	32,43 0	61,54 9

1985 yilda Respublika daromadi kamayishiga ta’sir kiluvchi asosiy omil oborot solig‘idan tushumning qisqarishi hisoblanadi. Sanoatni

⁷ Государственный бюджет Республики Узбекистон, 1991-1995, программа макроэкономического анализа и подготовки кадров. - Т.: 1996.

rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekistonda, 1988 yil rahbar xodimlar iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishni rivojlantirsalar oborot solig'i bo'yicha tushumlarning 30%ini korxonaga qoldirish tizimini joriy qildilar.

Oborot soliqlari jami budjet tushumlarining salkam 1/3 qismini tashkil qilar edi. Iktsodiy jihatidan puxta asoslanmagan Sovet islohoti (Gorbachevning antialkogol islohoti) natijasida Respublika budjeti sezilarli daromadini yo'qotdi. Mazkur soliq tushumlari vositasida shakllantiriladigan budjetning daromadlarini yo'qotishlari davlat korxonalarining foydasidan budjetga ajratmalar hisobiga qoplandi.

SSSR davlat budjetidan subvensiyalarning 5 barobar ko'payishi chakana savdo baholari islohotlarini amalga oshirish natijasidagi qaysiki chakana savdo baholarini keskin o'sishi natijasidagi zararlarni qoplash uchun maxsus subsidiyalarga to'g'ri kelar edi.

Ayni paytda, O'zbekiston Ittifoq iqtisodiy tizimi bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, barcha sobiq ittifoqdosh respublikalar o'rtasida o'ziga xos kooperatsiya va mehnat taqsimoti mavjud edi. Ishlab chiqarish barcha tizim ehtiyojlariga mo'ljallangan bo'lsa, ishlab chiqarish maqsadlaridagi tovarlar va iste'mol tovarlarining umumiy miqdori umuman buyruqbozlik iqtisodiyot doirasida belgilanar edi.

Natijada: "izdan chiqqan, bir yoqlama" rivojlangan, paxta yakka hokimligi va boy mineral hom-ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot;

- iqtisodiy rivojlanishning xom-ashyoviy yo'nalishi, xom-ashyoni oddiy-sodda qayta ishlash quvvatlarining ibtidoiy darajasi, ishlab chiqarishning chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskuna va butlovchi qismlarga butkul qaramligi;

- yoqilg'i va g'alla masalasida markazga qaramlik, un, shakar, go'sht, sut mahsulotlari kabi eng muhim oziq-ovqat mollarining, boshqa xalq iste'moli tovarlarining, tayyor mahsulotlarning chetdan olib kelinishiga qaramlik meros bo'lib qoldi.

Respublika iqtisodiy hayotining har bir jihatiga ta'sir ko'rsatadigan barcha asosiy siyosiy qarorlar Ittifoq davlati siyosati nuqtai nazaridan qabul qilinadi. Shu sababli Ittifoq parchalanganidan keyin O'zbekiston mustaqil iqtisodiyot yuritishning zaruriy institutsional bazasiga va iqtisodiy yo'nalishga ega emas edi.

2.3. Musutaqil O‘zbekistonda budjet-soliq siyosatining rivojlanish bosqichlari

Yuqorida keltirib o‘tilgan mezonlarga ko‘ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan budjet-soliq siyosatining rivojlanishida uchta uzviy bosqichni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:

1. Budjet-soliq siyosati rivojlanishining birinchi bosqichi.

Birinchi bosqich mustaqillikka erishganimizdan boshlab, 1994 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga qamrab olib milliy davlat moliyasi tizimining shakllanish davri bo‘lib hisoblanadi. Bu bosqich milliy daromadning katta qismi davlat byujetida mujassamlashtirilib, davlatning milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi etakchi o‘rni bilan tavsiflanadi.

Bu davrda soliq va budjet siyosati milliy iqtisodiyot poydevorini shakllantirishga, ishlab chiqarishning yangi tarmoqlarini rivojlantirishga va samarali ijtimoiy himoya tizimini yaratishga qaratilgan edi. Ayniqsa, o‘sha paytda Rossiyada o‘tkazilayotgan “shok terapiyasi” siyosati sababli ijtimoiy zarur tovarlarning narxi keskin oshib ketganligi oqibatlarining oldini olish tadbirlari budjet siyosatining eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan edi. Jumladan un, shakar, go‘sht, sut, choy, guruch va boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan tovarlar uchun davlat budjetidan katta miqdordagi dotatsiyalarning ajratilishi bilan iste‘mol narxlari keskin oshishining oldi olindi, aholining yordamga muhtoj qatlamlarining eqtiyojlari qondirildi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va axillik saqlab qolindi.

2. Budjet-soliq siyosati rivojlanishining ikkinchi bosqichi

Ikkinchi bosqich 1994-1999 yillarni o‘z ichiga olib, soliq va budjet tizimining barqarorlashuvi va tuzilmaviy jihatdan rivojlanishi, hamda budjet ijrosining halqaro andozalarga o‘tilganligi bilan tavsiflanadi. Bunda budjet ijrosining milliy valyuta - so‘mda amalga oshirilishi va Soliq kodeksining (1998) qabul qilinishi natijasida davlat moliyasi tizimi mohiyatidan yangi mazmun va shaklga ega bo‘ldi.

Soliq siyosatining fundamental masalalari bo‘lgan soliq turlari va stavkalari, umumdavlat va mahalliy soliqlar tasniflanishi, soliqqa tortish metodologiyasining asoslari va boshqa umumiy iqtisodiy masalalar Soliq kodeksida aniq va ravshan belgilab berildi. Natijada, O‘zbekiston Respublikasi halqaro ekspertlar tekshiruvidan o‘tgan zamonaviy soliq siyosatining barqaror huquqiy poydevoriga ega bo‘ldi.

O‘z navbatida Soliq kodeksida milliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun bir qator imtiyozlar belgilab berildi. Bu imtiyozlar quyidagi maqsadlarga qaratildi:

- ichki bozorda iste‘mol mollari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish;
- eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash;
- qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etish va yagona er solig‘ini joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi alohida o‘rni ta‘minlash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish;
- xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun qulay moliyaviy shart-sharoit yaratish va boshqalar.

Xarajatlar nuqtai nazardan qarasak davlat budjetining tarkibi takomillashtirildi, xarajatlarning ijtimoiy yo‘nalganligi kuchaydi, ko‘plab turdagi xarajatlarni dasturlar asosida moliyalashtirishga o‘tildi, mahalliy budjetlarning roli oshdi va budjet taqchilligini moliyalashtirishning noinflyatsion uslublari amalga tatbiq etildi.

Masalan, 1999 yilda budjetdan maorifga, sog‘liqni saqlashga, madaniyat, fan va boshqa ijtimoiy sohalarga ajratilgan mablag‘lar davlat budjeti xarajatlarining 36,2%ini, ijtimoiy himoya xarajatlari 9,0 % ini yoki barcha ijtimoiy xarajatlar jami budjet xarajatlarining 45,2 %ini tashkil etdi. Bunda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” doirasidagi maorif xarajatlari jami budjet xarajatlarining 24,2 %idan oshib ketdi.

Oxirgi yillarda uzluksiz davom etib kelayotgan iqtisodiy o‘shish halq farovonligi oshishida o‘z ifodasini topdi. Oddiy so‘z bilan aytganda, iqtisodiy o‘shishning statistika raqamlari aholining oshayotgan pul daromadlariga aylandi. Xususan, birgina 1999 yilning o‘zida eng kam ish haqi miqdori salkam 1,7 martaga oshirildi va narx-navo o‘shishini hisobga olgan holda eng kam ish haqi miqdori real hisoblarda deyarli 1,5 barobar ko‘paydi.

Davlat moliyasi rivojlanishining ikkinchi bosqichi muhim natijalaridan biri davlat budjeti taqchilligining halqaro talablarga mos bo‘lgan yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 %dan oshmaganligidir. Bunda, budjet taqchilligini moliyalashtirishga jalb qilinayotgan Markaziy bank kreditlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,0 % dan oshmadi. 1999 yilga kelib esa budjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan bor yo‘gi 1,7 %ni tashkil kildi.

1994-1999 yillarni qamrab olgan davlat moliyasi rivojining ikkinchi bosqichiga xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi

hukumatining soliq va budjet siyosati o'zining samaradorligini hayotda ko'rsatdi, mo'tadil soliq siyosati ishlab chiqarishning uzluksiz o'sishiga asos bo'ldi, oqilona budjet siyosati esa mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning moliyaviy poydevori bo'ldi va qolaversa aholini ijtimoiy himoya qilishning ishonchli manbaiga aylandi.

3. Budjet-soliq siyosatining rivojlanishining uchinchi bosqichi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlisning birinchi chaqiriq XIV sessiyasidagi va ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi ma'ruzalarida belgilab berilgan jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarini erkinlashtirishga qaratilgan Bosh strategiyasi davlat moliyasi rivojining uchinchi bosqichini boshlab berdi.

Shunga binoan, soliq va budjet siyosatining istiqbol yo'nalishlari deb quyidagilar belgilab olindi:

- iqtisodiyotda davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik funksiyalarini qisqartirish;

- inflyatsiyani bosqichma - bosqich kamaytirish va uni yiliga 6-8 % gacha tushirish;

- aholi daromadlarining uzluksiz oshishini ta'minlash;

- aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash tadbirlarini izchan amalga oshirish;

- sog'lom va ilg'or yosh avlodni tarbiyalash uchun tegishli shart - sharoitlar yaratish va boshqalar.

Shularga ko'ra, 2000 yilning o'zidayoq, soliq siyosatiga bir qator o'zgarishlar kiritildi. Xususan, yuridik shaxslar uchun foyda (daromad) solig'i stavkasi 33% dan 31% gacha, aholi daromadlariga soliqning eng yuqori stavkasi 45 % dan 40 % gacha pasaytirildi.

Eksportga mahsulot chiqarishni rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalarining bevosita o'z mahsulotini eksport qilishdan oladigan daromadlari foyda solig'idan (kichik korxonalar yagona soliq bo'yicha) ozod qilindi. Shu bilan birga, ishlab chiqarilayotgan jami mahsulotning 25 % dan 50 % gacha qismi eksportga jo'natilgan taqdirda mulk solig'ining yarmi to'lanadi, mahsulotning 50 % va undan ortiq qismi eksport qilinganda esa korxonalar ushbu soliqdan butunlay ozod qilinadilar.

Bundan tashqari chet el sarmoyalarini jalb qilish, mahalliy xom-ashyodan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida

chet el sarmoyalari ishtirokidagi korxonalariga solinadigan foyda (daromad) solig'iga nisbatan kamaytirish koeffitsienti joriy qilindi.

2000 yilda Davlat budjeti xarajatlarining barqaror tarkibi asosan saqlab kolindi, ijtimoiy xarajatlarning ulushi yanada oshirildi, moliyalashtirish tartibi soddalashtirildi, hamda budjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblik takomillashtirildi.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli qarori bilan 2000 yildan boshlab budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashning butunlay yangi tartibi joriy qilindi. Unga binoan budjet tashkilotlarining mustaqilligi kengaytirildi, rahbarlarning mas'uliyati oshirildi, budjetdan mablag'larni olish mexanizmi soddalashtirildi, budjet tashkilotlari xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha zaruriy erkinliklar belgilandi. Undan tashqari budjet xarajatlarini moliyalashtirishda soddalashtirilgan xarajatlar tasnifi amalga tatbiq etildi, budjet tashkilotlariga budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishda imtiyozlar berildi, budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'ar-masini tuzishga ruxsat etildi, ularning budjetdan tashqari topgan daromadlari ikki yilgacha barcha turdagi soliqlardan ozod qilindi.

Moliyalashtirishning yangi tartibiga o'tishning birlamchi yakunlari bo'yicha shuni aytish mumkinki, berilgan imtiyoz va huquqlar budjet tashkilotlarining qo'shimcha daromad manbalarini topish va budjet mablag'laridan oqilona va tejimli foydalanish yuzasidan manfaatdorligini keskin oshirdi, hamda kreditor qarzlarning sezilarli kamayishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil avgust oyidagi sessiyasida "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi va matbuotda umumxalq muhokamasi uchun chop etildi. Qonun loyihasi bir necha yillar davomida nufuzli xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida yaratildi va halqaro andozalarga mos kelishi bilan ajralib turadi. Ushbu qonunning umumxalq muhokamasiga kiritilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, Davlat budjeti mamlakatning har bir fuqarosi hayotiga u yoki bu yo'sinda ta'sir o'tkazishi muqarrardir. Jamiyatning har qanday a'zosi yoxud soliq to'lovchi, yoxud budjetdan bevosita yoki bilvosita yordam oluvchi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham, qonun loyihasi nafaqat iqtisodchilar, moliyachilar, olimlar va talabalar tomonidan, balki aholining barcha qatlamlarida qizg'in muhokama qilinmoqda. qonun loyihasining muhokamasi uning yanada boyishiga, takomillashuviga va

qolaversa xalqimizning hohish-istaklariga hamohang bo'lishiga xizmat qilishiga hech qanday shubha yo'qdir.

O'z navbatida qonunning kuchga kiritilishi miliy budjet tizimi rivojining buriilish nuqtasi bo'lib, budjet jarayonining barcha bosqichlarining qonuniy - me'yoriy jihatdan keskin rivojlanishiga asos bo'ladi.

Davlat budjetining 2004 yil loyihasi joriy yilda kutilayotgan natijalar bilan bir qatorda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2005 yilga mo'ljallangan istiqbollari asosida ishlab chiqildi.

Birinchidan, soliq yukini yanada pasaytirish. Jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ishlab chiqarishni rivojlantirishga va investitsiya faoliyatini yanada kengaytirishga shart - sharoit yaratish uchun 2005 yilda yuridik shaxslar uchun foyda solig'i darajasini 18 % dan yana ham tushirish taklifi Oliy Majlisga kiritilgan.

Mutaxassislarning fikricha, yuridik shaxslar uchun foyda (daromad) solig'i stavkasining pasaytirilishi birlamchi davrda budjet daromadlarini kamaytirsam ham, kelajakda ishlab chiqarishning kengayishi, hamda foyda (daromad) hajmining ko'payishi hisobiga soliqqa tortish bazasini oshiradi va budjet daromadlarining ko'payishiga olib keladi.

Bilvosita soliqlar ulushining qisman o'sishi. Asosiy bilvosita soliqlar bo'lmish qo'shilgan qiymat va aktsiz soliqlari stavkalari va turlari o'zgarmasdan qolishi rejalashtirilgan. Chunki ham mahaliy, ham xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror soliq tizimining ahamiyati juda katta. Bilvosita soliqlar ulushining o'sishi bevosita soliqlar ulushining nisbatan kamayishi va qo'shilgan qiymat va aktsiz soliqlarini yig'ib olinishini yaxshilash hisobiga amalga oshadi.

Zamonaviy chet el texnologiyasini respublikamizga olib kirishdagi imtiyozlarga qo'shimcha qilib, chetdan respublikamizga texnologik asbob-uskunalarini olib kirayotgan xo'jalik sub'ektlarini bojxona bojini to'lashdan ozod qilish mo'ljallangan. Taklif etilayotgan tadbir yirik ishlab chiqarishni respublikamizda joylashtirish (lokalizatsiya) ishlarini kengaytirish, eksportga yo'naltirilgan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgandir. Hozirgi vaqtda keltirilayotgan texnologik asbob - uskunarlar faqat qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinganlar.

Keyingi yillarda davlat budjeti xarajatlari quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tadbiralarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini faol amalga oshirish. Bu tadbirlar sirasiga, birinchi navbatda, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, 16 yoshga to'lmagan bolalari bor oilalarga, farzandi hali 2 yoshga to'lmagan onalarga nafaqalar to'lash, yolg'iz pensionerlarga yordam berish, hamda budjet tashkilotlari xodimlarining ish haki, stipendiyalar, nafaqalar va pensiyalar miqdorini inflyatsiya darajasidan yuqori sur'atlarda oshirish va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari budjet xarajatlarida Chernobil AESida bo'lgan falokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan fuqarolar uchun moddiy yordam, nogironlar uchun protezlar sotib olish, yolg'iz qariyalar uylarini moliyalashtirish bo'yicha xarajatlar amalga oshirilmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarning ustuvor yo'nalishlarini moliyalashtirish. Bunda xalq ta'limi tizimini moliyalashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh etish Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoniga binoan 1999-2005 yillarda sog'liqni saqlash tizimida iqtisodiy islohotlarni o'tkazish kontseptsiyasi va asosiy tadbirlar belgilab berildi. Mazkur dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi natijasida:

- mamlakatda yangi shoshilinch tez tibbiy yordami markazi va uning hududlardagi shohobchalari tuzilishi tibbiyot tizimidagi islohotlarning asosiy negizi deb belgilandi;

- birlamchi tibbiy xizmat sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshirildi, shu jumladan qishloq vrachlik punktlarini 2001-2005 yillar mobaynida qati'yan rivojlantirildi;

- onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularni sog'lomlashtirish masalalariga alohida ahamiyat berildi.

Tibbiyot muassasalarini zamonaviy asbob - uskunarlar va dori - darmon bilan ta'minlashga, ularni qayta tiklash va ta'mirlash tadbirlariga budjet xarajatlarida katta o'rin berildi. Shu bilan birga zamonaviy asbob - uskunarlar import qilish uchun tegishli miqdorlarda xorijiy kreditlar jalb qilindi.

Dasturning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda davlat budjetining xarajatlari tarkibida sog'liqni saqlash xarajatlari o'sib bordi. Investitsion faollikni yanada oshirishga budjetning ta'rsiri o'sib bordi.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olib, budjet xarajatlarida kapital mablag‘lar jami budjet xarajatlarining salmoqli qismini tashkil qildi. Bunda kapital mablag‘lar akademik litseylar va kasb - hunar kollejlari qurilishiga, qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minlashga, qishloq joylarda vrachlik punktlarini bunyod etishga va boshqa ijtimoiy ob’ektlar qurilishiga, hamda tog‘ - metallurgiya sanoatiga, yangi erlarni o‘zlashtirishga va ularning meliorativ holatini yaxshilashga, telekommunikatsiya va transport infratizimini rivojlantirishga va boshqa ustuvor loyihalarga yo‘naltirildi.

Davlat budjetidan iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kapital mablag‘lar salmog‘i ortib bormoqda. Bu holat iqtisodiyotda (bozorda) “yalpi talabni” oshirish orqali taklifni, ya’ni ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Xususan, qurilish materialari ishlab chiqarish, qurilish-montaj ishlari, yuk tashish sohalarida va boshqa “bog‘lovchi” tarmoqlarda iqtisodiy faollik oshadi va o‘z navbatida soliq bazasi yanada kengayib, budjetdan ajratilgan mablag‘larning ma’lum qismi bevosita yoki bilvosita tarzda budjetga daromadlar sifatida qaytib keladi. Bir so‘z bilan aytganda, davlat budjetidan katta miqdordagi kapital mablag‘larning moliyalashtirilishi mamlakatdagi “iqtisodiy davr”ning yanada tezlashuvi va kengayishining sezilarli omillaridan biriga aylanadi.

Kapital mablag‘lar bilan birgalikda davlat budjetida suv xo‘jaligi xarajatlari, geologiya - qidiruv tadbirlari, o‘simliklarni zararkurnandalardan va chorva hayvonlarini kasalliklardan saqlash xarajatlari ham o‘z aksini topgan. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmida qishloq xo‘jaligining ulushi salkam 30% ni tashkil qilishi va bunda sug‘oriladigan dehqonchilik asosiy o‘rin tutishini hisobga olgan holda suv xo‘jaligining ekspluatatsiya xarajatlari jami budjet xarajatlarida sezilarli salmoqni tashkil qiladi.

Boshqaruv idoralari xarajatlarini qisqartirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlatning boshqaruvchilik va nazoratchilik funksiyalarini kamaytirish doirasida boshqaruv apparati xodimlari sonini ular bajaradigan vazifaga qarab qisqartirildi. Natijada, bu davlat budjetining davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari keyingi yillarda kamayib bordi.

Jamiyat hayotini erkinlashtirish orqali fuqarolik jamiyatini qurish boshqaruvning bir qator funksiyalarini bevosita halqning o'ziga topshirishni taqozo etar ekan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu sohada keyingi yillarning o'zidayoq bir qancha ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, budjetdan to'lanadigan ikki yoshgacha bolasi bo'lgan ishlaydigan onalarga nafaqalar ilgari ijtimoiy ta'minot idoralari tomonidan belgilangan bo'lsa, endilikda ular mahalla yig'inlari orqali ajratilmoqda. Shu kabi 16 yoshgacha bolalari bo'lgan onalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam puli kam makalla yig'inlari tomonidan belgilanmoqda. Shularni hisobga olib xo'jaliklar soni 500 dan ortiq bo'lgan mahalla yig'inlari raislari va kotiblariga budjetdan ish haqi to'lanmokda.

Fuqarolarning yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdagi rolini oshirish maqsadida kar bir mahallada "Mahalla posboni" guruhlari tashkil etildi va guruh rahbarlariga budjetdan maosh belgilandi.

Bundan tashqari elektr energiya, suv, tabiiy gaz va boshqa kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning fuqarolar tomonidan to'liq va o'z vaqtida to'lanishida mahalla yig'inlarining manfaatdorligini oshirish maqsadida tegishli hududdan to'liq tushgan to'lovlarning bir qismi mahalla ixtiyorida qoldirilish mexanizmi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini himoyalash, chegara sarhadlarining dahlsizligini ta'minlash, qurolli kuchlarni isloh qilish va zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlashga bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun mablag'lar davlat budjetidan amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, moliya bozorini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar miqdorini oshirish maqsadida davlat qimmatli kog'ozlarini sotishdan tushadigan mablag'larni jalb qilish budjet loyihasida ko'zda tutilmagan.

Keyingi yillarda budjet-soliq tizimidagi islohotlarning ijobiy pirovard natijalari sifatida 2005- 2006 yillarda davlat budjetining profitsit bilan ijrosi ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, inflyatsiya jarayonining me'yordagi darajasini ta'minlanishi islohotlarni hozirgi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning natijalari hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Moliya-budjet siyosati - davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar va harakatlar yig'indisi bo'lib, u budjet tizimini boshqarishda va ularni o'z vazifalarini bajarishlari uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanishlari bo'yicha moliya budjet sohasidagi maqsad va vazifalarni aniqlashni ko'zda tutadi, budjetdagi pul mablag'larini safarbar etish mexanizmining ishlatilish yo'nalishlarini tanlaydi va budjet tizimida moliya budjet instrumentlari yordamida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarini tartibga solishni tashkil etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjetining ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni nimalar bilan belgilanadi?
2. Iqtisodiy kategoriya sifatida budjetning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
3. Budjeting ta'rifini aytib bering?
4. Milliy mustaqillik qo'lga kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasi budjeti tizimi qanday bo'lgan?
5. Milliy mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng budjet tizimidagi institutsional o'zgarishlar nimalardan iborat bo'ldi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston, 2015 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan

ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baktria press", 2016 y. – 168 b.

8. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

9. Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

10. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O'zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi).
- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)
- www.publicfinance.uz (O'zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi).
- www.ziynet.uz (O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

III BOB. O‘ZBEKISTON RESRUBLIKASI BYUDJET TIZIMI

3.1. Davlat budjeti qurilmasining iqtisodiy - huquqiy asoslari

Respublikamizda davlat budjeti qurilmasi boshqarishning ma'muriy va bozor mexanizmlarini qo'shilgan holatida amal qilinmoqda. Albatta, mustaqil Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar sharoitida boshqarishning bozor usullariga mos keluvchi budjet qurilmasini tez va mukammal shakllantirish qiyin kechishi tabiiydir. Shuning uchun budjet tizimidagi islohotlar ham bosqichma - bosqich iqtisodiy islohotlarning bosh kontseptsiyasiga muvofiq ravishda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o‘tar ekan, iqtisodiy mexanizmlar bozor munosabatlari asosida qurilib, ular tarkibida o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi boshqa MDH mamlakatlari kabi bozor iqtisodiyotiga o‘tish, mulk shakllarining o‘zgarishi va boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechish bilan yangi bozor munosabatlari asosida rivojlanib bormoqda. Albatta, bu o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimiga ham taalluqlidir.

Budjet qurilmasi tushunchasi hozirgi vaqtgacha iqtisodchilarimiz tomonidan nazariy jihatidan keng tadqiq qilinmagandir. Masalan, aksariyat adabiyotlarda budjet qurilmasi budjet tizimiga qo‘shib yuboriladi yoki mualliflar budjet qurilmasining tarifini aniq bermaydilar. Hatto, O‘zbekiston Respublikasi «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunida ham budjet qurilmasiga to‘liq aniqlik kiritilmagan.

Aksariyat Rossiyalik iqtisodchi olimlar budjet qurilmasining 3 asosiy elementini ajratib ko‘rsatadi: mamlakatning budjet tizimi, turli darajadagi hokimiyat organlarining budjet huquqlari, budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlanish tamoyillari.

Budjet qurilmasining mazkur yoritilish budjet kurilmasi moliyaviy kategoriyasining zamonaviy mazmunini tulaqonli ravishda o‘zida aks ettiradi. Budjet qurilmasi budjet tizimini tashkil qilish va uning tuzilish tamoyillarini o‘zida aks ettirib, turli darajadagi hokimiyat organlarining budjet huquqlari va vakolatlari, daromad va xarajatlarni budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash tamoyillarini aniqlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Budjet qurilmasi mamlakatlarning siyosiy tuzilishi, boshqaruv tizimining shakllanish xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir. Masalan, Federativ mamlakatlarda munitsipal budjetlarning budjet vakolatlar va huquqlari unitar mamlakatlarga nisbatan yuqoridir. Ma’lumki, mamlakatning byudje tizimi, turli darajadagi hokimiyat organlarining budjet huquqlari elementlarida gap budjet tizimining tamoyillari haqida ketadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Budjet kodeksi»da daromad va xarajatlarni budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlanishi ko‘rsatib berilgan⁸.

3.2. Budjet tizimi va uning bo‘g‘inlari

Aksariyat adabiyotlarda budjet tizimi barcha darajalardagi budjetlarning majmuasi sifatida yoritiladi. Budjet tizimiga berilgan mazkur aniqlikda aksariyat mualliflar to‘xtalishmoqda.

Professor G.B. Rolyakning fikriga ko‘ra, «Budjet tizimi - iqtisodiy munosabatlar, davlat qurilmasi va huquq me‘yorlariga asoslangan davlat, ma‘muriy - hududiy birlashmalar budjetlari, budjet munosabatlarida mustaqil muassasalar va fondlarning majmuasidir»⁹.

Shuningdek, professor V.M. Rodionova ham budjet tizimi - iqtisodiy munosabatlarga va yuridik me‘yorlarga asoslangan mamlakatdagi barcha turdagi budjetlarning majmuasi, - degan fikrni bildiradi.

Shuningdek, amaldagi iqtisodiy munosabatlar tizimi, barcha darajadagi budjetlar markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining aniq vazifalarini moliyalashtirish uchun ularning ixtiyorida shakllantiriladi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha yagona konstitutsiya va boshqa huquqiy me‘yorlar asosida tartibga solinishini hisobga olib quyidagicha ta’rif beriladi: Budjet tizimi - iqtisodiy munosabatlar va O‘zbekiston Respublikasi davlat qurilmasiga asoslangan, xukuk me‘yorlari bilan tartibga solinadigan, budjet vakolatlariga muvofiq markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining aniq funksiyalarni bajarishga yo‘naltirilgan barcha darajadagi budjetlar majmuasidir.

⁸ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”, - T.: 2013.

⁹ Поляк Г.Б. Бюджетная система РФ. – М.: ЮНИТИ, 2001.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi 2 darajadan iborat bo‘lib:

- 1) Respublika budjeti va budjetdan tashqari fondlar;
- 2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy budjetlar.

O‘zbekiston Respublikasi budjetining tashkiliy - tarkibini quyidagi (3.1.chizmada) yaqqolroq namoyon bo‘ladi:

O‘zbekiston demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ekan, bunda davlat budjetini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Shuni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi 2000 yil, 2 - chaqiriq, III - sessiyasida, «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonun:

- O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;

- O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti tuzilishi va tarkibiy tuzilmasi tamoyillarini;

- davlat budjeti va uning tarkibiga kiruvchi budjetlarni tuzish. Ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini;

- budjetning daromadlarini shakllantirish va uning xarajatlarini amalga oshirish tamoyillarini;

- turli darajalardagi budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini;

- Davlat budjeti mablag‘lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish chog‘ida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, ularni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini, shuningdek budjet jaraenida paydo bo‘ladigan ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlarini o‘zida ifodalaydi. Moliya yiliga mo‘ljallangan barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining ushbu qonunida ta’kidlanishicha, O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi ikki pog‘onali budjetdan iborat:

1.Respublika budjeti.

2.Mahalliy budjet.

Qonunda ko‘rsatilishicha, mahalliy budjetlar bo‘g‘inlari tarkibiga quyidagilar kiradi: 1.Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti; 2.Viloyatlar budjeti; 3.Shaharlar budjeti; 4.Tumanlar budjeti;

5.Shaharlar tarkibidagi tumanlar budjeti; 6.Tumanlar tarkibidagi shaharlar budjeti.

O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining o‘ziga xos hususiyati shundaki moliyaviy organlar budjetni boshqarish tizimining yagona moliya organi sharoitida amal qiladi. Har qaysi budjetning bo‘g‘inlari o‘ziga xos daromad vakolati va xarajat majburiyatlariga ega bo‘lib, ular bir butun budjet vazifalarini bajarishga asoslanadi.

Keyingi yillarda davlat budjeti tarkibida mahalliy budjetlarning islohotlarni amalga oshirishdagi roli oshib borish tendentsiyasini kuzatishimiz mumkin.

3.3. Budjeti tizimining asosiy tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining o‘ziga xos xususiyati shundaki, moliyaviy organlar budjetni boshqarish tizimining yagona moliya organi sharoitida amal qiladi. Budjet tizimining tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

Budjet tizimining yagonaligi. Budjet tizimining huquqiy bazasi, pul birligi, budjet hujjatlari shakllari, budjet qonunchiligini buzilish oqibatidagi sanksiyalar yagonaligi, budjet tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi xarajatlarni moliyalashtirish, hisobini yuritishning yagona tartiblari amal qilishi.

Budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida daromad va xarajatlarning chegaralanishi.

Budjet tizimining har bir bo‘g‘ini mutsamil daromad va xarajatlarga egadir. Biriktirilgan daromadlar va tegishli xarajatlar markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining huquq va vakolatlariga ham asoslanadi.

Barcha budjetlarning mustaqilligi tamoyili. Bu tamoyil quyidagilarda o‘z mazmunini topadi:

- Davlat hokimiyatining qonunchilik organlari va mahalliy hokimiyat organlarini budjet tizimining tegishli bo‘g‘inlaridagi budjet jarayonini tashkil qilishdagi huquqlarini ta’minlashi;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq budjet tizimining har qaysi bo‘g‘ini biriktirilgan daromad manbalarining mavjudligi;

- tartibga soluvchi daromadlarning qonuniy biriktirilishi;

- Davlat hokimiyati organlari va mahalliy hokimiyat organlarini tegishli budjetlar xarajatlarini mustaqil belgilashi va boshqalar hisoblanadi.

Budjetning balanslilik tamoyili.

Davlat budjeti xarajatlari, daromadlar va taqchilikni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tushum miqdorlarida balanslashtirilishi lozim.

Budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi.

Tasdiqlangan budjet mablag'lari maksimal samara darajasida ijrosi ta'minlanishi lozim.

Budjetning oshkoralik tamoyili.

Tasdiqlangan budjet oshkora e'lon qilinishi, ijrosi jarayonidagi ma'lumotlar oshkora e'lon qilinishi lozim.

Budjet mablag'larini maqsadli va manzilli xususiyatga egaligi.

Budjet mablag'lari budjet mablag'larining oluvchilariga aniq maqsadlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi lozim.

3.4. Budjet tizimida mahalliy byujetlarning tutgan o'rni

Mahalliy budjetlar budjet tizimida asosiy o'rinni egallaydi. Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining asosiy qismi sifatida o'zida 14 ta mustaqil budjetni mujassamlashtiradi.

Mahalliy budjet — budjetning tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining tarkibiy qismi sifatida quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- qonunchilik bazasini unifikatsiyalash;
- pul tizimi qurilishi, budjetni tasniflash tizimi, budjetning hisob-kitob tizimi, budjet jarayoni birligi;
- budjet qurilishining ma'muriy - hududiy bo'linishiga mosligi;
- davlat budjetini tashkil qiluvchi budjetlarning o'zaro bog'liqligi;
- davlat daromadlar va xarajatlarining tengligi (yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan budjet taqchiligini hisobga olgan holda);

- davlat daromadlar va xarajatlarining aniq manbalari va yoʻnalishlarini rejalashtirish;
- davlat budjetining xarajatlarini budjet tizimining qonuniga koʻra amalga oshirish;
- kapital va joriy xarajatlarni bir-biridan ajratish;
- budjetlar mustaqilligi;
- toʻgʻriligi;
- hisobotlarning budjet ijrosi toʻgʻri bajarilishi ustidan nazorat.

Budjet qonunchiligi budjet tizimining har qaysi boʻgʻini tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlar tizimini oldindan aniq belgilaydi. Respublika budjeti ixtiyorida umumdavlat ahamiyatidagi ehtiyojlarni va u yoki bu mahalliy budjet imkoniyati doirasida boʻlmagan xarajatlarni moliyalashtirish birlashtirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy budjetlar davlat budjetining tarkibi sifatida mahalliy hokimiyat organlari boshqaruv vositalari boʻladi. Shu bugungi kungacha mahalliy budjetlarni tashkil etish, ularni boshqarish 1993 yilda joriy qilingan «Oʻzbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat organlari toʻgʻrisida»gi qonunga asoslanar edi. Oʻzbekiston Respublikasining “Budjet tizimi toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi budjet mustaqilligiga amal qiladi. Budjet mustaqilligi tamoyili, – tumanning vakolatli organlari budjet jarayonini mustaqil amalga oshirishi qonuniy yul bilan barcha darajadagi budjetlarga daromadlarni birlashtirish vakolatli organlar tomonidan mahalliy soliqlar va yigʻimlarning stavkalarini oʻzgartirish tushuniladi.

Mahalliy budjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning budjet siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir. Bu borada prezidentimizning fikr - mulohazalari diqqatga sazovordir: 2020 yildan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini kengaytirish, byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning masʼuliyatini yanada oshirish, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablagʻlaridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini taʼminlashga qaratilgan yangi byudjet tizimi joriy etilmoqda.

Ilk bor “2020 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni bilan respublika byudjeti xarajatlari vazirlik va idoralar kesimida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan, mahalliy byudjetlar xarajatlari esa xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo‘yildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan hamda to‘liq mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladigan daromad turlari kengaytirildi.

Mahalliy budjetlar orqali halq ta‘limi, sog‘liqni saqlash va madaniyat muassasalari moliyalashtirib boriladi. Mahalliy budjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Qariyb aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining 100 %i mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladi.

Amaldagi iqtisodiy siyosat strategik yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda joylardagi islohotlarni amalga oshirishda davlat budjetining roli goyat muhimligi tabiiy xoldir. Shunga asoslangan holda davlatning markazlashtirilgan pul fondlarining asosiy shakllaridan biri bo‘lgan davlat budjeti munosabatlarini shakllantirish va budjet huquqlari hamda majburiyatlarini hududlar bo‘yicha taqsimlanishining umumiy mexanizmlari budjetlararo munosabatlar tizimida o‘z aksini topadi.

Mahalliy budjet - Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy budjet daromadlari manbalari, ularning tashkil topishi hamda nisbatlari, «O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi» va «Budjet kodeksida»da mahalliy budjetlar daromadlarining sakkiz xil manbai aniq ko‘rsatilgan:

1) mahalliy soliqlar, yig‘imlar, bojlar, majburiy to‘lovlar va soliq bo‘lmagan boshqa to‘lovlar;

2) budjet qonunchiligida ko‘rsatilgan me‘yorlar asosida mahalliy budjetlar ixtierida qoldiriladigan umumdavlat soliqlari va umumdavlat tushumlari;

3) qonunda ko‘rsatilgan me‘yorlar asosida davlat mulkini joylashtirish, vaqtincha foydalanishga berish asosida olingan daromadlar;


4) davlat qonunchiligi asosida egalik qilish, vasiyat, moliyaviy yordam, xayriya maqsadlarida tushgan pul tushumlari;

5) yuqori budjetlardan ajrtiladigan budjet subvensiyalari, dotatsiyalari va ssudalari;

6) alohida olingan huquqiy va jismoniy shaxslar hamda xorijiy davlatlar tomonidan qaytarib olmaslik sharti bilan olingan pul tushumlari;

7) Qonunda belgilangan turli maqsadli tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida umumiy loyiha yoki hamkorlik tarzida jalb etilgan mablag'lar;

8) Qonunda ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar.



1-chizma. Mahalliy budjetlarning daromadlari tarkibi.

Iqtisodiy mazmuni jihatidan mahalliy budjetlarning daromadlari shakllanishi Respublika budjetiga nisbatan alohida xususiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlarning daromadlari tarkibida mahalliy soliqlar va yig'imlardan tashqar moliyaviy tenglashtirish siyosati bo'yicha yuqori budjetlardan kelib tushadigan daromadlar hisobiga ham

shakllantiriladi. Mahalliy budjetlarning daromadlar tarkibi quyidagi yuqoridagi chizmada yaqqolroq ko‘rinadi.

Biriktirilgan daromadlar – budjet huquqining sub’ektiga tegishli mablag‘lar, ya’ni budjetga to‘laligicha yoki qat’iy o‘rnatilgan ulushda doimiy ravishda kelib tushadigan mablag‘lardir.

Mahalliy byujetlar daromadlari tarkibida Umumdavlat soliqlaridan me’yoriy ajratmalar salmog‘i yuqoridir. Mazkur daromad manbalari asosiy umumdavlat soliqlari hisoblanuvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i, aktsiz solig‘i, daromad (foyda) solig‘idan me’yoriy ajratmalar shaklida mahalliy budjetlarga beriladigan daromadlar hisoblanadi. Ularning salmog‘i mahalliy budjetlar daromadlarining tahminan yarmidan ko‘p qismini tashkil qiladi.

Budjet qonunchiligi budjet tizimining har qaysi bo‘g‘ini tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlar tizimini oldindan aniq belgilaydi. Respublika budjeti ixtiyorida umumdavlat ahamiyatidagi ehtiyojlarni va u yoki bu mahalliy budjet imkoniyati doirasida bo‘lmagan xarajatlarni moliyalashtirish biriktirilgan.

Mahalliy budjetlar davlat budjetining bo‘g‘ini sifatida umumiy tarzda quyidagi xarajatlar tizimiga ega:

1. Mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining joriy xarajatlari;

2. Mahalliy budjetlar kuyi bo‘g‘inlari uchun budjet transfertlari;

3. Kapital xarajatlar: - asosiy vositalar va fondlarni davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarish; - davlat ehtiyojlari uchun erga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olish;

4. Qonunda ta’qiqlanmagan boshqa xarajatlar.

«Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunda mahalliy budjetlarga belgilanadigan cheklovlar to‘g‘risida ham belgilanib qo‘yilgan.

Mahalliy budjetlarni tasdiqlash va ijro etishda:

-qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbalar hisobiga jamg‘armalar tashkil etishga;

-mablag‘ jalb qilishni amalga oshirishga, yuqori budjetlardan budjet ssudalari olish bundan mustasno;

-o‘z budjetlari xarajatlariga tasdiqlangan budjetdan ajratiladiganidan ortiqcha mablag‘ sarflashga, ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

-budjet mablag‘lari hisobidan boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

-yuridik va jismoniy shaxslarga budjet ssudalari berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.5. Budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar

Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi ekan barcha darajadagi budjetlarni o‘z ichiga oluvchi budjet tizimiga ham tarixan shakllangan davlatlarning siyosiy tuzilishi asosiy ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. Markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining ixtiyorida shakllantiriladigan budjetlar o‘rtasida bir butun davlat budjeti daromad va xarajatlari taqsimlanadi. Davlat budjetining daromad va xarajatlarini taqsimlanishining mukammal mexanizmi mavjud bo‘lmaydi va shuning uchun turli darajadagi budjetlarni tartibga solish bo‘yicha moliyaviy resurslar oqimlari vujudga keladi.

Hozirgi sharoitda mavjud iqtisodiy adabiyotlarda budjetlararo munosabatlar tizimi: daromad manbalarini budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash; xarajat majburiyatlarini budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash; budjetlararo transfertlar tizimi kabi 3 tarkibiy elementdan tashkil topadi deb e’tirof etiladi.

Daromadlarni budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlanishi va xarajat majburiyatlarini har bir budjet bo‘g‘ini uchun birlashtirilishi budjetlararo munosabatlar tizimining vujudga kelishini asosi hisoblanadi. Shuning uchun daromadlar qanchalik darajada tegishli xarajat majburiyatlariga yuklatilsa, shunchalik budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlanishi bo‘yicha o‘zaro munosabatlar qisqarib boradi.

Daromadlarni har bir bo‘g‘indagi budjetlarga birlashtirilgan xarajat majburiyatlari bo‘yicha mukammal ravishda taqsimlanish mexanizmini shakllantirishning imkoniyatlari mavjud bo‘lmaydi. Bunga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:


-mamlakat hududlaridagi tabiiy, iqtisodiy resurslarning teng taqsimlanmaganligi;

- hududlarning soliq salohiyati va demografik muhit shart - sharoitlari o‘rtasidagi tafovutning mavjudligi;

-budjet tizimini tartibga solish maqsadida hududlarni moliyaviy tenglashtirish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan daromadlarning nisbatan yuqori darajadagi markazlashtirishning zarurligi va boshqalar asosiy ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Yuqoridagi omillar budjetlararo munosabatlar tizimini shakllantirishning ob'ektiv zarurligini asoslab beradi.

Budjetlararo munosabatlar moliyaviy munosabatlarning alohida shakli sifatida budjet munosabatlaridan o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha farqlanadi. Ularning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, budjet munosabatlardan farqli ravishda budjet tizimining turli bo'g'inlari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash bilan bog'liq munosabatlardir ya'ni bunday moliyaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilar sifatida markaziy va mahalliy hokimiyat organlari ixtiyorida shakllantiriladigan budjetlar maydonga chiqadilar. O'zbekiston Respublikasi "budjet tizimi to'g'risida"gi qonunga muvofiq turli darajadagi budjetlar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlanishi quyidagi chizmada keltiriladi.



2-chizma. Daromadlarni budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlash.

Respublika budjetidan budjet dotatsiyalari va budjet subvensiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlariga qabul qilingan Davlat budjeti doirasida ajratiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlaridan budjet dotatsiyalari va budjet subvensiyalari tumanlar va shaharlar budjetlariga tegishli qabul qilingan budjetlar doirasida ajratiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetida va mahalliy budjetlarda daromadlar va xarajatlar o'rtasida paydo bo'ladigan vaqtinchalik uzilish aylanma kassa mablag'i me'yori hisobiga, yuqori budjetlardan

beriladigan budjet ssudalari, foydalanilmagan budjet mablag‘lari qoldiqlari hisobiga qoplanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetida, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlarida nazarda tutilgan ayrim xarajatlarni maqsadli moliyalashtirish uchun quyi budjetlar hisobiga kiritiladigan daromadlarni respublika budjetiga o‘tkazishi mumkin.

Qisqacha xulosalar

Budjet qurilmasi budjet tizimini tashkil qilish va uning tuzilish tamoyillarini o‘zida aks ettirib, turli darajadagi hokimiyat organlarining budjet huquqlari va vakolatlari, daromad va xarajatlarni budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash tamoyillarini aniqlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Budjet tizimi - iqtisodiy munosabatlar va O‘zbekiston Respublikasi davlat qurilmasiga asoslangan, huquq me‘yorlari bilan tartibga solinadigan, budjet vakolatlariga muvofiq markaziy va mahalliy hokimiyat organlarini aniq funksiyalarini bajarishga yo‘naltirilgan barcha darajadagi budjetlarning majmuasidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjeti qurilmasi tushunchasini tushuntiring.
2. Budjet tizimi va uning bo‘g‘inlarini ko‘rsating.
3. Mahalliy budjetlarning budjet tizimidagi tutgan o‘rni nimalardan iborat?
4. Budjetlararo munosabatlar tizimi deganda nimani tushunasiz?

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Baktria press”, 2016 y. -168 b.

8. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

9. Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

10. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy ba‘zasi).
- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
- www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
- www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta‘lim tarmog‘i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

II BO‘LIM. DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARI TIZIMI

IV BOB. DAVLAT BUDJETINING SOLIQLAR HISOBIGA SHAKLLANTIRILADIGAN DAROMADLARI

4.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlari shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, budjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, davlat budjeti iqtisodiy kategoriya hisoblanib, uning moddiy asosini ijtimoiy takror ishlab chiqarish natijasida yaratilgan qiymat tashkil qiladi. Xususan, YaIMni budjet orqali qayta taqsimlash bir vaqtning o‘ziga uzluksiz 2 bosqichda amalga oshiriladi:

- Davlat budjeti daromadlari shakllantiriladi;

-Davlat budjeti mablag‘lari xarajat elementlari bo‘yicha sarflanadi.

Davlat budjeti daromadlari - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq YaIM va milliy daromadning taqsimlanishi jarayonida Respublika hukumati va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari ixtiyoriga qaytarilmaslik tartibida kelib tushadigan pul mablag‘laridir.

Davlat budjeti daromadlari shakllanish jarayoni ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni natijasida yaratilgan YaIM va milliy daromadni taqsimlanish jarayonidagi majburiy tavsifdagi pul to‘lovlarini anglatadi. Davlat budjetining imperativ tavsifdagi xususiyati bir tomondan budjet daromadlarining shakllanishi bilan belgilanadi.

Davlat budjeti daromadlari, ularning to‘lovchilari, ob‘ekti va undirish usullari bo‘yicha bir biridan tubdan farq qiladi. Ammo, davlatning jamiyatdagi vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan turli darajadagi budjetlar daromadlarini shakllantirish maqsadi yagona hisoblanadi.

Byujet daromadlari xarajatlarni moliyaviy ta‘minlash vazifasini bajarib, uni shakllanish xususiyatlari jamiyatda shakllantirilgan iqtisodiy tizimlarga bevosita bog‘liqdir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet daromadlarini shakllantirishning soliq usuli ustuvor

ahamiyat kasb etadi. Chunki, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida yaratilgan qiymatni davlat daromadlari sifatida qayta taqsimlash soliqlar vositasida amalga oshiriladi. Masalan, sobiq Ittifoq tizimidagi rejali - direktiv iqtisodiyot tizimi sharoitida daromadlarni budjetga markazlashtirishda foydadan me'yoriy ajratmalar usuli ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki, bu sharoitda iqtisodiyotda davlat mulkchiligi xukmron ahamiyatga ega bo'lgan va davlat korxonalar va tashkilotlaridan soliq undirishga hech qanday asos bo'lmagan. Ularning foydasidan me'yoriy ajratmalar sifatida davlat budjeti daromadlari shakllantirilgan va ularni moliyaviy ta'minlashda ham davlat budjetining hissasi yuqori bo'lgan.

Bunda kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, soliqlar nafaqat bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan kategoriya, balki, mamlakatdagi demokratik tamoyillarga asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi shakllanishida va erkin tadbirkorlik faoliyati taraqqiyotiga asoslangan xususiy mulkchilik munosabatlarining asosiy unsurlaridan ham biri hisoblanadi.

Davlat budjetining daromadlarida soliqlar bilan birga soliqsiz daromadlar ham alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Soliqsiz daromadlar davlatning iqtisodiy faoliyati yoki davlat budjeti daromadlarini budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlanishi natijasida hosil bo'ladi. Davlat budjeti daromadlari tarkibi aksariyat holatlarda aniq iqtisodiy shart - sharoitlar bilan belgilanadi. Xususan, nisbatan rivojlangan iqtisodiyotga ega bo'lgan, turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lgan mamlakatlarda jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning salmog'i budjet daromadlari tarkibida yuqori bo'ladi. O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda egri soliqlar va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar budjet daromadlarida asosiy salmoqqa ega bo'ladi.

4.2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, zarurligi va funksiyalari

Soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxonalar va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, turli ishlar bajarganda yoki bozorda oldi sotdi qilganda pul to'lovlari mavjud. Lekin ular soliq bo'la olmaydi. Soliq munosabati bo'lishi

uchun davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot (to'g'rirog'i, yalpi ichki mahsulot) qiymatini taqsimlash yo'li bilan majburan davlat budjetiga mablag' to'plash jarayoniga amal qiladi.

Soliqlarni o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, majburiyligi, xazinaga tushushi, kat'iyligi va doimiyligi aniq soliq to'lovchi uchun ekvivalentsizlik belgisidir.

1. Soliq va yig'img'lar majburiy tavsifga ega bo'lgan pul to'lovlari bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchining daromadini majburiy to'lov sifatida budjet daromadlari sifatida markazlashtiradi.

2. Soliqlar xazinaga - davlat budjetiga tushadi. Soliqlar davlat ehtiyojlari uchun taqsimlanadigan milliy daromadning ma'lum bir qismidir. Soliqlar vositasida jismoniy va yuridik shaxslarning pul daromadlarining ma'lum bir qismi umumjamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan ehtiyojlarni moliyaviy ta'minlash uchun davlat ixtiyorida markazlashtiriladi.

3. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Soliqlar tizimlashtirilgan holda undiriladi va ular uzoq davr mobaynida barqaror ravishda xo'jalik mexanizmining alohida elementi sifatida amal qiladi.

4. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga manzilli ravishda to'liq qaytmaydigan ekvivalentsiz pul to'lovidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida solliqlar davlatning ko'zga ko'rinmaydigan xizmatlari uchun to'lanadigan xaqdir (Milliy xavfsizlik, huquqiy tartibga solish, siyosiy hokimiyat faoliyati, ijtimoiy - iqtisodiy infratuzilma tizimlarini shakllantirish va boshqalar).

Soliqlarning mohiyati soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi doimiy, uzoq muddatli munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

Soliqlarning ob'ektiv zarurligi - davlatning bajaradigan qator funksiyalarini mablag' bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi. Davlatning jamiyatdagi bajaradigan vazifalari ko'p bo'lib bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi vazifalar yo'qola borsa, ba'zilariga ehtiyoj tug'ilishi natijasida paydo bo'ladi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida solliqlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- fiskal;
- tartibga soluvchi

Soliqlarning fiskal (xazina) funksiyasi davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai sifatidagi xususiyatlariga asoslangan.

Ammo haddan ziyod daromadlarni markazlashtirishga yo'naltirilgan soliqlarning fiskal funksiyasi iqtisodiyotni izdan chiqishiga olib keladi. Ayrim iqtisodchilar, soliqlarning xazina funksiyasini to'liq va keng ma'noda taqsimlash funksiyasi, deb e'tirof etishadi.

4.3. O'zbekistonda soliqlarning tuzilish asoslari

Soliqlar o'zining iqtisodiy mohiyati, budjetga kelib tushish xususiyati, soliq to'lovchilarning xususiyatlari bo'yicha tasniflanadi. Masalan, iqtisodiy mohiyati bo'yicha egri va to'g'ri soliqlarni turkumlashimiz mumkin. Bizga ma'lumki, soliqlarning asosiy manbai yangidan yaratilgan qiymat va birlamchi taqsimlash jarayonida hosil bo'ladigan daromadlar: foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, ssuda %i, renta va dividendlar hisoblanadi. Yuqoridagilarga asoslangan holda amaldagi soliq tizimida bir qator soliqlar amal qiladi.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga ko'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona va er osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin, oborot tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgariydek mahsulot realizatsiyasi oborot emas, balki mahsulotni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlar va boshqalar kiritiladi. Bu guruh soliqlarga ijtimoiy obodonlashtirish va infratuzulmani rivojlantirish solig'i ham kiritiladi.

Mol - mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol - mulk solig'i, er solig'i, er osti boyliklaridan foydalanish solig'i boshqalar kiradi.

Respublikamizda shakllantirilgan soliq tizimi jahon amaliyotida umumiy qabul qilingan tizimlar bilan uyg'unlashtirilgan holda shakllantirilgan. Shuningdek, milliy soliq tizimimiz halqimizning uzoq yillar mobaynida shakllangan milliy an'analari, milliy mentalitetimiz bilan ham sug'orilgan.

O‘zbekistonda soliq tizimi tuzilmasi

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliqlar va majburiy to‘lovlar
1. Yuridik shaxslar foyda solig‘i; 2. Yagona soliq to‘lovi; 3. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i; 4. Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq; 5. QQS; 6. Aksiz solig‘i; 7. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq; 8. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.	1. Mol-mulk solig‘i. 2. Yer solig‘i. 3. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish uchun yig‘im.

Bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatda bog‘liq bo‘lib, markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisiga soliq tizimi deb ataladi. Bu ta‘rifda soliq va yig‘imlar yagona mohiyat - «Ya‘ni majburiy xarakterga ega bo‘lgan munosabat» va ularning bir - biri bilan bog‘liqligi, va nihoyat budjetga tushishligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 5-8 moddalariga binoan soliq tizimi quyidagi tarkibga ega/


Soliqlarning mazkur turkumlanishi, ularning turli darajadagi budjetlar uchun daromad manbai sifatida biriktirilishiga asoslanadi. Umumdavlat soliqlar Respublika budjetining daromadlar manbai hisoblanuvchi soliqlardir. Mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy budjetlarning daromadlari manbai hisoblanuvchi soliqlardir. Soliqlarning budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlanishi ularning turli darajadagi budjetlarning barqaror daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatlariga asoslanadi.

4.4. To‘g‘ri soliqlar va ularni budjet daromadlaridagi salmog‘i

Budjet daromadlarini shakllantirishda to‘g‘ri soliqlar egri soliqlarga qaraganda salmog‘i pastroqdir. Shuning uchun budjet daromadlarini shakllantirishda to‘g‘ri soliqlar katta ahamiyatga ega

To'rg'i soliqlar bevosita daromad oluvchi mulk egasining daromadidan olinadi. Bunday soliqlar soliq to'lovchining daromadidan to'g'ridan - to'g'ri olinib, ularning moliyaviy natijalariga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri soliqlar bo'yicha tushumlar islohotlarning 1 va 2 - bosqichlarida budjet daromadlarida sezilarli salmoqni tashkil qilgan. Bunday sharoitda ishlab chiqarishdagi soliq yukining yuqori darajasi amal qilgan.

To'g'ri soliqlar quyidagi chizmada keltiriladi



3-chizma. To'g'ri soliqlarning turlari.

To'g'ri soliqlardan to'g'ridan - to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Aholidan undiriladigan to'g'ri soliqlar bo'yicha soliq yukininig pasayishi aholining pul daromadlari oshirilishiga va oxir oqibat iste'mol hamda jamg'armalar ko'payishiga olib keladi. Korxonalarining moliyaviy yakuni foyda yoki daromad to'g'ri soliqlar manbai hisoblansa, tovar qiymati, ko'proq yangi yaratilgan qiymat egri soliqlar manbai hisoblanadi (4.2.chizmaga qarang).

To'g'ri soliqlar va ularning budjet daromadlaridagi hissasi

Daromadlarning turlari		2017		2018		2019	
		mln.so'm	%	Mln.so'm	%	mln.so'm	%
Maqsadli fondlarsiz daromadlarning turlari.		5100867,9	100	7108257,4	100	10421382,5	100
1. To'g'ri soliqlar		1219647,9	23,9	1798051,7	25,3	2769172,4	26,6
1.1.	Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i	261720,9	5,2	361178,5	5,1	542342,9	5,2
1.2.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'i	110800,0	2,1	145022,1	2,0	222415,1	2,13
1.3.	Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llovchi mikrofirma va kichik korxonalardan undiriladigan yagona soliq	103888,9	2,0	145628,1	2,1	256002,2	2,4
1.4.	Jismoniy shaxslar daromad solig'i	689038,1	13,5	888524	12,5	1281600	12,3
1.5.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan qat'iy soliq.	54200,0	1,1	81690	1,1	108600	1,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirigi ma'lumotlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda davlat budjeti daromadlarida to'g'ri soliqlarning salmog'i kamayib bormoqda. Bu holat asosan, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq stavkalarining pasayishi natijasida soliq yukining pasayishi, jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha soliq yukining pasayishi hisobiga kamayib bormoqda. To'g'ri soliqlar bo'yicha soliq yukining pasayishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari tadbirkorlik faoliyatini keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri soliqlarning tarkibida jismoniy shaxslar daromadidan undiriladigan soliqning ulushi asosiy salmoqqa ega bo'lmoqda. Shuningdek, mazkur soliq bo'yicha budget daromadlarining salmog'i keyingi yillarda ortib bormoqda. Bu holat jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha stavkalarining pasayib borayotganligiga qaramasdan, ularning ish haqi miqdorlari ortib borayotganligidan dalolat beradi.

4.5. Egri soliqlar, ularni budget daromadlaridagi tutgan o'rni

Egri soliqlar yuridik jihatdan ularni to'lovchilari egri soliqqa tortiladigan tovarlar (ish, xizmatlar) realizatsiya qiluvchilar hisoblasada, ularning haqiqiy to'lovchilari bo'lib, mazkur tovarlar (ish, xizmatlarni iste'mol qiluvchilar hisoblanadi. Ya'ni bunda soliq yuki iste'molchilarga borib tushadi. Egri soliqlarning quyidagi turlari amaliyotda mavjuddir.



4-chizma. Egri soliqlarning turlari.

Egri soliqlar bo'yicha soliq yukining pasayishi mamlakatdagi inflyatsiya va baholarning barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, iste'mol baholari pasayishiga olib kelishi mumkin. Ammo, mazkur soliqlar muomala jarayonidagi hosil bo'ladigan qiymatni budjetga soliq sifatida jalb qilish imkoniyatlarini ham yuzaga keltiradi (QQS). Egri soliqlarning xazina funksiyasi alohida ahamiyatga egadir. Chunki, mazkur soliqlar budjet daromadlarining tahminan yarmiga yaqin qismini shakllantiradi.

Qo'shilgan qiymat solig'i - iqtisodiy qiymat kategoriyasi bo'lib, ma'lum bir iqtisodiy munosabatni o'zida shakllantiradi. Bunday iqtisodiy munosabat qiymat harakati bilan o'z ifodasini topadi. Qo'shilgan qiymat solig'ining ijtimoiy – iqtisodiy mohiyati, uning ta'sir doirasi bilan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i respublikamizda soliq turlarining tarkibida etakchi kuch bo'lib hisoblanishi bilan birgalikda barcha iqtisodiy ko'rsatgichlarni harakatga keltirishi bilan ham ajralib turadi. Qushilgan qiymat solig'i bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishning mahsuli bo'lib hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimi doirasida yuzaga kelgan yangi iqtisodiy munosabatlar yangicha iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda aktiv ishtirok etadigan soliq turlarini ilmiy va amaliy jihatdan asoslanish zaruratini tug'dirmoqda. Ana shunday soliq turlaridan biri aktsiz solig'i hisoblanadi.

Aktsiz solig'ining mohiyati avvalo soliq undiruvchi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham, uni mohiyatini shu ikki sub'ekt: to'lovchi va undiruvchi o'rtasida yuzaga keladigan doimiy munosabatlar doirasida ifodalash zarur. Ammo aktsiz soliq mohiyati avvalo shu soliq voqeligi tabiatini ifodalash zaruratini taqozo etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki aktsiz solig'i tovar va xizmat narxiga ustama ko'rinishida undirilsa ham, u iste'molchi tomonidan yuzaga keltirilgan pul mablag'lari hisobidan tulanadi. Ana shu pul mablag'larining ham asl manbai qo'shilgan qiymat bo'lib hisoblanadi. Bu esa aktsiz solig'ini doimiy takrorlanib turadigan iqtisodiy voqelik deb tushunmogimizni taqozo etadi. U o'z majmuasiga ko'ra, boshqa soliq turlari kabi moliya iqtisodiy kategoriyasini tarkibi komponentidir (ya'ni, shu ma'noning majmuasiga tarkibiy qismidir). Chunki, aktsiz solig'iga boshqa iqtisodiy qiymat kategoriyalari kabi

doimiy qaytarilib turadigan pul munosabatlarida namoyon bo‘ladigan. Qolaversa, pul munosabatlar mazmunini o‘ziga xos jihatlarini ochish orqali aktsiz solig‘ining mohiyatini shakllantirish mumkin.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki boshqa soliq turlari kabi aktsiz solig‘ining mohiyatini davlat byujetini to‘ldirib turuvchi vosita yoki qurol sifatida ko‘rishlik ushbu solig‘ini pul munosabatlari doirasida namoyon bo‘lishligini inkor etish bilan tengdir. Chunki, har qanday iqtisodiy voqeliklar harakatiga turli vosita va qurollar orqali ta’sir etish mumkin. Soliq to‘lovlarini vosita va qurollar orqali tartibga solish mumkin, ammo ularga tayangan holda voqelik mohiyatini ochish mumkin emas. Qurol va vosita (yoki ayrim xollarda qurol va mexanizm deb ishlatiladigan so‘zlar majmuasi) iqtisodiy voqeliklardan pul munosabatlari doirasida samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi, yoki ularni tartiblashtirishni taqozo ettiradi xolos.

Aktsizlar davlat budjeti daromadlarini samarali shakllantirish imkoniyatlari bilan birga boshqa qator vazifalarni ham bajaradi. Xususan, aktsizlar aktsiz osti tovarlarning sifat andozalariga javob berishini tasdiqlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, iste’mol uchun zararli bo‘lgan tovarlarni aholining iste’mol qobiliyatini pasaytirish vazifasini ham bajaradi (4.3 – jadval).

4 - jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti tizimida egri soliqlarning tutgan o‘rni

Daromadlarning turlari	2017		2018		2019	
	mln.so‘m.	%	mln.so‘m.	%	mln.so‘m.	%
Maqsadli fondlarsiz daromadlarning turlari	5100867,9	100	7108257,4	100	10421382,5	100
1. Egri soliqlar	2478178,1	48,6	3571023,6	50,2	5162093,6	49,5
1.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1261691,5	24,7	2000865,2	28,1	3093980,9	29,7
1.2. Aktsiz solig‘i	915682,1	18,0	1170405,2	16,47	1503827	14,4
1.3. Bojxona bojlari	116136,6	2,3	247827,5	3,5	361100	3,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi. Moliya Vazirigi ma’lumotlari


Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, egri soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi hissasi boshqa soliqlar yoki daromadlarga

nisbatan yuqori salmoqqa ega bo‘lmoqda. Ammo, keyingi yillardagi tendentsiya mazkur soliqlarni budjet daromadlaridagi salmog‘ining pasayib borayotganligidan dalolat beradi. Bu holat iste‘moldagi soliq yukini pasayib borayotganligidan dalolat beradi.

4.6. Resurs soliqlari va to‘lovlari tizimi, ularni budjet daromadlarini shakllantirishdagi tutgan o‘rni

Resurs soliqlar va to‘lovlarining xususiyatlari ularning mavjud tabiiy resurslardan foydalanish tizimidagi to‘lovlar ekanligidan iboratdir. Shuningdek, resurs soliqlar va to‘lovlarining soliqqa tortish stavkalari asosan qat‘iy stavkalarda o‘rnatilgan bo‘lib foydalanilgan resurslar hajmiga bog‘liq hisoblanadi.

To‘lov shakllari davlat tomonidan berilgan faoliyat ruxsatnomasida yuritiladi. Faoliyatga doir bo‘lgan ammo, davlat sirlarini tashkil etuvchi ma‘lumotlar, harbiy tusi bo‘lgan xizmatlar, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq maxsus idoralar tasarrufida bo‘lgan radiaktiv va boshqa maxsus mahsulotlar er osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun to‘lov sifatida talab qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi “Yer osti boyliklari haqida”gi qonunning yana bir muhim tomoni shundaki yer osti boyliklarini qazib olish jarayonida foydali qazilmalarning me‘yoridan ortiq qismi yo‘qolgan taqdirda yer osti boyliklarini qazib olish uchun 2 barobar ortiq to‘lovlar (yer osti boyliklarini tejash va ularga nisbatan tejamkor bo‘lish maqsadida) undiriladi.



5-rasm. Resurs soliqlari va to‘lovlari tizimi.

Yuqoridagi birinchi chizmadan ko‘rinib turibdiki tabiiy resurslar tizimidagi soliqlar va to‘lovlarning tarkibida asosiy e‘tibor milliy boyligimiz hisoblanuvchi tabiiy resurslardan samarali, oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishni ta‘minlashga ahamiyat berilgan. Zararli moddalarni tabiiy muhitga ta‘sir darajasiga qarab har bir tonnasi uchun qat‘iy miqdorlarda to‘lov stavkalari o‘rnatilgan. Umuman, to‘lovlar tizimining har bir elementi uchun faqat qat‘iy stavkalar joriy etilgan.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar va to‘lovlarning iqtisodiy asosiy ijtimoiy mulk hisoblangan tabiiy boyliklardan foydalanish hisoblanadi. Resurs soliqlari va to‘lovlarida asosiy manbani daromad va mulk tashkil etib, to‘lovlar asosini yer uchun olinadigan to‘lovlar (renta) tashkil qiladi. Shuning uchun ham aksariyat adabiyotlarda mazkur soliqlar va to‘lovlar renta xususiyatiga egaligi e‘tirof etiladi.


Tabiiy resurslardan foydalanish tizimidagi soliqlar va to‘lovlar ham davlat manfaatlari uchun ijtimoiy boyliklardan foydalanganlik uchun to‘lov hisoblanadi.

Yer osti boyliklari uchun undiriladigan to‘lovlarning yana bir muhim qismi deb mineral hom-ashyo zaxirasini yaratish uchun ajratilgan mablag‘ ham tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi tarkibidagi resurs soliqlari va to‘lovlari tarkibida ekologik muhitni saqlash maqsadidagi to‘lovlar tizimi muhim ahamiyatga egadir.

Yer uchun olinadigan to‘lovlar turlarini, tabiiy manbalardan foydalanishda olinadigan to‘lovlar darajasi tashkil qiladi. Shuningdek, ushbu to‘lovlarning xarajati va miqdoriga tabiiy manbaning turi, uning sifat belgilari va foydalanish maqsadlari ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur soliq turlarining umumiy soliq tizimida ham o‘ziga xos undirish mexanizmlari mavjud bo‘lib, ayni vaqtda soddalashtirilgan soliqqa tortish mexanizmi shakllantirish maqsadga muvofiqligi e‘tirof etilmoqda. Hozirgi davrda tabiiy resurslardan foydalanganlik soliqlari va to‘lovlari tizimi budjet va budjetdan tashqari ayrim ekologik maqsadlardagi fondlarni shakllantirish uchun ham yo‘naltirilmoqda. Ushbu tizimdagi asosiy renta to‘lovlari quyidagilar tashkil qiladi: yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi uchun va suv xo‘jaliklari tizimidan ishlab chiqarishga ajratilgan mablag‘lar.



6-rasm. Resurs soliqlari va to'lovlari tizimining xususiyatlari.

Yuqoridagilardan tashqari ushbu tizim tarkibiga ekologik soliqlar va to'lovlar deb nomlanuvchi turli majburiy to'lovlar ham kiritiladi. Bularga tabiiy manbalardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun solinadigan jarimalar, boshqacha qilib aytganda, tabiiy manbalardan foydalanish qoidalarini buzganlik va atrof muhitga zararli chiqindilar

uchun olinadigan mablag‘lar iqtisodiy adabiyotlarda ekologik soliqlar deb yuritiladi.

Keyingi yillarda resurs soliqlarining salmog‘i ortib borishi kuzatilmoqda. Aynan mazkur soliq bir tomondan budjet daromadlarini potentsial moliyaviy manbai hisoblansa ikkinchi tomondan yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan samarali fodalanishni ta‘minlashga soliqlarning tartibga soluvchilik vazifasini kuchaytirish bilan bog‘liqdir.

5 - jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti tizimida resurs soliqlari va to‘lovlari tizimining tutgan o‘rni

Daromadlarning turlari		2017		2018		2019	
		mln.so‘m.	%	mln.so‘m.	%	mln.so‘m.	%
I. Maqsadli fondlarsiz daromadlarning turlari							
		5100867,9	100	7108257,4	100	10421382,5	100
1. Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i		931800,0	18,3	1218873,5	17,1	1662498	15,9
1.1	Mol- mulk solig‘i	191400,0	3,7	234048,9	3,2	319045,7	3,1
1.2.	Yer solig‘i	180300,0	3,5	203602,6	2,9	275098,8	2,6
1.3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik solig‘i	531000,0	10,4	746302	10,5	1024844	9,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirigi ma‘lumoti

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, keyingi 4 yil mobaynida resurs soliqlar va to‘lovlari tizimi bo‘yicha olingan daromadlarning budjet daromadlaridagi hissasi keskin ravishda ortgan. Bu holat, 2005 yildan boshlab, tabiiy resurslardan samarali foydalanish maqsadida yer osti boyliklaridan foydalanganlik solig‘ining ahamiyatini oshirish bo‘yicha olib borilgan tadbirlarning natijasidir.

Davlat budjeti daromadlari tarkibida mol-mulk solig‘i bo‘yicha daromadlar salmog‘i ham ortib bormoqda. Molil-mulk solig‘i o‘zining iqtisodiy tabiati nuqtai nazardan real soliqlar toifasiga kiritiladi. Mazkur soliqning soliqqa tortiladigan ob‘ekti korxonalar ixtiyoridagi mulklarning balans qiymati hisoblanadi ya‘ni ishlab chiqarish

faoliyatining moliyaviy natijalariga bog‘liq emas. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar samaradorligining ortib borishi mahalliy budjetlar daromad imkoniyatlarini ko‘paytiradi. Chunki, mazkur soliq mahalliy budjetlarning asosiy biriktirilgan daromad manbai hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordami shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti solikli daromadlari to‘g‘ri soliqlar, egri soliqlar, mol-mulk va resurs to‘lovlariga ajratiladi. Soliqlarning budjetga kelib tushushiga qarab umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqqa ajratiladi.

Respublikamiz davlat budjeti solikli daromadlarining asosiy salmog‘ini egri soliqlar tashkil etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjeti daromadi tarkibi nimalardan tashkil topadi?
2. Soliqlarning asosiy funksiyalari qanday?
3. Budjetga kelib tushishiga qarab soliqlarni guruhlarga ajrating.
4. Davlat budjeti solikli daromadlarining asosiy salmog‘ini qaysi soliqlar tashkil etadi?
5. Mol-mulk va resurs to‘lovlariga nimalar kiradi?

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan

ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baktria press", 2016 y. – 168 b.

8. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

9. Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

10. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O'zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi).
- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)
- www.publicfinance.uz (O'zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi).
- www.ziynet.uz (O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

V BOB. DAVLAT BUDJETINING SOLIQSIZ DAROMADLARI

5.1. Soliqsiz daromadlarning turlari

Davlat budjetini tashkil etuvchi daromadlariga boshqa har xil manbalar ham kiradi. Davlat budjetining soliqsiz daromadlari-davlatning moliyaviy va real aktivlarini sotish, foydalanishga berishdan olinadigan daromadlar, qonunchilikka muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazilgan hadya qilingan mulkiy qiymatliklardan olingan pul mablag'lari, rezident yuridik shaxslar va xorijiy davlatlarga berilgan budjet ssudalaridan olingan pul to'lovlari, turli xil bojlar hisoblanadi.

Davlat budjetining mazkur turdagi daromadlariga fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha tadbirlarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, shuningdek, jarimalar, konfiskatsiyalar, kompensatsiyalar va boshqa majburiy ajratmalar hisoblanadi.

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari umumiy daromadlarning 5%-10%i atrofida tashkil qiladi. Davlatning soliqsiz daromadlari tarkibi quyidagilardan iborat:

- Davlat mulkidan va davlatning turli faliyatidan olinadigan daromadlar(davlatga tegishli aktsiyalar paketi bo'yicha to'lanadigan dividend shaklidagi daromadlar, davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar, davlat budjetning banklardagi vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'lari bo'yicha to'lanadigan foizlar, mamlakat ichkarisida budjet ssudalarini taqdim etishdan olinadigan foizlar);

- Markaziy bank foydasining bir qismini davlat budjetiga o'tkazilishidan olinadigan daromadlar;

- davlat mulkini sotishdan va davlatga tegishli aktsiyalarni sotishdan olinadigan daromadlar;

- davlat zahiralarini sotishdan olinadigan daromadlar(qimmat baho metallar va toshlar);

- Markaziy bankning oltin zahiralarini sotishdan olinadigan daromadlar;

- Yer va boshqa nomoddiy aktivlar (patentlar, ixtirolik huquqlari)ni sotishdan olinadigan daromadlar;

- Ma'muriy va jinoiy javobgarlik uchun tqlovlar, sanksiyalar (DAN to'lovlari, texnik ko'rikdan o'tkazganlik uchun to'lovlar, jarimalar, konfiskatsiyalar);

- Musodara qilingan va egasiz qolgan mulklarni sotishdan olingan daromadlar;

- TIFdan olingan daromadlar va markazlashtirilgan eksport operatsiyalaridan olingan daromadlar;\

- xo'jalik sudlari tomonidan da'vo arizalarini ko'rib chiqish uchun olinadigan davlat bojlari;

Ma'lumki Davlat notarial idoralari tomonidan aholiga yoki yuridik shaxslarga turli xizmatlar ko'rsatiladi. Shu ko'rsatilgan xizmat bojlari undiriladi. Jumladan: hujjatlarni tasdiqlagani uchun, shartnomalarni tasdiqlagani uchun va boshqa notarial xizmatlari uchun olinadigan mablag'lar Davlat nomidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun bojlar olinganligi sababli bevosita davlat budjetiga o'tkazilishi kerak. Ammo shu xizmatlar ko'rsatuvchi idoralari manfaatdorligini oshirish uchun bojlarning 20 % ularning o'zlarida qoldiriladi, qolgan 80 % esa Davlat budjetiga o'tkaziladi.

Avtotransport vositalari alohida ro'yxatdan o'tkazilganligi va alohida davlat nazoratiga olib borishini talab qiladi. Shu sababli alohida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Shu davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun to'lovlar davlat budjetiga o'tkazilishi kerak.

Yuridik shaxs hisoblanadigan korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi bahslar xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Shu sud xizmatlari uchun Davlat bojlari joriy etilgan bo'lib, bu bojlar ham Davlat budjetiga daromadiga olinadi. Xo'jalik sudlarini moddiy texnikaviy bazasini mustahkamlash uchun bu mablag'larning bir qismi ularning o'z ixtiyorida qoldiriladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra korxonalar va tashkilotlar tomonidan ayrim qonun - qoidalar buzilgan taqdirda, shuningdek ayrim mol - mulk egasiz qolib ketgan bo'lsa, bu mablag'lar davlat budjetiga o'tkazib berilishi lozim. Shuni e'tiborda tutish lozimki, musodara qilish to'g'risida sud qarori qabul qilingandan so'ng bu mablag'lar davlat budjetiga o'tkazilishidan oldin shu musodara qilgan organ uchun 20 % miqorda mablag' qoldiriladi va bu mablag'lar maqsadga muvofiq foydalanishi lozim.

Davlat budjeti, uning daromadlar qismini shakllanishida asosiy o'rin tutgan soliqlar, soliqsiz to'lov va yig'imlar hamda bojxonalar to'lovlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turishda katta ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti tizimida soliqsiz daromadlarning tutgan o‘rni

Daromadlarning turlari	2017 y.		2018 y.		2019 y.	
	mln.sum.	%	mln.sum.	%	mln.sum.	%
I. Maqsadli fondlarsiz daromadlarning turlari	5100867,9	100	7108257,4	100	10421382,5	100
5. Boshqa daromadlar	198005,0	3,9	135174,5	4,0	589120,3	5,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirigi ma’lumoti

5.2. Davlat boji va uning ahamiyati

Davlat boji O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrda bo‘lib o‘tgan sessiyasida qabul qilingan Qonunga hamda Davlat boji to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 26 apreldagi 192 - son Qarori bilan tasdiqlangan Davlat boji stavkallariga asosan undiriladi.

O‘zlarining manfaatlarini ko‘zlab harakat qiluvchi va maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan xarajatlarini oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar davlat boji to‘lovchilari deb hisoblanadi.

Davlat boji:

Sudlarga beriladigan shikoyatlardan, ma’muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarga doir shikoyatlardan sudlarning qarorlar yuzasidan beriladigan nazorat hujjatlarining nusxalarini berganligi uchun:

- * yuridik shxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun;
- * O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyiga qayd etganlik uchun;
- * davo qilish huquqiga ega ekanligi to‘g‘risidagi ruhsatnomalar berganlik uchun;
- * jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ulanish huquqini beruvchi hujjatlar berganlik uchun;
- * chet eldan kelgan pul jo‘natmalari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarga va fuqarolik bo‘lmagan shaxslarga berganlik uchun undiriladi;

* fuqarolik holati aktlarni qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati qayd etilganligi to'g'risidagi takroriy guvohnomalarga berganligi uchun.

Davlat boji naqd pullarda, boj markasi hamda to'lovning kredit hisob raqamidan o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

Da'vo arizasining sudga kelib tushishi, xo'jalik sudining milliy kelishmovchilik to'g'risidagi notarial tasdiqlangan oldi sotdi shartnomasi hadya mulkini almashtirish merosxo'rlik to'g'risida hujjatlar va agar qiymat bahosi yoki mulkiy merosni chetga valyutasi olib borilsa, davlat boji chetga valyutasi O'zbekiston Respublikasi markaziy banki kursi bo'yicha undirilishi mumkin.

Qisqacha xulosalar

Davlat budjeti daromadlari tarkibidagi soliqsiz daromadlarga har xil bojlar va yig'imlar kiradi. Ular davlat budjeti daromadlarining 5-10 % ini tashkil etadi. Davlat budjeti daromadlarida soliqsiz daromadlar ham katta ahamiyatga ega.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjetining soliqsiz daromadlariga nimalar kiradi?
2. Soliqsiz daromadlar budjet daromadlarida qanday ahamiyatga ega?
3. Davlat bojlari nima uchun olinadi?
4. Davlat bojlarining qanday turlari mavjud?
5. Davlat bojlari taqsimlanish tartibini tushuntirib bering?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston, 2015 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi (2018 yil o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y., 28

(6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Baktria press”, 2016 y. -168 b.

8. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

9. Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

10. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).
- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
- www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
- www.ziynet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

III BO‘LIM. DAVLAT BUDJETINING XARAJATLARI TIZIMI

VI BOB. DAVLAT BUDJETINING XARAJATLARI TIZIMI

6.1. Davlat budjeti xarajatlari, ularning tarkibi, turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti xarajatlari muhim ahamiyat kasb etadigan kategoriyadir. Xarajatlar orqali davlat o‘z siyosiy, iqtisodiy va boshqa turdagi maqsadlarini amalga oshiradi. Xarajatlar yordamida milliy daromadning ma‘lum qismi qayta taqsimlanadi, davlat o‘z ta‘sirini ishlab chiqarishga o‘tkazadi.

Budjetning birinchi darajali ahamiyati respublikamiz rahbariyati olg‘a surayotgan jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vazifalarini bajarishini ta‘minlashdan iboratdir. Milliy daromad mamlakatimiz aholisining to‘la qiziqishini hisobga olgan holda taqsimlashda ishlatiladi. Milliy daromad tovar pul - munosabatlari sharoitida asosan pul ko‘rinishida hisob qilinadi. Avvalo, ishlab chiqaradigan soha ishchilarining daromadlari ko‘rinishlarida va ijtimoiy talablarni qondirishga mo‘ljallangan jamiyatning sof daromadi ko‘rinishida bo‘ladi. So‘ngra milliy daromad quyidagicha taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi:

Ijtimoiy ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan va noishlab chiqarish sohalari o‘rtasida. Chunki, milliy daromad asosan ishlab chiqaradigan sohada yaratiladi, davlatning nurli kelajagini ta‘minlash uchun noishlab chiqarish sohasiga xarajatlar qiladi, ya‘ni sog‘liqni saqlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash, halq xo‘jaligi tarmoqlari uchun mutaxassis kadrlarni tayorlash xizmatlari, to‘la va qisman mehnat qobiliyatini yo‘qotgan fuqoralarni moddiy ta‘minlash mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va boshqalar markazlashgan tartibda (davlat miqyosida) amalga oshiriladi. Shuning uchun milliy daromadning bir qismi davlat budjetinig xarajatlari tizimi orqali milliy daromad yaratilmaydigan sohaga qayta taqsimlanadi.

Tarmoqlar, birlashmalar, korxonalar o‘rtasida. Bunday zarurat asosan mamlakatimizni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish rejasidan kelib chiqadi, chunki birlashmalarning, korxonalarining va tarmoqlarning texnikaviy rivojlanish darajasi, quvvati, fondlar bilan ta‘minlanganlik darajasi har xil bo‘lishi tabiiy. Bundan tashqari

aniqlashga tabiiy boyliklarning notekis joylashganligini baholash tizimi katta ahamiyatga egadir. Birlashmalar, korxonalar, tarmoqlarning ishlab chiqarish ko'lamini ko'paytirish xarajatlari har doim ham ularning shaxsiy daromadlari va jamg'armalariga mos tushavermaydi.

Davlat va aholi o'rtasida. Aholidan olinadigan soliqlar yordamida davlat orqali milliy daromadning ma'lum qismi qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Bunda kengaytirilgan ishlab chiqarish zaruratlarini va boshqa umumdavlat talablarini qondirish maqsadida aholi daromadlarining ma'lum qismi (ulishi) shaxsiy mulkchilikdan umumiylikka o'tishi sodir bo'ladi. Budget daromadlarida ular jami daromadlarning 8-10 % ini tashkil qiladi. Bundan tashqari davlat soliqlar va yig'imlar tizimi orqali har xil kategoriyadagi aholining real daromadlarini tartibga soladi. Aholining alohida kategoriyalariga har xil qulayliklar yaratish natijasida, shuningdek soliq va yig'imlar hamda stavkalar yordamida amalga oshiriladi.

Milliy daromadning davlat budjeti orqali taqsimlanayotgan qismi doimo o'zgarib turadi, chunki davlat iqtisodiy rivojlanish davrida ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarni hal qiladi.

Davlat budjetining milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlashdagi etakchilik, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida yana ham ortmoqda. Chunki xarajatlarning to'g'ri yo'naltirilishi iqtisodiyotni tez suratlarda rivojlantirishni ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida aholining turmush darajasining oshishiga, mamlakatning boyishiga olib keladi. Bundan tashqari budget mablag'larini mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarining asosiy sohaslarini rivojlantirishga safarbar qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishing jadallashtirish, barcha choralar bilan unumdorlikni, ilmiy texnika yutuqlarini joriy qilish imkoniyatlarini beradi. Budget xarajatlari yo'nalishi sohasiga qarab moddiy va nomoddiy sohalarga sarflanadi. Budget xarajatlari davlat ixtiyorida bo'lgani uchun, har yili ularning turlari o'zgarib turishi mumkin.

6.2. Davlat budjeti xarajatlarining guruhlanishi

Budjetning xarajat qismini asosan ijtimoiy-madaniy tadbirlar va iqtisodiy xarajatlar band etadi. Iqtisodiy xarajatlarning o'zi ham 2 qismga bo'linadi:

1. Xalq xo'jaligi tarmoqlarini moliyalashtirish xarajatlari. Bu yo'nalishdagi xarajatlar asosan kam daromad ko'ruvchi, lekin davlat

miqyosida zarur bo'lgan davlat tarmog'idagi narxlarga sarflanadi. Bunday korxonalariga misol qilib ko'mir konlarini, qishloq xo'jaligi korxonalarini, transport tashkilotlarini keltirish mumkin.

2. markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari. Bu yo'nalishdagi xarajatlarga yangi korxonalarni qurish uchun mo'ljallangan mablag'lar kiradi. Iqtisodiy xarajatlarga budjetdan tahminan 20-25 % miqdoridagi mablag'lar sarflanadi. Budjet xarajatlari moddiy ishlab chiqarish sohasiga rejalashtirilganda shu sohaning o'ziga tegishli mablag'lar hisobga olinadi va etishmagan qismigagina budjetdan davlatning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish dasturiga binoan mablag'lar ajratiladi.

Ijtimoiy xarajatlar asosan ijtimoiy - madaniy tadbir xarajatlariga va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlariga bo'linadi. Bu yo'nalishdagi xarajatlar nomoddiy sohaga mo'ljallangan mablag'lar hisoblanadi. Budjetning tahminan 50 % dan ortiq xarajati ijtimoiy soha va aholini himoya qilishga sarflanadi. Bu xarajatlarga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan va boshqalarga mo'ljallangan mablag'larni sanab o'tish mumkin. Tahminan 25-30 % budjet xarajatlari maorif xarajatlariga sarflanadi.

Budjet korxonalarini ichida yana bir guruh xarajatlar, boshqaruv organlarini ta'minlash xarajatlari ham rejalashtiriladi.

Umuman olganda, budjet xarajatlari maqsadga muvofiq quyidagi guruhlariga bo'linadi: - ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab - quvvatlash; - iqtisodiyot; - markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish; - Davlat boshqaruv organlarini saqlash; - fuqarolarning o'z - o'zini boshqarish organlarini saqlash xarajatlari va boshqa xarajatlar hamda Vazirlar Mahkamasi zahira jamg'armasi.

Davlat budjeti xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) budjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- 2) joriy budjet transfertlari shaklida;
- 3) kapital xarajatlar shaklida: asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga; chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga; davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga; davlat zahiralarini vujudga keltirishga;

4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari shaklida;

5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari shaklida;

6) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida;

7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

8) qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Budjet transferti – bu budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari hisoblanadi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan pul mablag'larining bir qismi taqsimlanishi jamiyat iqtisodiy qonuniyatlariga asoslanadi va davlatning ixtiyorida uning budjet mablag'lari, bank mablag'lari yoki boshqa ko'rinishlarda markazlashadi.

Davlat budjeti umumdavlat pul mablag'lari fondining iqtisodiy ko'rinishida tashkil topishining asosi, u jamiyatning umumiy pul mablag'lari, fondlari tizimida asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari u jami ijtimoiy ishlab chiqarishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, uning mazmuni va tarkibini aniqlaydi, hamda ishlab chiqarish rivojlanishidagi zaruriy tangliklarni va ijtimoiy ehtiyojlarni ta'minlashga zamin yaratadi. Shunday qilib, davlat budjetining mohiyati jamiyat xo'jalik tizimining xarakteri bilan bozor iqtisodiyotidagi iqtisodiy qonunlar ta'siri, davlatning tabiati va vazifalari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi o'lchami bilan budjetning roli oshib boradi va u jami xalq xo'jaligining budjetiga aylanib boradi.

Budjetdan iqtisodiy sohaga pul ajratishdan asosiy maqsad, davlatning bu sohaga aralashuvini ta'minlab turishdir. Davlatni iqtisodiyotga aralashishi esa iqtisodiyotni o'sishida muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda respublikamizda bu juda muhimdir.

Iqtisodiy sohaga ajratilgan budjet mablag'lari ichida markazlashgan investitsiyani moliyalashtirish xarajatlari muhim rol o'ynaydi va katta salmoqni egallaydi. Bu turdagi xarajatlarni sarflashdan iqtisodiy o'sish talab hajmiga va ichki bozorni shakllantirishga ta'sir o'tkazish kabi maqsadlar ko'zda tutiladi. AQSh

sobiq moliya vaziri U. Sayman fikricha davlatni iqtisodiy o'sishiga iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy omillardan hech biri markazlashgan investitsiya darajasida ta'sir ko'rsata olmaydi.

Markazlashgan investitsiyani moliyalashtirish asosiy kapitalning kengayishi va yangilanishi, kapital yig'imiga ta'sir o'tkazish kabi o'z xususiyatlari mavjud. Bundan tashqari iqsodiy inqiroz davrida ko'pgina hozirgi rivojlangan mamlakatlar o'z mablag'larini shunday sohalarga safarbar etganlarki, natijada bu sohalar butun bir iqtisodni ko'tarilishiga ta'sir qiladi. Bunday sohalarga ilmiy izlanish sohalari va texnologik murakkab tuzilishga, boshqarishga asoslangan sohalar kiradiki, ularga avvalambor oldindan katta miqdorda xarajatlar qilishga to'g'ri keladi. Albatta, bunday ishlarga davlatdan tashqari boshqa sub'ektlar mablag'lar ajratmaydi.

Davlat korxonalarining salmog'i yuqori bo'lgan davlatlarda (Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Avstriya) budjet mablag'larining ko'pgina qismi davlat korxonalariga sarflanadi. Bunday korxonalariga metallurgiya va issiqlik energiya sohalari, transport, aloqa, atom energiyasini kiritish mumkin. Bu sohalar boshqa sohalarning rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi. Budjetdan iqtisodiy sohani moliyalashtirish inqiroz davrida keng tus oladi. Ko'pchilik davlatlarda davlat tomonidan moliyalangan budjetning 20-25 % ini tashkil qiladi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining asosiy yo'nalishlaridan biri ilmiy-texnikaviy rivojlanishga ko'maklashuvdir. Bu sohaning rivojlanishi ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda yordam beradi. Bu sohaning rivojlanishi iqtisodiyotda muhim o'zgarishlarga olib keladi, yangi sohalarning paydo bo'lishini, iqtisodiy samaradorlikni o'sishini, sohalararo bandlikning to'g'ri taqsimlanishini, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatning kuchayishini ta'minlaydi. Iqtisodiy sohani rivojlantirish uchun qilinadigan xarajatlar ichida ishlab chiqarish va ijtimoiy soha infratuzilmalarini moliyalashtirish ham salmoqli o'ringa ega. Bunday soha, korxonalar, ob'ektlar moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy madaniy turmush darajasini oshirishda ko'maklashadilar. Moddiy ishlab chiqarish infratuzilmasiga barcha turdagi transport tashkilotlari va transportsozlik sohalari (avtoyo'llar, portlar, aerodromlar), aloqa tizimi (telefon, telegraf), elektr, gaz, suv inshootlari va boshqalar kiradi. Ijtimoiy infratuzilmaga tibbiyot va o'quv muassasalari, sport va madaniy tadbirlar kiradi. Rivojlangan mamlakatlarda infratuzilmaga

eng ko'p mablag' ajratadigan davlatlar qatoriga AQSh, Germaniya, Yaponiya kiradi. AQShda yo'l qurilishi uchun budjetdan sezilarli darajada ajratmalar qilinadi.

Yuqorida keltirilgan xarajatlarni umumiy hususiyatga ega bo'lsada, alohida olingan davlatda ushbu xarajatlar moliyalashtirish davlat siyosatidan kelib chiqadi. Masalan, Frantsiya hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi korxonalariga budjetdan bevosita mablag' ajratadi. Ko'pchilik davlatlarda esa ushbu maqsadda davlat kreditidan foydalaniladi. Kreditlar davlat budjetidan davlat korxonalari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, hamda xususiy sektorga beriladi. Budjetdan beriladigan kredit uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, bank kreditiga nisbatan imtiyozlilik darajasi yuqori bo'ladi.

Ko'pgina mamlakatlar, jumladan Buyuk Britaniyada ham budjet xarajatlari tarkibida xalq xo'jaligi sohasining mahsulotlarini eksport qilishni ko'paytirish va uni rag'batlantirishga qaratilgan xarajat turlari mavjud.

Iqtisodiy xarajatlardan yana biri ekologik muammolarni, atrof - muhit va tabiat resurslarini saqlash uchun qilinayotgan xarajatlardir. Bu turdagi xarajatlarni budjetdan moliyalashtirishda AQSh oldingi o'rinlarda turadi.

Iqtisodiy xarajatlarning muhim ko'rinishlaridan biri subsidiyalar hisoblanadi. Subsidiyalar davlat yordamiga muhtoj bo'lgan alohida xo'jalik va tarmoqlarga beriladi. Agar davlatning davlat korxonalari, infratuzilma, ilmiy izlanishlarga qilgan xarajatlari iqtisodiyotga bilvosita ta'sir o'tkazsa, subsidiyalar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazadi. Subsidiyalar turli xil ko'rinishda bo'ladi: dotatsiyalar (zararni qoplash uchun), eksportni sug'urtalash, mukofotlar, narxlarning muvozanatini ushlab turish xarajatlari va h.k.

Iqtisodiy soha xarajatlariga davlat budjetidan mahalliy hokimiyatlarga beriladigan subsidiyalarni ham qo'shish mumkin. Bunday subsidiyalar rivojlangan mamlakatlarda mahalliy budjet daromadlarining 20-25 % ini tashkil qiladi. Bu turdagi yordamni ajratish bo'yicha Buyuk Britaniya, AQSh, Frantsiya davlatlari oldingi o'rinlarda turadi.

6.3. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida xarajatlar tarkibidagi o‘zgarishlar

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli qarorining qabul qilinishi budget tizimi xarajatlarini isloh qilish sohasida 2000 yildan so‘ng burilish davrini boshlab berdi. Mazkur qarorga asoslangan holda 2000 yildan boshlab budget tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibining butunlay yangi tartibi joriy kilindi. Unga binoan budget tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligi kengaytirildi, budgetdan moliyalashtirish mexanizmi soddalashtirildi, budget tashkilotlari xodimlarini rag‘batlantirish bo‘yicha zaruriy erkinliklar belgilandi.

Undan tashqari budget xarajatlarini moliyalashtirishda soddalashtirilgan xarajatlar tasnifi amaliyotga tatbiq etildi, budget tashkilotlariga budgetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish manbalari aniqlab berildi, budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish yo‘lga qo‘yildi va undan foydalanish tartibi belgilandi, ularning budgetdan tashqari topgan daromadlari ikki yilgacha barcha turdagi soliqlardan ozod qilingan edi va xozirda mazkur imtiyoz har yili uzaytirib kelinmoqda.

Moliyalashtirishning yangi tartibiga o‘tishning birlamchi yakunlari bo‘yicha shuni aytish mumkinki, berilgan imtiyoz va huquqlar budget tashkilotlarining qo‘shimcha daromad manbalarini topish va budget mablag‘laridan oqilona va tejimli foydalanish yuzasidan manfaatdorligini keskin oshirdi, hamda kreditor qarzlarning sezilarli kamayishiga olib keldi. Davlat budgetining xarajatlari bo‘yicha ijrosiga to‘xtalib, avvalambor, inflyatsiya darajasining pasayishi, valyuta ayirboshlash kursining barqarorlashuvi hamda ijtimoiy qo‘llab - quvvatlashning manzilliligini yanada oshirish natijasida 2003-2004 yillarda budget xarajatlari miqdori nisbatan kamayishi kuzatildi (25,8 % dan 22,9 % gacha 6.3.1 – jadvalga qarang).

Davlat budgeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalashga qilinadigan xarajatlarning salmog‘i YaIMga nisbatan asosiy salmoqqa ega bo‘lmoqda. 2008 yilda bu jami budget xarajatlarining 51,8 foizini, 2008 yilda foizini foizini tashkil etdi. Bu 2010 yilda ijtimoiy soha xarajatlari davlat xarajatlari tarkibida 59,1 % ni tashkil etishi kutilmoqda. Bu albatta, davlat budgetning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlashdagi ahamiyatining ustuvor ekanligini tasdiqlaydi.

Davlat budjetining xarajatlari tarkibi
(YaIMga nisbatan % da)

№	Ko'rsatkichlar	2013 y	2018 y	2019 y	2020 y
1.	Maqsadli fondlarsiz xarajatlar	22,6	21,7	22,4	22,8
1.1	Ijtimoiy sohaga	11,3	11,9	12,3	13,4
1.2	Ijtimoiy himoyaga	1,4	1,7	2,2	2,4
1.3	Iqtisodiyot uchun xarajatlar	2,9	2,5	2,7	2,6
1.4	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	2,25	1,63	1,7	1,4
1.5	Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlariga xarajatlar	0,6	0,5	0,6	0,6
1.6	Boshqa xarajatlar	5,3	5,0	4,9	4,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari.

Mazkur xarajatlar asosan ta'lim, sog'liqni sag'lash, aholini ijtimoiy himoyalash, sport va ommaviy axborot tizimlarini moliyalashtirish, ilm-fan va madaniyat sohalari bo'yicha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning chuqurlashuvi va ijobiy institutsional o'zgarishlar 2009 yil davlat budjetining muvaffaqiyatli ijrosini ta'minladi. Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi davlat budjetining rolini tahlil qilishning muhim qadamlaridan biri, bu davlat budjeti xarajatlari tarkibi dinamikasining tahlilidir. Buning uchun biz O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlari tarkibi dinamikasini o'rganib chiqamiz.

8 - jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari dinamikasi
(mlrd.so'm hisobida)

t/r.	Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020
1.	Xarajatlar, maqsadli jamg'armalarsiz - jami	2 385,6	8197	10761	13733
2.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari - jami	1 096,3	4249	5901	8113
	jumladan:				

3.	Xalq ta'limi	628,8	2469	3326	4635
4.	Sog'liqni saqlash	231,2	934	1256	1704
5.	Fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari	44,3	136	189	234
6.	Ijtimoiy ta'minot	9,5	35	46	59
7.	Aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar narxidagi farqni qoplash	26,6			
8.	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar	138,3	636	1039	1432
9.	Iqtisodiyotga xarajatlar	261,2	941	1290	1573
10.	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish	320,2	628	829	825
11.	Davlat hokimiyati, boshqaruv organlari va sud organlari xarajatlari	44,2	206	273	352
12.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari	12,6	61	84	119
13.	Vazirlar Mahkamasining zahira jamg'armasi	56,7	29	41	54
14.	Boshqa xarajatlar	569,4	1898	2338	2692

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumoti

Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turganidek, davlat budjeti xarajatlari 2017 yilda 2385,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilga kelib esa **10761** mlrd. so'mni tashkil etgan, boshqacha so'z bilan aytganda, ana shu yillar mobaynida davlat budjeti xarajatlari 4,51 baravargaga oshgan.


Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab - quvatlash xarajatlari esa 2017 yilda – 1096,3 mlrd. so'm, 2018 yilda – 4249 mlrd. so'm, 2019 yilda esa – 5901 mlrd. so'mdan iborat bo'lgan, ya'ni shu yillar mobaynida 5,38 baravarga o'sgan. Davlat budjetining jami xarajatlari o'sishiga nisbatan, bu xarajat turlarining ko'proq sur'atlarda o'sishi aholining ijtimoiy-madaniy hayotini yuksak darajaga ko'tarish

bo'yicha davlat xarajatlarining ahamiyatini ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiyot xarajatlari 2017 yilda 261,2 mlrd. so'mni, 2018 yilda 342,1 mlrd. so'mni, 2019 yilda 459,2 mlrd. so'mni tashkil etgan, ushbu yillar oralig'idagi o'sish 1,76 barobarga o'sgan.

Quyidagi diagramma orqali biz 2018 yil uchun davlat budjeti xarajatlarining tarkibini ko'rib chiqamiz.

1 - diagramma



2019 yilgi Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan diagrammadan ma'lum bo'ladiki, davlat budjeti xarajatlari tarkibida eng ko'p ulushga ega bo'lgan xarajat turi – ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari bo'lib, uning 2009 yilgi davlat budjeti xarajatlari rejasidagi ulushi 54,9 % ni tashkil etdi, 2010 yilda esa 59,1 foizni tashkil etishi ko'tilmoqda.

Iqtisodiyot xarajatlari davlat budjeti xarajatlari tarkibida sezilarli salmoqqa egadir, uning ulushi 12,0 % ni tashkil etgan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, iqtisodiy munosabatlarning yangilanishini, institutsional (muassasalar sohasidagi) o'zgarishlarning amalga oshirilishini, boshqarishning maqbul tarkibining yaratilishini talab etdi. Shuning uchun iqtisodiy islohotlar chuqurlashayotgan bir davrda boshqaruv tizimini isloh qilishga alohida e'tibor berildi.

Islohotlar natijasida Davlat boshqaruv sohasida xodimlar soni maksimal darajada qisqartirilishga erishildi. Hukumat tomonidan boshqaruv apparati sonini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora - tadbirlar 2018 yilda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida ularning sonini 40 ming kishiga yoki 22 % ga qisqartirish va har yili 40,5 mlrd. so'm mablag'ni tejash imkonini beradi.

Qisqacha xulosalar

Davlat o'z vazifalarini bajarishda davlat budjeti xarajatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy daromadning bir qismi davlat budjeti orqali qayta taqsimlanadi va qayta taqsimlash natijasida zarur bo'lgan tarmoqlar moliyalashtiriladi.

Davlat budjeti xarajatlari maqsadlari, vazifalari bo'yicha, budjetdan mablag' ajratish shakllari bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismini ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari tashkil etadi va iqtisodiyot, investitsiya xarajatlari ulushi kamayib boradi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti "ijtimoiy yo'naltirilgan budjet" hisoblanadi.

Oxirgi yillari olib borilayotgan islohotlar natijasida davlat byujetining samarasiz xarajatlaridan voz kechilmoqda. Masalan, iqtisodiyot, boshqaruv sohalari xarajatlarini imkon darajasida kamaytirishga erishildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjeti xarajatlar tizimi nimalardan iborat?
2. Davlat budjeti xarajatlarini maqsadiga muvofiq qanday turlarga ajratiladi?
3. Davlat budjeti xarajatlari qanday shakllarda amalga oshiriladi?
4. Davlat budjetining kapital xarajatlari nima?
5. Davlat budjetining joriy xarajatlari nima?
6. Budjet transfertlari nima?
7. Davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismini qaysi xarajatlar tashkil etadi?
8. Davlat budjeti xarajatlaridagi tarkibiy o'zgarishlar nimalarga bog'liq?
9. Hozirgi kunda Davlat budjeti xarajatlarida qanday o'zgarishlar amalga oshirilmoqda?

Asosiy adabiyotlar

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.

- O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

- Malikov.T.S. Budget soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

- G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 b.

- T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

- Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

- Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).

- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
- www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
- www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

VII BOB. BYUDJET TASHQILOTLARI XARAJATLARINI SMETA ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH

7.1. Xarajatlar smetasi - budjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida

Budjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti hisoblanadi. Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish ular uchun tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi. Har bir budjet tashkiloti tasdiqlangan xarajatlar smetasiga ega bo'lishi kerak. Xarajatlar smetasi budjet tashkilotini saqlashga hamda xo'jalik va madaniy qurilish bo'yicha markazlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishga budjetdan beriladigan mablag'larning hajmini, maqsadli yo'nalishini va choraklar bo'yicha taqsimotini belgilovchi asosiy moliyaviy reja hujjati hisoblanadi.

Har bir budjet tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjetdan moliyalashtirish me'yorlariga asoslangan holda, tasdiqlangan namunaviy shtatlar asosida smetalar, shuningdek shtat jadvallarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Tasdiqlangan smeta bo'lmagan hollarda hamda smetalarda ko'rsatilmagan tadbirlarga yoki umumiy smeta bo'yicha va xarajatlarning alohida turlari bo'yicha ham smeta yo'nalishidan ortiqcha bo'lgan summalarda xarajatlarga sarflash ta'qiqlanadi.

Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi budjet tashkilotlari bo'yicha smetalar bir yillik muddatga – moliya yiliga tuziladi va amal qiladi. Joriy yilda ishga tushiriladigan yoki mavsumiy tashkilotlar bo'yicha esa ularning budjet yilida ishlagan muddatiga tuziladi.

Xarajatlar smetasi budjet tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning amaldagi tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhi bo'yicha, boshqa xarajatlar va ularning hisob-kitobini o'z ichiga olgan to'liq yoyilmasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllari asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralari rahbarlari

tomonidan viloyat, tuman va shahar hamda shaharga bo'ysunuvchi tumanlar budjetlari bo'yicha - tegishli hokimiyatlarning boshqarma (bo'lim) rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Xarajatlar smetasi yakka smetalar, umumiy smetalar, markazlashtirilgan tadbirlar uchun xarajatlar smetalari, yig'ma smetalarga ajratiladi.

Yakka smetalar ayrim tashkilotlar yoki ayrim tadbirlar uchun tuziladi. Markazlashtirilgan tadbirlar uchun xarajatlar smetasi vazirliklar, idoralar tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuziladi. Masalan, asbob-uskanalar, qurilish, ta'mirlash va boshqa tadbirlar uchun tuziladi. Yig'ma smetalar yakka smetalar va markazlashgan tadbirlar uchun xarajatlar smetalari ham birgalikda butun idora bo'yicha tuziladi.

Tuman, shahar, shaharga bo'ysunuvchi tumanlar budjetlarida turuvchi va markazlashgan buxgalteriyalar orqali xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar bo'yicha, ayrim hollarda umuman budjet tasnifining tegishli paragrafi bo'yicha umumiy xarajatlar smetalari tuzilishi mumkin:

- bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha - veterinariya uchastka va punktlari, qishloq klublari, kutubxonalar, feldsher-akusherlik punktlari va boshqa kichik tashkilotlar bo'yicha;

- bir turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, qachonki ularga xo'jalik xizmatlarini ko'rsatish markazlashgan holda xo'jalik xizmatlarini ko'rsatishning maxsus guruhlarini orqali amalga oshirilsa;

- tegishli hokimiyatlarning apparatini va ularning bo'limlarini saqlashga.

Umumiy smeta bir turdagi tashkilotlar guruhini saqlash xarajatlariga budjetdan ajratiladigan mablag'larning hajmini maqsadli yo'nalishini va choraklar bo'yicha taqsimotini belgilovchi hujjat bo'lib hisoblanadi. Tumanlar, shaharlar (shaharga bo'ysunuvchi tumanlar) hokimiyatlarining tegishli boshqarma va bo'limlari rahbarlari umumiy smetalarda ko'rsatilgan mablag'larni taqsimot qiluvchilar bo'lib hisoblanadilar.

Umumiy smetalar, xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning rahbarlaridan olingan buyurtmalar markazlashgan buxgalteriyada mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq qabul qilingan hisob-kitob va hisobot ma'lumotlari asosida

markazlashgan buxgalteriya tomonidan tuziladi. Umumiy smetalar tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo'limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko'rsatkichlar ro'yxati bo'yicha xarajatlarning guruhlari bo'yicha va smetalarga qilingan hisoblarni ilova qilgan holda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Smetalar xarajatlar guruhlari bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning amaldagi tasnifiga muvofiq xarajatlarning to'liq yoyilmasi ilova qilingan holda tuziladi. Ilova smetaning ajralmas qismi hisoblanadi, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslash uchun xizmat qiladi va hisobot maqsadlari uchun foydalaniladi.

Budjet tashkilotlarining yakka va umumiy smetalarda tashkilot nomi va to'liq manzili, smeta turi, tashkilotni mablag' bilan ta'minlaydigan budjet, budjet tasnifiga muvofiq bo'lim, bob va paragraf, xarajatlarning umumiy summasi hamda xarajatlarning quyidagi turlari bo'yicha ajralgan holda ko'rsatiladi:

1) xarajatlarning I - guruhi - ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar;

2) xarajatlarning II - guruhi- ish haqiga qo'shimcha to'lovlar;

3) xarajatlarning IV - guruhi – boshqa xarajatlar.

Xarajatlarning I - guruhiga ish haqi, stipendiya, ishlaydigan onalarga bolasi 2 yoshga to'lgunga qadar beriladigan oylik nafaqalar miqdorlari kiradi. Xarajatlarning II - guruhiga Ish beruvchilarning ajratmalari, ya'ni ijtimoiy sug'urta bo'yicha ajratiladigan mablag'larning umumiy summasi kiritiladi. Xarajatlarning IV - guruhiga boshqa xarajatlar kiritiladi. Bu xarajatlar choraklar bo'yicha to'liq eyilgan holda smetaga ilova qilinadi. bunga xizmat safarlari xarajatlari, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar, telefon, telekommunikatsiya va axborot xizmatlari bo'yicha xarajatlar, joriy ta'mirlash bo'yicha xarajatlar, saqlab turish, ijaraga berish foydalanish xarajatlari va boshqa xizmatlar to'lovi bo'yicha xarajatlar, joriy maqsadlar uchun texnika, asbob-uskunalar va anjomlar, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish bo'yicha xarajatlar va boshqa joriy xarajatlar kiradi.

7.2. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, moliyalashtiruvchi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkazish tartibi

Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan budjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr-

dagi 414-sonli «Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»ga Qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjetdan moliyalashtirish me‘yorlariga hamda namunaviy shtatlarga muvofiq xarajatlar smetasi, shuningdek shtat jadvallarini mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo‘yicha ishlarni tashkil etish davomida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo‘limlari tomonidan o‘zlariga bo‘ysunuvchi budjet tashkilotlariga xalq deputatlari Kengashi sessiyasining qarorlaridan va moliya organlarining ushbu masala bo‘yicha ko‘rsatmalaridan kelib chiqqan holda kelgusi yil smetalarini tuzish tartibi va muddatlari haqida ko‘rsatmalar beriladi.

Mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat‘iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda smetalar bo‘yicha xarajatlar hisoblab chiqiladi. Bunda smeta xarajatlarini hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilinadi:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, Rrezident Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining idoraviy me‘yoriy hujjatlariga;

- budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning me‘yoriy (normativ) uslubiga (budjet me‘yorlariga);

- tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga, shuningdek nodavlat korxonalari va tashkilotlarining ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga va h.k.

Me‘yorlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- ijtimoiy ehtiyojlarni qoniqtirish uchun natural ko‘rsatkichlarning puldagi ifodasi (masalan, budjet tashkilotlarida oziq-ovqat xarajatlari me‘yori, dori-darmonlar bilan ta‘minlash me‘yori, inventarlar bilan ta‘minlanish me‘yori va boshqalar)

- yakka to‘lovlar me‘yori (ish haqi stavkalari, nafaqlar miqdori, stipendiyalar miqdori)

- ma‘lum bir davrlar uchun jamiyatning moddiy-moliyaviy imkoniyatlari, ma‘lum bir davrlardagi o‘rtacha xarajatlar miqdoridan iborat bo‘lgan me‘yorlar (masalan, binolarni saqlash me‘yorlari, o‘quv

xarajatlari me'yorlari i boshqalar).

Budjet me'yorlari oddiy (ayrim xarajatlar turlari uchun) va yig'ma (to'liq muassasa uchun yoki xarajatlarning yig'masi uchun) me'yorlar bo'lishi mumkin.

Budjet tashkilotlari xodimlari ish haqi uchun ajratiladigan mablag'lar budjet qonunchiligiga muvofiq belgilangan maoshlar va ish haqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib smetaga kiritiladi. Xo'jalik usuli bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqlar smetalarga budjet yiliga muljallangan xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi.

Redagoglarning ish haqilari uchun mablag'larni aniqlash qonun hujjatlarida belgilangan ish haqi stavkalaridan hamda o'quv hajmiga muvofiq tuzilgan o'quv rejasi, tasdiqlangan tarifkatsiyaga muvofiq daftar tekshirish va sinf rahbarligi uchun qo'shimcha haq to'lash me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqidan davlat ijtimoiy sug'urtasiga ajratiladigan xarajatlar miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan barcha ish haqi summasidan olinadigan davlat ijtimoiy sug'urta badallari to'lanadigan sug'urta to'lovlari tariflariga muvofiq smetaga hisoblanib kiritiladi. Kommunal xizmatlar uchun tashkilot xarajatlari kommunal xizmatlar uchun belgilangan amaldagi baho va tariflar kelib chiqib hisoblanadi va kiritiladi.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, kasb-hunar texnika bilim yurtlari, kurslar o'quvchilari va talabalari, aspirantlar va doktorantlar stipendiyalariga yo'naltiriladigan xarajatlar stipendiyalar miqdori va amaldagi stipendiya ta'minoti tartibidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Ayrim ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda, jumladan davolash, bolalar tashkilotlarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar tasdiqlangan ovqatlanish me'yorlari bo'yicha va ovqatlanish kunining sonidan kelib chiqib belgilanadi. Dori-darmonlar uchun yo'naltiriladigan xarajatlar tasdiqlangan pul xarajatlari me'yoriga qarab: statsionarlarda - har bir joy-kunga, shifoxonalarda - shifokorga har bir kirishga belgilanadi.

Ayrim guruhdagi ijtimoiy-madaniy tashkilotlar uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotish ayjomlari va boshqa yumshoq buyumlar xarid qilishga ishlatiladigan xarajatlar moddiy ta'minotning

amaldagi me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi.

Yuridik shaxs maqomiga ega va xarajatlarni qoplashning budjetdan tashqari manblag'lar manbalariga ega bo'lgan budjet tashkilotlar qo'shimcha daromadlar va ulardan kelib chiqadigan xarajatlar uchun smetalar tuzadilar. Bu smetalar bo'yicha daromadlar tushumi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarga qarab aniqlanadi.

Budjet tashkilotlarning xarajatlar smetalari uch nusxada tuziladi va tashkilotlarning rahbarlari hamda hisob xodimlari tomonidan imzolanadi. Smetaning birinchi nusxasi tashkilotda, ikkinchi nusxasi tegishli mahalliy moliya organida qoladi va uchinchi nusxasi yuqori tashkilotga taqdim etiladi. Tegishli moliya organlari smetalarni chuqurroq o'rganish maqsadida vazirliklardan, idoralardan, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlaridan tashkilotlar smetalarni tuzish va ijro etish jarayonining istalgan bosqichida ilovalar va hisob-kitoblarni qaytarib berish sharti bilan talab qilish huquqiga ega, budjetdan mablag' oluvchilar esa bu hisob-kitoblarni moliya organiga talab qilinishi bilanoq, taqdim qilishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari va smetalarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan boshqa tashkilotlar o'z qaramog'larida bo'lgan tashkilotlardan kelib tushgan umumiy va yakka xarajatlar smetalarni ko'rib chiqilishini ta'minlaydilar. Tashkilot moliyalashtiriladigan tegishli budjet loyihasi ko'rib chiqilishi bilan moliya organlari tegishli idoralarga, boshqarma va bo'limlarga ajratiladigan mablag'lar summasini xabar qiladilar. O'z navbatida ular o'zlariga qarashli tashkilot va muassasalarga mablag'lar hajmini etkazadi. Vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarma va bo'limlarining rahbarlari tegishli budjetlarda turuvchi tashkilotlar smetalarni ko'rib chiqadi va belgilangan mablag'lar doirasida qabul qiladilar.

Tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan smetalar tegishli tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqilishi kerak. Bunda smetalarni ko'rib chiquvchi tashkilotlar quyidagilarni ta'minlashlari kerak:

- amaldagi qonun hujjatlariga, shuningdek kelgusi yil smetalarni tuzish bo'yicha ko'rsatmalarga qat'iy amal qilishni ta'minlash;
- zaruratsiz ajratmalarni smetalarga kiritilishiga yo'l qo'ymagan

holda iqtisod qilish tartibiga amal qilish;

- xarajatlar smetasida qabul qilingan ko'rsatkichlarni mazkur budjet tashkilotning rejalashtirilayotgan yilga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish loyihasi ko'rsatkichlariga to'liq mos kelishini ta'minlash;

- smetalarda belgilangan mablag'larni ayrim tadbirlarni o'tkazish muddatlarini va ularning moliyalashtirishni ta'minlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, choraklar bo'yicha taqsimlash;

- hisob-kitoblar va asoslar bilan tasdiqlanmagan summalarni xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo'l qo'ymaslik.

Smetalarni ko'rib chiqishda xarajatlar budjetni tasdiqlashda belgilangan miqdordan oshib ketgan bo'lsa, ba'zi bir tashkilotlarning smetalari bo'yicha xarajatlarini qisqartirishi kerak. Vazirliklar, idoralar, hokimiyatlar boshqarmalari o'z qaramog'idagi tashkilotlar smetalarining markazlashtirilgan xarajatlar smetasini ko'rib chiqqandan keyin davlat budjeti xarajatlari tasnifiga muvofiq tegishli budjet bo'yicha boblari, paragraflari, ob'ektlari va kichik ob'ektlari bo'yicha xarajatlarning umumlashtirilgan umumiy smetasini tuzadilar hamda xarajatlarni amalga oshirish muddati va mavsumiyligiga qarab umumlashtirilgan smeta xarajatlarini har bir paragrafi, ob'ektlar turi va kichik ob'ektlar bo'yicha yilning choraklari bo'yicha taqsimotini belgilaydilar. Bir vaqtning o'zida smeta ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hisoblanadi hamda ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish ko'rsatkichlariga mosligi tekshiriladi

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari tashkilotlarning smetalari bo'yicha ishlarni yakunlar ekan, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vazirliklariga va tegishli moliya bo'limlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimiyatlar tomonidan belgilangan muddatlarga kelgusi yil budjeto bo'yicha quyidagi materiallarni takdim etadilar:

- 1) barcha smetalar bo'yicha xarajatlar yig'indisini budjet tasnifining boblari, paragraflari, turlari, ob'ektlari va kichik ob'ektlar bo'yicha va yilning choraklari bo'yicha bo'lingan holatda; bundan tashqari tuman va shaharlar xalq ta'limi bo'limlari maktab o'qituvchilari uchun ish haqi va (unga ajratmalar hisobini) xalq ta'limi bo'limi talabi bo'yicha depozit hisobvarakdaridan to'lanadigan xarajatlarni, agar qonunda boshqa yo'li ko'rsatilmagan bo'lsa, alohida

ajratib ko'rsatadi;

2) yillik budget bilan birga, ko'rsatiladigan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilangan shakllarga (tarmoqlar, shtatlar va kontingentlar) tashkilotlar guruhi bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlarni.

Bir vaqtning o'zida moliya organining talabiga qarab ayrim tashkilotlar bo'yicha xarajatlar smetasiga ilovalar va hisob-kitoblarni tekshirish va tekshirib chiqish uchun taqdim etiladi hamda ular keyinchalik moliya organlariga qaytariladi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vazirliklari, tegishli moliya boshqarmalari va bo'limlari taqdim etilgan materiallarni umumiy xarajatlar smetasi, ya'ni Hukumat tomonidan yoki yuqori tashkilot tomonidan belgilangan ish haqi, ularga ajratmalar bo'yicha, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlar turlarining hajmini Hukumat tomonidan budget tasdiqlanayotganda, budgetni tuzish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari yuzasidan belgilangan hajmlari doirasida tekshiradilar.

Bu talablar bajarilmagan takdirda moliya organlari vazirliklar, idoralar, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlariga, tasarruflaridagi muassasalarning smetalari bo'yicha xarajatlarini qisqartirishni taklif qilishi kerak bo'ladi.

Umumlashtirilgan smetalarga aniqlik kiritish bo'yicha vazirliklar, idoralar, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari tomonidan norozilik yuzaga kelsa, bo'ysunuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimiyatlar tomonidan hal etiladi.

Tashkilotlarning smetalari bo'yicha ishlarni yakunlab kelgusi yil budjeti bo'yicha budget tasnifining boblari, paragraflari, turlari, ob'ektlari va kichik ob'ektlari bo'yicha va yilning choraklari bo'yicha bo'lingan holatda barcha smetalar bo'yicha xarajatlar yig'indisini, yillik budget bilan birga, ko'rsatiladigan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi belgilangan shakllarda (tarmoqlar, shtatlar va kontingentlar) tashkilotlar guruhi bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlarni taqdim etadilar.

Umumlashtirilgan smetalar tekshirilgandan so'ng va kerak bo'lgan hollarda ularga tuzatishlar kiritilgandan so'ng vazirliklar, idoralar, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlariga umumlashtirilgan smetalarning tegishli budgetga kiritilgani haqida xabar beradilar va

ayrim tashkilotlar bo'yicha tekshirishga olingan xarajatlar smetalari qaytariladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlar tomonidan budjetlar tasdiqlanganidan keyin, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya Vazirligi, Moliya boshqarmalari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi sessiyalari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari sessiyalariga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan budjetga kiritilgan, ularning umumlashtirilgan smetalarning choraklar bo'yicha taqsimotini, shuningdek ish haqi, ularga ajratmalar, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlar summasini budjetda belgilangan eng yuqori miqdorlarini ajratib ko'rsatgan holatda xabar beradilar. Bundan tashqari shahar moliya bo'limlari shaharga bo'ysunadigan tuman hokimiyatlarining bo'limlariga, yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarni xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasi tomonidan tasdiqlangan ularning budjetlari hajmlari doirasida ajratib ko'rsatib, xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning qarori yoki tegishli viloyat, shahar, tuman xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarining tegishli budjetlarda turuvchi tashkilotlar uchun xarajatlar tasnifi moddalari bo'yicha bo'lingan budjet haqida qaror qabul qilgan kundan boshlab ikki hafta ichida tasdiqlanadi va smetalarni tasdiqlagan tashkilot rahbar (yoki o'rinbosari) imzosi bilan hamda bu tashkilotning muhri bosilgan holda rasmiylashtiriladi. Budjet tashkilotlarining smetalari hamda markazlashgan xarajatlar smetalari tasdiqlanishi bilan xarajatlarni yillik umumlashmasi boblar, paragraflar, xarajatlar turlari, budjet tasnifining ob'ektlari va kichik ob'ektlari bo'yicha choraklarga bo'lingan holda aniqlanadi va tegishli moliya organiga taqdim etiladi. Shu bilan bir vaqtda tarmoqlar, kontingentlar va shtatlar bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar taqdim etiladi. Umumiy smetalar tasdiqlanganidan so'ng markazlashgan buxgalteriyalar mazkur smetalar bo'yicha moliyalashtirish amalga oshiriladigan tashkilotlarga quyidagilarni xabar qiladilar:

- shtatlar va tashkilot xodimlari ish haqi stavkalari haqidagi ma'lumotlar;

- ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (o'quvchilar, sinflar, bolalar, joylar,

joy-kun, bola-kun va h.k.), bepul yoki imtiyozli ovqat oluvchi o'quvchilarning soni, birinchi sinf o'quvchilarining soni, aholining kam ta'minlangan qismidan bepul qishki kiyim va poyafzal ajratiladigan boshlang'ich sinf o'quvchilarining soni va boshqa tarmoq ko'rsatkichlari;

- ovqatlanishga, dori-darmonlarga ketadigan xarajatlarning me'yori;

- tashkilotlarni xo'jalik va davolash maqsadlari uchun rejalashtirilayotgan yilga ajratiladigan hamda amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan bepul kommunal xizmatlaridan foydalanuvchi o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar uylari uchun suv, elektr-energiyasi, yoqilg'i miqdori bo'yicha natural ko'rsatkichlari;

- budjet mablag'lariga sotib olishga mo'ljallangan inventarlar va asbob-uskunalar ro'yxati;

- kapital ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati;

- hokimiyatlarning tegishli moliya boshqarmalari va bo'limlari tomonidan, yuqori moliya organlari bilan kelishilgan holda belgilangan tashkilotlarga xabar beriladigan ko'rsatkichlar va shakllar ro'yxati.

Budjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan smetalari va shtat jadvallari, shuningdek amaldagi smetalarga va shtat jadvallariga kiritiladigan o'zgartirishlar moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng amalga kiritiladi. Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tegishli moliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Budjet tashkilotlarining tasdiqlangan smetasi va shtatlar jadvali mazkur budjet tashkilotini moliyalashtirish amalga oshiriladigan budjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kundan kechiktirilmagan muddatda tegishli moliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali moliya organlarida belgilangan muddatlarda ro'yxatdan o'tkazilmagan taqdirda budjet tashkilotlarini moliyalashtirish amalga oshirilmaydi va bank muassasalari esa ish haqi va mazkur tashkilotning xarajatlari uchun mablag' ajratishni ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar to'xtatib qo'yadilar. Budjet tashkilotlarining shtat jadvallari va xarajatlar smetalari ro'yxatga olish tugallanuniga qadar, mazkur budjet tashkilotini moliyalashtirishga asos bo'ladigan budjet ko'rsatkichlari qabul qilinganidan keyin ko'pi bilan 40 kun mobaynida tashkilot xarajatlarini moliyalashtirish avvalgi moliya yili so'nggi choragining rejadagi

budjet mablag'larini uchdan bir qismidan oshmaydigan hajmlarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti tasarrufidagi budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlaridagi tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya Vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalarida, shaharlar va tumanlar budjetidagi tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali shahar, shaharlardagi tuman va tuman moliya bo'limlarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Budjet tashkilotlari budjetdan mablag' bilan ta'minlash me'yorlari asosida smeta va shtatlar jadvalini mustaqil ravishda ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Smetalar xarajatlar guruhlarini bo'yicha Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning amaldagi tasnifiga muvofiq xarajatlarning to'liq yoyilmasi ilova qilingan holda tuziladi. Ilova smetaning ajralmas qismi hisoblanadi, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslash uchun xizmat qiladi va hisobot maqsadlari uchun foydalaniladi.

Budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatga olish belgilangan shakldagi ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi berilishi yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Ro'yxatga olish kartochkasi bank muassasalarida hisob yoki budjet hisobvaraqlariga ega bo'lgan budjet tashkilotlariga beriladi. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, budjet tashkilotining shohobchasi yoki boshqa tuzilmaviy bo'linmasi bo'lgan budjet muassasalari o'zlari uning tarkibida bo'lgan tashkilotlar bilan birga bitta ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi bo'yicha ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda zarur bo'lgan hollarda ro'yxatdan o'tkazish kartochkasida shtatlar bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori tashkilotlar va ular tasarrufidagi tashkilotlar bo'yicha alohida beriladi.

Budjet tashkilotlari tugatilganda moliya organlari bu haqida ma'lumot olganlaridan so'ng bank muassasalarini ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi mazkur ma'lumotda ko'rsatilgan muddatda bekor qilinishi to'g'risida xabardor qiladi. Bekor qilish muddati haqida ko'rsatmalar bo'lmagan bo'lsa ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi bir oy muddatgacha amal qiladi.

Budjet tashkiloti boshqa hududga belgilangan tartibda o'tkazilganda yuqori tashkilotlar rahbarlari o'n kunlik muddatda yangi

joylashgan joydagi moliya organiga avval ro'yxatdan o'tkazilgan smeta, shtatlar jadvali va ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini taqdim etishi lozim. Bir vaqtning o'zida moliya organi budjet tashkilotlarini saqlash xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ma'lumotlarni oldingi ro'yxatdan o'tkazish joyidagi moliya organidan talab qiladi va ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi tegishli o'zgartirishlar bilan yangisiga almashtiriladi. Budjet tashkilotlari rahbarlarining budjet tashkilotlarini saqlash xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha arizalari mazkur hujjatlar ro'yxatdan o'tkazilgan mahalliy moliya organining rahbari tomonidan o'n kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.

7.3. Budjet tashkilotlarini budjetdan moliyalashtirish tartibi

Budjet tashkilotlari xarajatlari smetasi tasdiqlangandan va ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng moliyalashtirish amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish smetada tasdiqlangan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash 1999 yil 3-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-sonli qarori va O'zR VM 19.07.2007 y. 148-son Qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan tartibi asosida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishning mazkur tartibida quyidagilar nazarda tutilgan:

- budjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

- budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmini soddalashtirish va ushbu mablag'lardan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun imkoniyatlar yaratish;

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, ish haqiga qo'shimchalar, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlarni guruhlagan holda bir satrda mablag' bilan ta'minlash usulida budjet tashkilotlarini normativlar bo'yicha (faoliyat turiga ko'ra) budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish, g'azna

ijrosiga o'tgan, xarajatlari moddalar bo'yicha amalga oshiriladigan budjet tashkilotlari bundan mustasno;

- Davlat budjetidan mablag' oluvchilarning mablag'larni sarflashlari ustidan dastlabki va joriy nazoratni ta'minlash;

- budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash)ni ularning faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish faoliyatini kengaytirish bilan birga qo'shib olib borish;

- budjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o'rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Davlat mudofaa qobiliyatini, xavfsizligini ta'minlash, mamlakatda ichki tartibni saqlash va boshqalar bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish (to'lash) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Xarajatlarning quyidagi guruhlari Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

II. Ish haqiga qo'shimchalar;

III. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar.

G'azna ijrosiga o'tgan budjet tashkilotlarining xarajatlari Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yagona g'azna hisob raqamidan, shuningdek yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar guruhlarning har bir moddasi bo'yicha hududiy g'aznachilik hisob raqamidan amalga oshiriladi.

Xarajatlarni to'lash budjet ijrosi jarayonida xarajatlar ro'yxati va smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda tegishli yil uchun tasdiqlangan budjet parametrlariga hamda budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan budjet xarajatlarining choraklar bo'yicha taqsimlangan yillik ro'yxatiga binoan amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjetdan mablag' bilan ta'minlash normativlari asosida smeta va shtatlar jadvalini qonun hujjatlarida

belgilangan tartibda mustaqil ravishda ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Smetalar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasiga muvofiq xarajatlarning to‘liq yoyilmasi ilova qilingan holda xarajatlarning to‘rt guruhi bo‘yicha tuziladi.

Ilova smetaning ajralmas qismi hisoblanadi, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslash uchun xizmat qiladi va hisobot maqsadlari uchun foydalaniladi.

Xalq ta‘limi muassasalari bo‘yicha xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali hududiy moliya organlari bilan birgalikda tuziladi.

Budjet tashkilotlari tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yoki uning hududiy moliya organlariga taqdim etadilar.

Tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish, ilovalarni kelishish taqdim etilgan hujjatlarning tasdiqlangan budjet xarajatlari limitlariga va normativlariga hamda budjet parametrlariga muvofiqligi tahlili asosida tegishli moliya organlarida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining tasdiqlangan smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish mazkur budjet tashkiloti xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash), budjet parametrlari tasdiqlangan paytdan boshlab 40 kundan kechiktirmay tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan o‘zgartirishlar ular O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida yoki hududiy moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng amalga kiritiladi.

Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvaliga kiritiladigan o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda albatta Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari bilan kelishiladi.

Xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan budjet tashkilotlari birinchi navbatda xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash) amalga oshiriladi. Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag‘ o‘tkazmasdan I guruh xarajatlarini amalga oshirish taqiqlanadi.

Yagona g'azna hisob raqamida, shuningdek hududiy g'aznachilik hisob raqamida birinchi va ikkinchi guruhlar bo'yicha to'lanmagan xarajatlar summasidan ortiq mablag'lar mavjud bo'lganda ortiqcha summa miqdorida uchinchi va to'rtinchi guruhlar bo'yicha xarajat qilishga ruxsat etiladi.

Kapital qo'yilmalarga ajratmalar joriy budjet yili uchun tasdiqlangan Respublika investitsiya dasturiga muvofiq qurilishlarning aniq ro'yxatlariga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ajratiladi.

G'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan buyurtmachilar ob'ektlari qurilishiga Davlat budjetida nazarda tutilgan xarajatlar G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining joriy yilga tasdiqlangan Investitsiya dasturiga hamda qurilishlarning aniq ro'yxatiga muvofiq, buyurtmachilarning Moliya vazirligining G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarga asosan to'lanadi.

Xarajatlarning I va II guruhlarini respublika va mahalliy budjetlardan xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) smetalarga va budjet xarajatlari ro'yxatlariga, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, shuningdek oldingi hisobot davri uchun belgilangan baholash ko'rsatkichlarining bajarilishiga muvofiq har oyda amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilmalarni va boshqa xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) budjetga mablag'lar tushishiga qarab har oyda amalga oshiriladi.

G'azna ijrosiga o'tgan budjet mablag'i oluvchilar bo'yicha xarajatlarni to'lash:

respublika budjetidan - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar yoki budjet mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlardan - Moliya vazirligi G'aznachiligining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar yoki budjet mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarining xarajatlarini moliyalashtirishda (to'lashda) yangi budjet yilida mablag' ajratish rejasi budjet tashkilotlarining hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi holatiga ko'ra tovar-moddiy boyliklarning normativdan ortiq qoldig'i summasiga kamaytiriladi.

O'tgan yillar debitorlik qarzlarning qaytarilgan summasi, asosiy vositalarni va boshqa tovar-moddiy boyliklarni sotishdan tushgan summa (budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobiga sotib olinganlari bundan mustasno) tegishli budjetlar daromadiga o'tkaziladi.

Xarajatlarning III guruhi budjet tashkilotlari tomonidan Respublika investitsiya dasturida joriy moliya yili uchun belgilangan limitlar doirasida xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) amalga oshiriladi.

"Boshqa xarajatlar" IV guruhi bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda sarflanadi:

- ovqatlantirish;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;
- boshqa xarajatlar.

Budjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy moliya organlari bilan kelishgan holda mavsumiy yoki shoshilinch tadbirlar (birinchi sinf o'quvchilari uchun maktab anjomlari, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyimlar xarid qilish, epidemiyaga qarshi, yuqumli kasalliklarga qarshi tadbirlar va boshqa tadbirlar)ni mablag' bilan ta'minlash uchun mablag'larni IV guruh mablag'lari hisobiga tezkorlik bilan xarajat qilishlari mumkin.

IV guruh hisobiga avtomobillar va boshqa avtotransport vositalarini (maxsus avtotransport bundan mustasno), uyali telefonlar va zeb-ziynat buyumlari (import ofis mebeli, audio-video texnika (o'quv, ilmiy va tibbiy jarayonlarda foydalaniladiganlardan tashqari) ofislar uchun gilamlar va boshqalar) xarid qilishga faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda yo'l qo'yiladi, ko'rsatib o'tilgan moddiy aktivlarni sotib olishga mablag'lar iqtisodiy tasnifnomaning tegishli moddasi bo'yicha budjet tashkilotining xarajatlar smetasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Xarajatlarning u yoki bu guruhida paydo bo'lgan kreditorlik qarzlari joriy moliya yiliga belgilangan limitlar doirasida ularning paydo bo'lishi navbatiga ko'ra har qaysi guruh bo'yicha to'lanadi.

Hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet tashkilotlarining hisob raqamlarida qolgan tejab qolingani budjet mablag'lari (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) olib qo'yilmaydi, Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi va mazkur Tartib talablariga muvofiq sarflanadi;

G'azna ijrosiga o'tgan budjet tashkilotlari bo'yicha hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet tashkilotlarining Moliya vazirligi G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalarida ochilgan hisob raqamlarida qolgan tejab qolingani mablag'lar (kapital qo'yilmalar bo'yicha xarajatlarni to'lash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) olib qo'yilmaydi, Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi va undan mazkur Tartib talablariga muvofiq foydalaniladi;

Tejab qolingani budjet mablag'larini o'tkazish budjet tashkilotlari tomonidan yuridik va moliyaviy majburiyatlar olinmagan budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hisobot choragidan keyingi oy mobaynida amalga oshiriladi..

Budjet tashkilotlarini kelgusi chorakda mablag' bilan ta'minlash hajmi hisobot choragida tejab qolingani budjet mablag'lari summasiga kamaytirilmaydi.

7.4. Budjet tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish

Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan ajratiladigan mablag'lardan tashqari boshqa daromadlarga ham ega bo'lib, bular budjetdan tashqari mablag'lar deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 - sentyabrda qabul qilgan «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-sonli qaroriga muvofiq yuridik shaxs maqomiga ega budjet tashkilotlari budjetdan tashqari qo'shimcha daromadlarga ega bo'ladi va tegishli tartibda foydalanadi.

Hozirgi paytda budjet tashkilotlariga qo'shimcha ravishda 2000 yildan boshlab, quyidagi budjet tashkilotlari va muassasalariga yuridik shaxs maqomi berilishi mumkin:

1) maorif sohasida: - kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, professional-texnika o'quv yurtlari va bolalar uylariga, - barcha turdagi umumta'lim maktablari, gimnaziyalar, litseylar, maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatlariga - o'quvchilar kontingenti 400 kishidan kam bo'lmaganda; - internatlarga - o'quvchilar kontingenti 200 kishidan kam bo'lmaganda; - maktabgacha tarbiya bolalar muassasalariga kontingenti 350 kishidan kam bo'lmaganda; - viloyat va tuman (shahar) ahamiyatiga molik maktabdan tashqari muassasalarga;

2) sog'liqni saqlash sohasida: - kasalxonalar (ixtisoslashtirilgan markazlar bilan) tug'riqxonalar, tibbiy-sanitar qismlar, dispanserlar, shifoxonalarga; - bolalar uylari, bolalar sanatoriylari, kattalar uchun sil kasalliklari sanatoriylariga; - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 10 martdagi 100-sonli qaroriga muvofiq tajriba tariqasida ochilgan qishloq tibbiyot punktlariga.

Yuqorida ko'rsatilgan budjet tashkilotlariga yuridik shaxs maqomi moddiy - texnika bazasi va sohasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun sharoitlar hamda buxgalter kadrlar mavjud bo'lgandagina beriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjet tashkilotlarini moliyalashtirishning quyidagi qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lishi mumkin:

- faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan tushgan daromadlar;

- budjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol - mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan tushgan daromadlar;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga ko'rsatiladigan homiylik (beg'araz) yordami hisobidan tushgan daromadlar.

Qo'shimcha daromadga ega budjet tashkilotlari 2000 yil 1 yanvardan boshlab 2012 yil 1 yanvargacha budjetga undiriladigan soliqlar va yigimlarning barcha turlaridan ozod qilingan.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budget tashkilotlariga «Budget tashkilotini rivojlantirish» jamg'armasini shakllantirish huquqi berilgan va bu jamg'arma quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

1) rejali tartibda budgetdan moliyalashtirish hisobiga tushgan va hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budget tashkilotlari hisobvaraqlarida qolgan tejab qolingani (foydalanilmagan) mablag'lar (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan mablag'lar kiritilmaydi);

2) budget tashkilotlari faoliyati turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

3) budget tashkilotida vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan mablag'larning 50 % i. Mablag'larning qolgan 50 % ini budget tashkilotlari mahalliy budgetlar daromadiga o'tkazadilar;

4) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budget tashkilotlariga berilayotgan homiylik (beg'araz) yordamlari.

Budget tashkilotlarida shakllantirilgan Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lash, budget tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijtimoiy rivojlantirish va budget tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlari uchun ishlatiladi.

Agar budget tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlari mavjud bo'lsa ishlar, xizmatlar tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni qoplangandan so'ng tejab qolingani budget mablag'lari doirasida ushbu qarzlarni to'lashga sarflanadi. Mazkur kreditorlik qarzlari budget tashkilotining xarajatlari vaqtincha etarli darajada moliyalashtirilmaganligi sababli paydo bo'lgan taqdirda, kreditorlik qarzning Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hisobiga to'langan miqdori joriy moliya yiliga belgilangan xarajatlar limiti doirasida budgetdan qoplanadi.

Budget tashkilotidagi vujudga kelgan kreditorlik qarzi xarajatlar smetasiga ilovada nazarda tutilgan xarajatlar to'lanmaganligi yoki xarajatlarning har qaysi guruhi bo'yicha belgilangan limitlarning oshib ketganligi sababli paydo bo'lgan bo'lsa, to'liq hajmda budgetdan mablag' bilan ta'minlangan sharoitda budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari ishlar, xizmatlar, tovarlar ishlab chiqarish va

sotish bo'yicha jami xarajatlar qoplangandan so'ng avvalo xarajatlarning to'lanmagan qismi va belgilangan limitlarning ortib ketgan miqdori doirasida kreditorlik qarzlarni qoplashga yo'naltiriladi.

Budjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va kreditorlik qarz mavjud bo'lmasa, budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining qolgan mablag'lari (bunga homiylik yordam, beg'araz yordam orqali kelib tushgan mablag'lar kiritilmaydi) quyidagi tartibda foydalaniladi: kelib tushgan barcha mablag'larning kamida 75 % i (sog'liqni saqlash budjet tashkilotlarida kamida 50 % i) tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha ketgan jami xarajatlarni qoplashga va moddiy - texnika bazasini mustahkamlash uchun, ko'pi bilan 25 % idan oshmagan qismi (sog'liqni saqlash budjet tashkilotlarida 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda) budjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish bo'yicha tadbirlar uchun foydalaniladi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotiga ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordami mablag'larining barcha summasi, agar homiy bilan maxsus o'zgacha hol kelishilmagan bo'lsa, budjet tashkilotining moddiy - texnika bazasini mustahkamlash uchun sarflanadi.

Qisqacha xulosalar

Budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi. Shuning uchun har bir budjet tashkiloti xarajatlar smetasini tuzadi. Xarajatlar smetasi tuzilishiga qarab yakka, umumiy, yig'ma, markazlashgan tadbirlar xarajatlari smetalariga bo'linadi. Smeta xarajatlarini rejalashtirishda budjet me'yorlariga, amaldagi qonunchilikga, narx va tariflarga rioya qilinadi.

Budjet tashkilotlarini davlat budjetidan moliyalashtirish xarajatlar guruhlariga qarab ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalariga ham ega. Ularga tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar, binolarni ijaraga berishdan tushgan tushumlar va homiylik (beg'araz) yordamlari kiradi.

Budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi shakllantiriladi va jamg'arma mablag'lari tashkilot moddiy - texnika bazasini mustahkamlashga hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirishga ishlatiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xarajatlar smetasi nima va qanday maqsad uchun tuziladi?
2. Xarajatlar smetasining qanday turlari mavjud?
3. Budjet tashkilotlari xarajatlar smetasini tuzishda nimalarga e'tibor berishi kerak?
4. Budjet me'yori nima?
5. Xarajatlar smetasi tarkibi qanday?
6. Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Budjetdan moliyalashtirish me'yori deganda nimani tushinasiz?
8. Qaysi tashkilotlarga yuridik shaxs maqomi berilishi mumkin?
9. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasini shakllantirish manbalarini ko'rsatib o'ting.
10. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari nimalarga sarflanadi?

Asosiy adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston, 2015 y.
- O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.
- Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

- G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 b.

- T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

-Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

-Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

– www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
– www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).

– www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
– www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);

– www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
– www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).

– www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).

– www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).

– www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

VIII BOB. DAVLAT BUDJETINING IJTIMOIIY-MADANIY TADBIR XARAJATLARI

8.1. Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish

Maktabgacha tarbiya muassasalarini rivojlantirish uchun “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” va “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning bajarilishini ta’minlash maqsadida juda aniq tadbirlar belgilangan.

Bu tadbirlarni o’z vaqtida bajarish uchun albatta maktabgacha tarbiya muassasalari va xalq ta’limining boshqa muassasalariga juda katta moliyaviy mablag’ talab etiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlari smetasi budjet tasnifining alohida xarajatlar turlari bo’yicha ishlab chiqiladi. Har bir modda bo’yicha xarajatlar tegishli hisob-kitoblar bilan asoslab beriladi. Har bir xarajatlar smetasiga maktabgacha tarbiya muassasalarining to’garaklar tarmoqlarining ish rejalari ilova qilinishi kerak. Bundan tashqari yo’nalishiga qarab to’garaklarning soni, har bir to’garakning yo’nalishlari bo’yicha bir hafta mobaynidagi ish soatlari hajmi, tarbiyalanishdagi bolalar soni ko’rsatilib o’tilishi kerak. Musiqa yo’nalishidagi to’garaklar uchun esa alohida ustinda musiqa o’rgatuvchilarning haftalik soatlari ko’rsatilib o’tiladi.

Maktabgacha muassasalarining barchasini saqlash uchun ajratilgan mablag’lar maxsus hujjat asosida, ya’ni smeta peshhisob hujjatlar bo’yicha ajratib ko’rsatiladi. Shuning uchun ushbu muassasalarni moliyalashtirish tartibi smetali moliyalashtirish deb ataladi. “Smeta asosida moliyalashtirish moliyalashtirishning eng qulay usuli bo’lib, bunda birinchidan, budjet mablag’larining nazorat qilinishi oson bo’lsa, ikkinchidan, kerakli mablag’larni oldindan rejalashtirish nazarda tutiladi”¹⁰.

Maktabgacha muassasalar xarajatlari smetali tartibda rejalashtirish tamoyillari asosida aniqlanadi. Bu muassasalarni saqlash uchun tuzilgan smetalar asosiy xarajatlar rejasi hujjati bo’lib hisoblanadi. Bu hujjat barcha muassasalarga budjetdan ajratiladigan mablag’lar hajmini, maqsadli yo’nalishini va choraklar bo’yicha taqsimotni aniqlab beradi.

¹⁰ Беляков С.А. Финансирование расходов на образование: нормативный метод. Финансы. 2001. №5, 17-с.

Hozirgi kunda Respublikamizda bog'cha, yasli va bog'cha - yasli tipidagi muassasalar mavjud. Bundan tashqari sanatoriya tipidagi bog'chalar mavjud bo'lib, bu o'z navbatida kasallangan bolalar uchun mo'ljalangan. Bu muassasalarning smetasi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy shakl asosida tuziladi. Bu smetada bola soni, guruhlar soni, bola - kuni va boshqa ko'rsatkichlar ko'rsatiladi. Smetada bolalar soni va guruhlar soni yil boshida va reja bo'yicha yil oxiridagi soni hamda o'rtacha bolalar va guruhlar soni ko'rsatiladi.

9 - jadval

Maktabgacha tarbiya muassasalari namunaviy shtatlar ro'yxati

№	Lavozimi	Guruhlar sonidan kelib chiqib shtatlar soni										
		2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	Mudira	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
	Tarbiyachi metodist	-	-	-	-	0,5	0,5	1	1	1	1	1
	Katta hamshira	0,5	1	1	1	1	1	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5
	Psixolog	-	-	-	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	1
	Xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri	0,5	0,5	1	1	1	1	1	1	1	1	1
	Xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri yordamchisi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
	Bosh hisobchi	-	-	-	-	-	-	1	1	1	1	1
	Hisobchi	0,5	0,5	1	1	1	1	-	-	-	-	-
	Ish yurituvchi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	0,5
	Bosh oshpaz	-	-	-	-	-	-	-	-	1	1	1
	Oshpaz	1,5	1,5	2	2	2	3	3	3	2	2	3
	Yordamchi ishchi	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	1	2	2	2
	Binoni ta'mirlash bo'yicha ishchi	-	-	-	-	-	-	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
	Ombor mudiri	-	-	-	-	-	-	-	-	1	1	1
	Kastelyansha	-	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	1	1	1
	Kir yuvuvchi	0,7 5	1	1,5	1,5	2	2	2,5	2,5	3	3	4
	Farrosh	-	-	-	-	-	-	-	-	1	1	1

Bog'chalarda 9-10, 5, 12, 24 soatlik guruhlar mavjud bo'lib, bog'chalarning o'zi ham 5-6 kunlik bog'chalarga bo'lingan¹¹

1-3 yoshgacha bo'lgan bolalar yasli guruhida bo'lib, 3 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar bog'cha guruhlarida joylashtiriladi.

¹¹ Усанов В.Н., Капитонова М.И., Ерошин В.И. Справочник по финансированию просвещения. - М.: Финансы и статистика, 142 с.

Yasli guruhida o'rtacha to'ldirilish 15 ta bola bo'lishi kerak, bog'cha guruhida esa 20 ta bola bo'lishi kerak.

Bundan tashqari maxsus guruhlarda 10-12 ta bola bo'lishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya muassasalari budjet muassasalari tarkibiga kiradi. Ma'lumki, ular o'z daromadlariga ega emas, asosiy faoliyat xarajatlarini qoplash uchun mablag'ni mahalliy budjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi va mahalliy budjet moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

Bog'chalarda shtatlar soni asosan guruhlar sonidan kelib chiqib qo'yiladi. Bu shtat birliklarining belgilanishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

10 - jadval

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bitta guruh uchun qo'shimcha shtatlar soni

T. r.	Lavozimi	5 kunlik ish haftasida bola qatnovi				6 kunlik ish haftasida bola qatnovi			
		9 soat	10 soat	12 soat	24 soat	9 soat	10 soat	12 soat	24 soat
1.	Tarbiyachi	1,25	1,55	2,0	2,0	1,5	1,67	2,0	2,2
2.	YOrdamchi tarbiyachi	1,0	1,15	1,25	1,5	1,0	1,25	1,5	1,5
3.	Yasli guruhlarda								
4.	Tarbiyachi	1,25	1,55	2,0	3,0	1,5	1,67	2,0	3,6
5.	YOrdamchi tarbiyachi	1,1	1,3	1,5	2,5	1,33	1,45	1,75	2,75

Manba: O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri o'rinbosari tomonidan 1997 yil 15 oktyabrda tasdiqlangan «Maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar» namunaviy shtatlari

Maktabgacha tarbiya muassasalarida shtatlar soni asosan mavjud guruhlar sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Namunaviy shtatlarda ko'rsatilgan shtatlardan tashqari yana qo'shimcha shtatlar belgilangan ish haqi fondidan chiqmagan holda joriy qilinishi mumkin. Hozirgi kunda bog'chalarda ota-onalar to'lovi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28 - dekabrda 610 - sonli qaroriga asosan hisoblanadi. 8.1.3.-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ota-onalar to'lovini hisoblash uchun asosiy

ko'rsatkichlar bo'lib bolalarning bog'chalarda bo'lishlarining davomiyligi va muassasaning xaftadagi ish kunlari hisoblanadi. Ota-onalar to'lovi eng kam ish haqiga nisbatan foizda belgilanadi.

Maxsus sanatoriya tipidagi bog'chalarda ota-onalar to'lovi olinmaydi. Bundan tashqari ota-onalarning mehnat ta'tili payti bolalarini bog'chaga bermasliklari mumkin, bunda bog'chadagi bolalar safidan o'chirilmaydi. Ota-onalar to'lovi har oyning 10 kunigacha to'lanishi shart agar 2 xafta davomida ota-onalar o'z to'lovlarini to'lamasalar ushbu bolalar bog'chadagi bolalar safidan chiqariladi.

8.2. Umumta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek umumta'lim maktablari xarajatlari davlat budjetining ta'lim xarajatlari tarkibida asosiy o'rinni egallaydi. Mahalliy budjetlarning o'rtacha hisobida umumta'lim maktablariga yo'nalitiriladigan xarajatlar salmog'i 60-70 % ini tashkil etadi.

Umumta'lim maktablari xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga ajratiladi. Joriy xarajatlarga umumta'lim maktablarini saqlash xarajatlari kiritilib, ular 3 ta guruh bo'yicha rejalashtiriladi. Umumta'lim maktablari xarajatlarini rejalashtirishda asosiy ko'rsatkichlardan, o'quvchilar soni va sinflar sonidan kelib chiqib hisoblanadi.

Umumta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirishda o'quvchilar kontingenti, sinflar soni, pedagogik stavkalar va boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi. Asosiy ko'rsatkichlar bir kalendar yilga o'rtacha hisobda hisoblanadi, o'quv yili esa kalendar-moliya yiliga to'g'ri kelmaydi. O'rtacha yillik ko'rsatkichlar o'quvchilarning kontingentini va uning o'quv yili boshidan o'zgarishini hisoblashga imkon beradi. O'rtacha yillik ko'rsatkichlarni hisoblash uchun o'quvchilarning moliya yili boshidagi va oxiridagi soni olinadi.

Sinflar soni 1-4, 5-9, 10-11 sinflar guruhlari bo'yicha va o'quvchilarning umumiy soniga hamda sinflarning to'liqligi, ya'ni bitta sinfda o'qiydigan o'quvchilar soniga bog'liq belgilanadi.

Maktablar, sinflar va o'quvchilar soni 1 yanvar va 1 sentyabr holatiga aniqlanadi. O'quvchilarning va sinflarning 1 yanvar holatidagi soni joriy yilning oxirigacha ularning o'zgarishlarini hisobga olgan holda oxirgi hisobot sanasi holati bo'yicha qabul qilinadi. Shuning

uchun tugatilgan va qo‘shimcha kontingentlarni hisobga olish uchun o‘rtacha yillik ko‘rsatkichlarni hisoblash zarurati tug‘iladi.

O‘quvchilarning va sinflarning o‘rtacha yillik soni quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K_{o'r} = \frac{8 \times K_b + 4 \times K_o}{12}$$

bunda,

$K_{o'r}$ – sinflarning yoki o‘quvchilarning o‘rtacha yillik kontingenti;

K_b va K_o - yil boshidagi va yil oxiridagi sinflar yoki o‘quvchilar soni;

12 – yildagi oylar soni.

Masalan, yil boshida 800 o‘quvchi mavjud edi va 1 sentyabrga 860 ta rejalashtirilmoqda. O‘quvchilarning o‘rtacha yillik kontingenti formula bo‘yicha 820 tani tashkil etadi.

$$K_{o'r} = \frac{8 \times 800 + 4 \times 860}{12} = \frac{6400 + 3440}{12} = 820$$

Sinflarning yoki o‘quvchilarning o‘rtacha yillik kontingentidan kelib chiqib umumta’lim maktabini saqlash xarajatlari aniqlanadi.

Umumta’lim maktablarini saqlash xarajatlari tarkibida ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar xarajatlari taxminan 65-70 %ini tashkil etadi. Ish haqi fondini aniqlashda xodimlarning shtat birliklari umumta’lim muassasasining katta-kichikligiga qarab, ya’ni o‘rtacha sinflar soniga qarab belgilanadi. Ish haqi fondi o‘qituvchilarning ish haqilari, boshqaruv xodimlari, ma’muriy-xo‘jalik, o‘quv-tarbiyaviy va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarining ish haqilari, o‘qituvchilar ish haqilariga ustamalardan iborat .

Umumta’lim muassasalarining xodimlari shtatlari soni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 1997 yil 22 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 1 iyuldagi 358-sonli «Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan muassasa va tashkilotlar faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida»gi Qaroriga asosan tasdiqlangan “Barcha tipdagi umumta’lim muassasalari namunaviy shtatlari» asosida belgilanadi va quyidagi jadvalda keltirilgan.

Har bir umumta'lim muassasasi boshqaruv xodimlari, ma'muriy-xo'jalik, o'quv-tarbiyaviy va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining shtat birliklari komplekt sinflar soniga bog'liq belgilanadi. Direktor lavozimi boshlang'ich maktablarda 8 va undan ortiq komplekt-sinflar va 240 tadan kam bo'lmagan o'quvchilar mavjud bo'lganda belgilanadi. O'qituvchilarning shtat birliklari maktablardagi sinflar va ularda o'qitiladigan yuklamalar hajmi va har bir o'qituvchining yuklamasi hajmidan kelib chiqadi.

Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlarini rejalashtirish «Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005 yil 25 noyabrdagi RQ-227-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan yoki aralash moliyalashtiriladigan xalq ta'limi muassasalari pedagog xodimlari va rahbarlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlarini belgilaydi.

11 - jadval

Umumta'lim muassasalari boshqaruv xodimlari, ma'muriy-xo'jalik, o'quv-tarbiyaviy va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining namunaviy shtatlari

№	Mansab turlari	Komplekt sinflari soniga bog'liq shtat birliklari miqdori						
		6 gacha	7-10	11-13	14-16	17-22	23-29	30 va undan ortik
1.	Direktor	1	1	1	1	1	1	1
2.	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor muovini	-	0,5	1	1	1	1,5	2
3.	O'quv ishlari bo'yicha direktor muovini	-	0,5	1	1	1	1,5	2
4.	Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor muovini	-	-	-	-	1	1	1

5.	Psixolog	-	0,5	0,5	0,5	1	1	1
6.	Xo‘jalik mudiri	-	-	1	1	-	-	-
7.	Bosh buxgalter	-	-	-	-	-	1	1
8.	Sekretar- mashinistka	-	-	-	1	1	1	1
9.	Katta murabbiy	-	0,5	1	1	1	1	2
10.	Kutubxona mudiri	-	-	-	1	1	1	1
11.	Kutubxonachi	-	0,5	0,5	-	-	-	0,5
12.	Garderovbchi (garderob mavjud bo‘lganda)	-	1	1	1	1,5	2	2

Umumta’lim muassasalari xodimlarining lavozim maoshlari umumta’lim muassasalarining pedagog xodimlari va rahbar xodimlarining har bir lavozimi va malaka toifasi uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari asosida shakllantiriladi. Bazaviy tarif stavkasi Yagona tarif setkasi bo‘yicha tarif stavkasini hamda tarif stavkasiga belgilangan doimiy ustamalarni, pedagog va rahbar xodimlarning ayrim toifalar ish haqiga qo‘shilgan kompensatsiya to‘lovlarini, xodimlarga belgilangan ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlar asosida shakllantiriladi.

Umumta’lim muassasasi pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalari xodimning lavozimiga hamda xodimning malaka toifasiga, umumta’lim muassasasining tipiga bog‘liq ravishda tabaqalashtiriladi.

Xalq ta’limi muassasalari rahbarlarining bazaviy tarif stavkalari muassasalar guruhidan kelib chiqib belgilanadi.

*- Umumta’lim muassasalariga umumta’lim maktablari hamda barcha tip va nomdagi maktab internatlar kiradi.

Xalq ta’limi tizimi xodimlari mehnatining ish haqi bazaviy tarif stavkasini hamda ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlarni o‘z ichiga oladi


2006 yil 1 - yanvardan boshlab barcha tip va nomdagi umumta’lim maktablarining o‘z kasbiga sodiq o‘qituvchilarini moddiy rag‘batlantirish va yuksak kasbiy va halol mehnatini rag‘batlantirish, tashabbuskorligi va kasb mahoratini o‘stirish maqsadida umumta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasi shakllantirildi.

Xalq ta'limi muassasalari rahbarlarining bazaviy tarif stavkalarini belgilashda o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) kontingentiga qarab muassasalar guruhlariga ajratilishi

Xalq ta'limi muassasalarining tipii	Kontingent soni (kishi)			
	I guruh	II guruh	III guruh	IY guruh
Umumta'lim maktablari*	1601 nafar va undan ortiq	881-1600	401-880	400 nafargacha
Maktabgacha bolalar muassasalari	9 guruh va undan ortiq	9 guruhgacha		
"Mehribonlik" uylari	201 nafar va undan ortiq	200 nafargacha		
Musiq va san'at maktablari	401 nafar va undan ortiq	400 nafargacha		
Maktabdan tashqari muassasalar	1601 nafar va undan ortiq	881-1600	880 nafargacha	
Bolalar va o'smirlar sport maktablari	Muassasalarni tegishli guruhlariga kiritish O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi			

Direktor jamg'armasidan o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar va sinfdan tashqari ishlar olib borilishining yuksak darajasi uchun malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchi bazaviy tarif stavkasining 15 % gacha miqdorda, kasb mahorati va ta'lim jarayoniga qo'shilgan aniq hissa yuqori samaradorlik va o'qitish sifati uchun tegishli malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchi bazaviy tarif stavkasining 25 % gacha miqdorda har oylik ustama belgilanadi. Direktor jamg'armasi umumta'lim muassasasi mehnatga haq to'lash fondining 15 % idan ortiq bo'lmagan miqdorida davlat budjeti mablag'lari hisobiga shakllantiriladi.

Direktor jamg'armasi shakllantirish manbalari va sarflanish maqsadlari va yo'nalishlari quyidagi chizmada keltirilgan.



8 - chizma. Direktor jamg'armasining shakllanish manbasi va sarflanish yo'nalishlari.

Bundan tashqari pedagog xodimlarning bazaviy tarif stavkasiga sinf rahbarligi uchun - eng kam oylik ish haqining 100 % i, daftar va yozma ishlarni tekshirganlik uchun - eng kam oylik ish haqining 50 % i

qo'shimcha to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan qo'shimcha haqlar ushbu qo'shimcha haqni moliyalashtirish uchun maxsus ajratiladigan budget mablag'laridan to'lanadi.

Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning mehnatini normallashtirishda yillik ish rejasi o'quv, tarbiyaviy va tashkiliy tushdagi asosiy tadbirlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti sarfi ko'rsatilgan holda ularning ro'yxatini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarning yillik ish rejasi choraklar va oylar bo'yicha taqsimlangan bir yildagi 1548 soat miqdoridagi ish vaqtining jamlangan hisobidan kelib chiqadi.

Umumta'lim muassasalari o'qituvchilar ish haqilari Xalq ta'limi vazirligi va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2006 yil 5-yanvardagi №03, №01/23 sonli birgalikdagi bo'yrug'i bilan tasdiqlangan «Umumta'lim muassasalari o'qituvchilar ish haqini hisoblash va tarifikatsiyalash tartibi bo'yicha metodik ko'rsatmasiga muvofiq o'qituvchilar tarifikatsiyasi har yili 1 sentyabr holati bo'yicha amalga oshiriladi. Umumta'lim muassasalarida har bir o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quv yuklamasi bilan qator pedagogik yuklamani ham bajarishlari shart.

Redagogik yuklama belgilangan o'quv yuklamasiga boshlang'ich sinflarda 1,0 va yuqori sinflarga 0,8 koeffitsientlarni qo'llagan holda proporsional nisbatlarda aniqlanadi. O'qituvchining namunaviy rejasi bo'yicha umumiy oylik yuklama 154,8 soatni tashkil etadi. Oydagi haftalik hisob miqdori 4,3 ni tashkil etadi. O'qituvchining haftadagi yuklamasi 1,0 stavka uchun boshlang'ich sinflarda 36 soat, shundan o'quv yuklamasi 18 soat va pedagogik yuklamasi 18 soat. O'qituvchining haftadagi yuklamasi 1,0 stavka uchun yuqori sinflarda 36 soat, shundan o'quv yuklamasi 20 soat va pedagogik yuklamasi 16 soat.

Umumta'lim muassasalarining 4-guruh xarajatlari amaldagi qonunchilikga muvofiq amaldagi tariflarga va narxlarga qarab hisoblanadi va maktabning umumiy smetasi tuziladi. Umumta'lim muassasalarini moliyalashtirishning budget va budgetdan tashqari manbalari mavjud. Oxirgi yillari umumta'lim muassasalarini moliyalashtirishda qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

2007 yil 26 fevralda Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy - iqtisodiy masalalarni hal etishda talim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish va

mas'uliyatini oshirish, budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, shuningdek ta'lim - tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlik qilishni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida" Farmoni qabul qilindi.

Umumta'lim muassasalarini hisob-kitob-moliyaviy jihatdan ta'minlash, ularning sarf-xarajatlarini hisobga olish va nazorat qilish funksiyalari hamda tuzilmalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalari, xalq ta'limi tuman va shahar bo'limlaridan tegishli hududiy moliya organlariga topshiriladi. Umumta'lim muassasalarining faoliyatini moliyalashtirish bevosita hududiy moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Hududiy moliya organlari tuzilmasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalari, xalq ta'limi tuman va shahar bo'limlarining topshirilayotgan markazlashtirilgan buxgalteriyalari va markazlashtirilgan xo'jalik xizmati ko'rsatish guruhlari negizida xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish bo'limlari tashkil qilinadi.

Hududiy moliya organlari xalq ta'limi muassasalari bilan birgalikda xarajatlarni smetasi va shtat jadvallarini ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, shuningdek ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni hisoblash; g'aznachilik hududiy bo'linmalari bilan hamkorlikda xalq ta'limi muassasalarining topshiriqlari bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek ularning faoliyati bo'yicha hisob va hisobotlarni yuritish; xalq ta'limi muassasalarida budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni hamda budjet intizomiga rioya etishni, shu jumladan xalq ta'limi xodimlari mehnatiga xaq to'lashning takomillashtirilgan tizimi talablarini bajarishni ta'minlash; xalq ta'limi muassasalarining xarajatlarni smetasi doirasida xalq ta'limi muassasalarining buyurtmalariga muvofiq va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tovarlar xarid qilish va xizmatlar ko'rsatish uchun shartnomalar tuzish, shuningdek iste'mol limitlari va sarf-xarajat me'yorlariga rioya etilishini monitoring olib borish vazifasi va funksiyalari yuklatildi.

Albatta, bu qabul qilingan Farmon umumta'lim muassasalarini moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Umumta'lim tizimini tubdan yaxshilash, zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv-moddiy bazasini shakllantirish uchun 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi qabul qilindi va amalga oshirish belgilandi. Mazkur Dasturda umumta'lim tizimini yaxshilashning quyidagi yo'nalishlari belgilangan:

- umumta'lim maktablari binolarini va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini tubdan yangilash va kapital rekonstruktsiya qilish;

- maktablarni zamonaviy o'quv va o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar bilan jihozlash;

- ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish;

- umumta'lim maktablarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash;

- o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, ular mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish;

- umumta'lim maktablari sport bazasini mustahkamlash va ularda sportni rivojlantirish.

Budjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasi:

budjet mablag'larini hamda yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag'larini, xorijiy kreditlar va grantlarni ularni keyinchalik ulardan 2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini ro'yobga chiqarishda maqsadli foydalanish uchun jamlash.

Maktab ta'limini rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan buzib tashlanadigan maktablar o'rniga yangi maktablar qurish, maktablarni mukammal rekonstruktsiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash, ularni o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, maktab partalari va mebellar, sport anjomlari bilan jihozlash hajmlarini moliyalashtirish asosiy vazifalari etib belgilandi.

Jamg'arma mablag'lari Jamg'armaning budjetdan tashqari maxsus hisob raqamida jamlanadi hamda hududiy moliya organlarining budjetdan tashqari maxsus hisob raqamlari bo'yicha taqsimlanadi.

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan %lar sifatida olinadigan daromadlarga daromad (foyda) solig'i solinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi 2005 yildan boshlab va keyingi yillarda Davlat budjeti parametrlarida Maktab ta'limini rivojlantirish dasturiga muvofiq tadbirlarni bajarishga zarur mablag'larni, ushbu maqsadlar uchun jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar, grantlar va homiylik mablag'larini hisobga olgan holda, alohida satrda nazarda tutilgan.

Budjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasi mablag'lari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sarflanadi:

a) O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligidagi Jamg'armaning maxsus hisob raqamlaridan Maktab ta'limini rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha har yili tasdiqlanadigan xarajatlar prognozidan kelib chiqib quyi budjetlarga maqsadli subvensiyalarga;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahridagi Jamg'armaning maxsus hisob raqamlaridan: namunaviy loyihalardan foydalanilgan holda loyiha-smeta hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda faqat tasdiqlangan manzilli ro'yxatlarga muvofiq buzib tashlanadigan maktablar o'rniga yangi maktablar qurishni, maktablarni mukammal rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlashni moliyalashtirishga; maktablarni zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlashga;

partalar va maktab mebellari sotib olishga;

maktablarni sport anjomlari bilan jihozlashga;

quyi budjetlarga maqsadli subvensiyalarga;

v) tumanlar va shaharlardagi jamg'armaning maxsus hisob raqamlaridan umumta'lim maktablarini joriy ta'mirlashga sarflanadi.

Umumta'lim maktablariga Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli Qaroriga muvofiq tashkil etilgan budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armalari mablag'laridan Dasturni amalga oshirishda foydalanishga ruxsat beriladi.

Budjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasi mablag'laridan tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi asosida tanlov savdolari (tenderlar) asosida va maktablar qurish, ularni mukammal rekonstruktsiya qilish va mukammal ta'mirlashni tashkil etish tartibiga muvofiq buzib tashlanadigan maktablar o'rniga yangi maktablar qurish, ularni mukammal rekonstruktsiya qilish va mukammal ta'mirlashni moliyalashtirish uchun foydalaniladi.

8.3. Sog'liqni saqlash muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish

Sog'liqni saqlash muassasalari xarajatlari smetalarini tuzishda tarmoq ko'rsatkichlari, joylarning (koyka) o'rtacha yillik soni, joy-kunlar soni, xodimlarning xo'jalik-boshqaruv va tibbiy lavozimlarining o'rtacha yillik soni, poliklinika binolarining miqdori va sog'liqni saqlash muassasasining har bir bo'limlari ish hajmini belgilovchi boshqa ko'rsatkichlar hisob-kitobidan boshlanadi.

Sanab o'tilgan ko'rsatkichlar ichida joylarning (koyka) o'rtacha yillik soni katta ahamiyatga ega bo'lib quyidagi formula yordamida topiladi:

$$K_{yp} = K_{\sigma} + \frac{(K_o - K_{\sigma}) \times n}{12};$$

bunda, K_{ur} – joylarning o'rtacha yillik soni;

K_b – yil boshidagi joylar soni;

K_o – yil boshidagi joylar soni;

n – yangi ishga tushgan joylarning faoliyat ko'rsatish oylari soni;

Hozirgi vaqtda sog'liqni saqlash tizimida ish haqi to'lashning quyidagi usullari mavjud:

1. Tarif stavkalari bo'yicha ish haqi;
2. Qo'shimcha to'lovlar va mukofotlar;
3. Gonorar shaklidagi to'lovlar.

Tarif stavkalari bo'yicha ish haqi to'lash xodimlarning ish haqisi yagona tarif stavkasi va lavozimiga bog'liq belgilanadi.

Qo'shimcha to'lovlar va mukofotlar xodimga qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mukofotlar hisoblanadi.

Gonorar shaklida to'lovlar vrach tomonidan bajarilgan aniq ishlar uchun ma'lum haq to'lashni o'rnatishni nazarda tutadi. Bu to'lov muayyan xizmatlar uchun ham (tashrif yoki tashrif qismlari – ko'rik, dori qog'ozi yozib berish, maslahat, operatsiya), tugallangan davolash uchun ham to'lanishi mumkin. Asosan yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lashda qo'llaniladi.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirishning amaldagi tizimini yanada takomillashtirish, ular mehnatiga haq to'lash miqdorlarining bajarilayotgan ishlarning murakkabligi va yuklamasi darajasiga,

ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatiga bog'liqligini kuchaytirish, shuningdek tibbiyot xodimlarining kasb darajasi va malakasini uzluksiz oshirib borishlari uchun rag'batlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 - dekabrda "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 276 sonli qarori qabul qilindi.

Sog'liqni saqlash muassasalarida ish haqini hisoblash xususiyati shundan iboratki sog'liqni saqlash muassasalari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

I guruh. Ambulatoriya – poliklenika muassasalari, sanitariya – epidemiologiya nazorati xizmati va boshqa muassasalar.

II guruh. Umumiy profili statsionar tibbiyot muassasalari va boshqalar.

III guruh. Ihtisoslashtirilgan statsionar muassasalar.

IV guruh. Shoshilinch va tez tibbiy yordam markazlari, tez yordam stantsiyalari.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining tarif stavkalari tarif setkasi asosida ish haqining belgilangan eng kam oylik miqdorini mehnatga haq to'lash bo'yicha tegishli guruhlariga kiritilgan sog'liqni saqlash muassasalari xodimlari uchun belgilangan tarif setkasining tegishli razryadi tarif koeffitsientiga va tuzatish koeffitsientiga ko'paytirish yo'li bilan belgilanadi.

Tuzatish koeffitsientlari quyidagi sog'liqni saqlash muassasalari guruhlari bo'yicha belgilanadi:

- muassasalarning 1-guruhi uchun – tegishli razryad tarif stavkasiga 1,0 tuzatish koeffitsienti;

- muassasalarning 2-guruhi uchun – tegishli razryad tarif stavkasiga 1,03 tuzatish koeffitsienti;

- muassasalarning 3-guruhi uchun – tegishli razryad tarif stavkasiga 1,05 tuzatish koeffitsienti;

- muassasalarning 4-guruhi uchun – tegishli razryad tarif stavkasiga 1,15 tuzatish koeffitsienti.

Ish haqi miqdorlarini belgilash barcha hollarda asosiy, o'rindoshlik va o'rnini bosadigan lavozimlar (ishlar turi) bo'yicha amalga oshiriladi.

Sog'liq uchun xavfli va mehnat sharoitlari o'ta xavfli bo'lganligi munosabati bilan ularda ishlash xodimlar tarif stavkalariga qo'shimcha to'lov belgilash huquqini beradigan muassasalar va ularning bo'linmalari, shuningdek lavozimlari quyidagicha ajratiladi:

I bo‘lim. Sog‘liq uchun xavfli va mehnat sharoitlari og‘ir bo‘lgan, ularda ishlash xodimlarning tarif stavkasiga 15 % miqdorida qo‘shimcha to‘lov belgilash huquqini beradigan muassasalar, bo‘linmalar.

II bo‘lim. Ularda ishlash sxemali lavozim (oylik) maoshlari (stavkalari)ni 15-25 % ga oshirish huquqini beradigan muassasalar va ularning bo‘linmalari.

III bo‘lim. Ularda ishlash sxemali lavozim (oylik) maoshlar (stavkalar)ni 25 % ga oshirish huquqini beradigan, sog‘liq uchun o‘ta xavfli va mehnat sharoitlari o‘ta og‘ir bo‘lgan muassasalar, bo‘linmalar va lavozimlar.

IV bo‘lim. Ularda ishlash sxemali lavozim (oylik) maoshlarini (stavkalarini) 30 % ga oshirish huquqini beradigan, sog‘liq uchun o‘ta xavfli va mehnat sharoitlari o‘ta og‘ir muassasalar, bo‘linmalar va lavozimlar.

V bo‘lim. Ushbu ro‘yxatning I va III bo‘limlarida nazarda tutilgan ikki va undan ko‘p asoslar bo‘yicha sxemali lavozim maoshlarini 40 % ga oshirish huquqini beradigan sharoitlar mavjudligi munosabati bilan ularda ishlash sxemali lavozim (oylik) maoshlarini (stavkalarini) oshirish huquqini beradigan muassasalar, bo‘linmalar va lavozimlar.

VI bo‘lim. Ularda ishlash sxemali lavozim (oylik) maoshlarini (stavkalarini) 35 % ga oshirish huquqini beradigan muassasalar va ularning bo‘linmalari.

VII bo‘lim. Ularda ishlash sxemali lavozim (oylik) maoshlarini (stavkalarini) 60 % ga oshirish huquqini beradigan, OITSGa chalingan bemorlarni davolash uchun mo‘ljallangan muassasalar va ularning bo‘linmalari.

VIII bo‘lim. Ularda ishlash har bir ish soati uchun soatbay tarif stavkasini (maoshini) 50 % ga oshirish huquqini beradigan, OITSGa va OIV infeksiyasiga chalingan bemorlar bilan bevosita kontaktda bo‘ladigan sog‘liqni saqlash muassasalari va ularning tarkibiy bo‘linmalari.

Tibbiyot muassasasining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi. O‘zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2005 yil 1 dekabrda “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi RQ-229-sonli Qaroriga muvofiq 2006 yil 1 yanvardan boshlab lavozimlar va malaka toifalari bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari, shuningdek ularga tuzatish koeffitsientlar

oʻrnatilgan holda muassasalar guruhlari boʻyicha tibbiyot xodimlari mehnatiga haq toʻlashning takomillashtirilgan tizimi joriy etilishi bilan qator tibbiyot muassasalarini rivojlantirish jamgʻarmasi negizida Tibbiyot muassasalarini moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi tashkil etildi.

Mazkur Jamgʻarmani shakllantirish manbalari tibbiyot muassasasi uchun ajratiladigan budget mablagʻlari umumiy hajmining 5 % igacha boʻlgan qismi, homiy va donor tashkilotlardan, shuningdek pulli davolash va xizmatlardan tushadigan mablagʻlar, tibbiyot xodimlari mehnatiga haq toʻlashda tejalgan budget mablagʻlari hisoblanadi. Jamgʻarma mablagʻlari tibbiyot xodimlarini moddiy ragʻbatlantirish uchun hamda muassasaning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, modernizatsiya qilish va taʼmirlash uchun sarflanadi. Jamgʻarma mablagʻlari tibbiyot muassasalari guruhlari boʻyicha quyidagicha taqsimlanadi:

13 - jadval

Tibbiyot muassasasining moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari taqsimlash shartlari

Xarajatlar yoʻnalishi	I guruh muassasalar	II guruh muassasalar	III guruh muassasalar	IV guruh muassasalar
Xodimlarni moddiy ragʻbatlantirish	25% dan ortiq boʻlmagan	35% dan ortiq boʻlmagan	40% dan ortiq boʻlmagan	50% dan ortiq boʻlmagan
Moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, modernizatsiya qilish va taʼmirlash	kamida 75%	kamida 65%	kamida 60%	kamida 50%

Tejalgan mablagʻlar mavjud boʻlgan taqdirda ushbu mablagʻlar xodimlarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi boʻyicha toʻlanmagan nafaqalarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilishi mumkin.

Tibbiyot xodimlarining ishga vijdonan munosabati va koʻrsatayotgan tibbiy yordamning yuqori sifati uchun tarif stavkalariga oylik ustamalar tegishli xodimning tarif stavkasidan 5 dan 20 % gacha miqdorda belgilanadi.

Oylik ustamalar xodimlarning lavozimiga va tibbiyot muassasalari guruhiga qarab belgilanishi

Lavozimlar nomi	I guruh muassasalar	II guruh muassasalar	III guruh muassasalar	IV guruh muassasalar
Kichik tibbiyot xodimlari	5-15 %	5-15 %	5-15 %	10-20 %
O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari	10-15 %	10-15 %	10-15 %	10-20 %
Vrach xodimlar va provizorlar	10-15 %	10-15 %	10-20 %	10-20 %

Tibbiyot xodimlari uchun ustamalar belgilash ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning sifati, mehnat bilan bandligi, ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning murakkabligi, ixtisoslik tarmog'ida ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning o'xshashi yo'qligi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Sog'liqni saqlash muassasalarida 4 guruh xarajatlarini rejalashtirish boshqa budjet tashkilotlaridan farqli tomonlari mavjud. Chunki, bu tashkilotlarda ovqatlanish xarajatlari va dori-darmonga sarflanadigan xarajatlar mavjud.

Sog'liqni saqlash muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan tashkilotlarning ayrim turlari uchun belgilangan ovqatlanish me'yorlari ovqatlanish kunining sonidan kelib chiqib hisoblanadi, dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar esa qonun hujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab: statsionarlarda - har bir joy-kunga, shifoxonalarda - shifokorga har bir kirishga belgilanadi. Sog'liqni saqlash muassasalari davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagicha moliyalashtiriladi:

1. Respublika darajasidagi barcha muassasalar — kasalxonalar, tashxis qo'yish markazlari, ilmiy - tadqiqot institutlari, OO'Yulari va boshqalar o'zlarining joriy xarajatlarini (ish haqi, kommunal va xizmat safari xarajatlari, dori - darmon, muolaja materiallari olish, joriy ta'mirlash va boshqalar) va kapital xarajatlarini Respublika Sog'liqni saqlash Vazirligi ixtiyoriga beriladigan respublika budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Viloyat, shahar va tuman darajasidagi sog'liqni saqlash

muassasalari (viloyat, shahar poliklinikalari, dispanserlar, tuman markaziy kasalxonasi) barcha joriy xarajatlari mahalliy budjetlardan va kapital xarajatlari respublika budjetidan moliyalashtiriladi.

Mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan barcha qishloq tibbiy muassasalari tuman markaziy kasalxonasiga bo'ysunadilar va tuman markaziy kasalxonasiga ajratilgan mablag'larning bir qismi sifatida mablag' oladilar.

Sog'liqni saqlash muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi «Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori asosida belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlanadi.

Yuridik shaxs maqomini olgan muassasalarni moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish va pullik xizmatlardan tushgan daromadlar;
- vaqtincha foydalanilmayotgan mol-mulk va binolarni boshqa ijaraga berishdan tushgan daromadlar;
- homiylar (beg'araz) yordamlari hisobidan tushgan mablag'lar.

Qo'shimcha daromadlar hisobidan shakllantirilgan budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining kreditorlik qarzlarni to'lagandan so'ng qolgan mablag'larining kamida 50 % i moddiy texnik bazani mustahkamlashga, 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda sog'liqni saqlash muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoyalash va moddiy rag'batlantirishga sarflanadi.

Qisqacha xulosalar

Davlat budjetining ijtimoiy soha xarajatlari ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari xarajatlaridan tashkil topadi. Bu xarajatlar tarkibida ta'lim sohasi va sog'liqni saqlash xarajatlari asosiy ulushini tashkil etadi. O'z navbatida ta'lim sohasi maktabgacha tarbiya, umumta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalari xarajatlaridan iborat.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida xarajatlar smetalarini tuzishda maktabgacha muassasaning tipiga, guruhlarning soni, haftadagi va kundagi faoliyat davomiyligi, kunlik ovqatlanish me'yorlari, ota-onalarning to'lovlari e'tiborga olinadi.

Umumta'lim muassasalarida tarmoq ko'rsatkichlariga o'quvchilarning o'rtacha yillik soni, maktabdagi sinflarning o'rtacha soni,

sinflarning to'liqligi kiradi. Umumta'lim muassasalarida asosiy xarajatlarni ish haqi xarajatlari tashkil etadi. Rahbar xodimlar ish haqilarining o'rtacha kontingentiga qarab muassasalari guruhlariga bo'yicha belgilanadi. O'qituvchilarning ish haqilari bazaviy tarif stavkasi bo'yicha va ish haqilarga ustmalar va qo'shimchalardan iborat. Qo'shimcha ustamalar budjet mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan Direktor jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi. Umumta'lim muassasalarini moliyalashtirishning asosiy manbasi mahalliy budjet mablag'lari hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash muassasalari tarmoq ko'rsatkichlari joylarning (koyka) o'rtacha yillik soni, joy-kunlar soni, xodimlarning xo'jalik-boshqaruv va tibbiy lavozimlarining o'rtacha yillik soni, poliklinika binolarining miqdori va sog'liqni saqlash muassasasining har bir bo'limlari ish hajmini belgilovchi boshqa ko'rsatkichlar hisoblanadi. Sog'liqni saqlash muassasalarida asosiy xarajatlar ish haqi, dori-darmonlar va oziq-ovqat xarajatlari tashkil etiladi. Ish haqilar miqdori ishning turiga, sharoitiga, ish vaqtiga, muassasalarning turlariga qarab belgilanadi. Ish haqilarga qo'shimcha ustamalar va sog'liqni saqlash muassasasini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun Tibbiyot muassasasini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi. Dori-darmon va ovqatlanish xarajatlari belgilangan me'yorlar asosida aniqlanadi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish davlat budjeti va qo'shimcha budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlari smetasini tuzishda qanday ko'rsatkichlarga asoslanadi?

2. Maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlarini shtat birligini aniqlash qanday tartibda amalga oshiriladi?

3. Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlari smetasini tuzishda nimalarga e'tibor berishi kerak?

4. Umumta'lim muassasalari xarajatlari smetasini tuzishda nimalarga e'tibor beriladi?

5. Umumta'lim muassasalari xodimlari ish haqilari qanday tartibda belgilanadi?

6. O'qituvchilarning ish haqilari qanday aniqlanadi?

7. O'qituvchilarning ish haqilariga qo'shimcha qanday ustamalar belgilanishi mumkin?

8. Direktor jamg'armasining shakllanish manbasi va mablag'larining sarflanish yo'nalishlarini tushuntirib bering.

9. Umumta'lim muassasalarini moliyalashtirish tartibi qanday?

10. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasining shakllanish manbasi va mablag'larining sarflanishi yo'nalishlarini tushuntirib bering?

11. Sog'liqni saqlash muassasalari xarajatlari boshqa muassasalar xarajatlaridan farqini tushuntirib bering?

12. Sog'liqni saqlash muassasalari xodimlari ish haqilarini belgilash tartibini tushuntiring?

13. Sog'liqni saqlash muassasalari qanday guruhlariga ajratiladi?

14. Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish tartibini tashintiring?

15. Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?

16. Budjetdan normativli moliyalashtirish deganda nimani tushunasiz?

17. Normativlar turlarini ko'rsatib o'ting va normativlar kimlar tomonidan ishlab chiqiladi?

18. Qaysi tashkilotlarga yuridik shaxs maqomi berilishi mumkin va nima uchun yuridik shaxs maqomi beriladi?

19. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi manbalarini ko'rsatib uting.

20. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari nimalarga sarflanadi?

Asosiy adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston, 2015 y.

- O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar

strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

- Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

- G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Baktria press”, 2016 y. -168 b.

- T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69 b.

-Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

- Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).
- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
- www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
- www.ziynet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

IX BOB. IJTIMOIIY TA'MINOT VA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH XARAJATLARI

9.1. Ijtimoiy ta'minot xarajatlari

Ijtimoiy iste'mol jamg'armasi va budjet mablag'larini sarflashning ustuvor yo'nalishlaridan biri mehnatga qobiliyati bo'lmagan va qarigan fuqarolarni saqlash, aholining ayrim qatlamlariga (yolg'iz onalarga, boquvchisini yo'qotgan oilalarga, ko'p bolali oilalarga va boshqalarga) moddiy yordam ko'rsatish hisoblanadi.

Fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilayotgan mablag'larining hajmi mamlakat iqtisodiy rivojlanishi darajasiga va moddiy ishlab chiqarish sohasi holatiga bog'liq. Aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan jamg'armani shakllantirish manbasi mehnatga qobiliyatli faqarolar tomonidan yaratilgan va budjet tizimi va budjetdan tashqari fondlar orqali qayta taqsimlashdan o'tgan milliy daromad hisoblanadi.

Davlat budjetiga va budjetdan tashqari fondlarga jalb qilinayotgan pul mablag'lari davlat tomonidan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya vazifalarini amalga oshirishda 03.09.1993 yilda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun, 1992 yil 13 - yanvarda qabul qilingan "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar, ushbu qonunlar asosida qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lashga yo'naltiriladigan mablag'larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek budjetdan tashqari Rensiya jamg'armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Rensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Rensiya jamg'armasiga aylantirildi.

Budjetdan tashqari Rensiya jamg'armasi mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar yuridik shaxslar ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdori, alohida yuridik shaxslardan ijtimoiy

sug'urtaga badallar, yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning ijtimoiy sug'urtaga badallari, fuqarolarning ish haqidan sug'urta badallari, yuridik shaxslarning tovar aylanmasi va sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) hajmidan ajratmalar va boshqa to'lovlar hisobiga shakllantiriladi.

Bundan tashqari Rensiya jamg'armasi daromadlari mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga: pensiya to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish bepuvchilap va fuqapoldan undiriladigan mablag'lap; muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari; imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lari; dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy ravishda to'lanadigan sug'urta badallari; hisoblangan jarimalar summalarining bir qismi, qonun hujjatlariga muvofiq soliq organlarini rivojlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalardan tashqari, majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar; korxonaga tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga uchragan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar va boshqa ixtiyoriy badallar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga shakllantiriladi.

Hozirgi kunda yuridik shaxslar ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lovning 23.5 % i, yuridik shaxslarning tovar aylanmasi va sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi, belgilangan soliqqa tortish ob'ektlarining 0.7 % i miqdorida, fuqarolarning ish haqidan – 2.5 % i miqdorida belgilangan.

Rensiya jamg'armasi mablag'lari: a) ishlaydigan fuqarolarga: - ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadigan pensiyalar; - bolalikdan nogironlarga, davlat pensiya ta'minoti olish huquqiga ega bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar; -qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan boshqa kompensatsiya to'lovlari to'lash uchun; b) ishlaydigan

fuqarolarga: -ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadigan pensiyalar; - homiladorlik va tug'ish nafaqalari; -bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar; - dafn marosimi nafaqalari; - 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda bir qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar; -boshqa kompensatsiya to'lovlari uchun sarflanadi.

2009 yili budjetdan tashqari Rensiya jamg'armasi mablag'lari daromadlari 3707500,0 mlrd. so'm va xarajatlari 4352031,0 mlrd. so'm miqdorida tasdiqlangan.

Budjetdan tashqari Rensiya jamg'armasining mablag'lari 89-90 % i ishlamaydigan fuqarolarga pensiyalar, 4-5 % i ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, 1-1,5 kommunal to'lovlar uchun pul kompensatsiyalari, 3-3,5 % i homiladorlik va tug'ish nafaqalari uchun sarflanmoqda.

Aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish hamda mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) bo'limlarining samarali faoliyat ko'rsatishi tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi tashkil etilgan.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasining asosiy vazifalari:

- ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafolatlarini amalga oshirish;

- mehnat bo'limlari ta'minotini moliyalashtirish;

- tijorat banklarida kredit liniyalari ochish yo'li bilan ish o'rinlarini saqlab qolish va yangi ish o'rinlari tashkil etish uchun kreditlar berish;

- fuqarolarni ishga joylashtirish, mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, sotsiologik kuzatuvlar o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash hisblanadi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari:

- korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ish haqi fondidan majburiy ajratmalari; (yagona ijtimoiy to'lovning tarkibida)

- respublika va mahalliy budjet mablag'laridan dotatsiyalar;

- joylardagi mehnat organlari tomonidan belgilangan tartibda solinadigan moliyaviy sanksiyalar va qo'shilgan penyalar summasi;

- qo‘shimcha va yangi ish o‘rinlari yaratish uchun kichik biznes sub’ektlarini kreditlash uchun tijorat banklari tomonidan ochilgan kredit liniyalaridan %lar;

- yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari va boshqa tushumlar hisobiga shakllantiriladi.

Ish bilan ta’minlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga quyidagilar amalga oshiriladi:- ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari bo‘yicha xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlash; - ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, kompensatsiyalar to‘lash va ishsizlarga moddiy yordam berish; - ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli budjetdan tashqari Rensiya jamg‘armasi xarajatlarini qoplash; - haq to‘lanadigan jamoat ishlarini belgilangan tartibda mablag‘ bilan ta’minlash; - nogironlar va fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlari (ishlab chiqarishlar) tashkil etish tadbirlarini mablag‘ bilan qisman ta’minlash; - mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarini saqlash; - ish bilan band bo‘lmagan aholiga yordam ko‘rsatish, shu jumladan ishga joylashtirishga ko‘maklashish va maslahat xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlash; - ish bilan ta’minlash jamg‘armasi mablag‘larini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan, aholini ish bilan ta’minlashga bevosita ko‘maklashuvchi tijorat va xo‘jalik hisobidagi faoliyatni amalga oshirish, mulkchilik va xo‘jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalar tashkil etish; - tijorat banklari tomonidan ochiladigan kredit liniyalari orqali xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga, shu jumladan kichik biznes sub’ektlariga, dehqon va fermer xo‘jaliklariga, oilaviy tadbirkorlik sub’ektlariga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lov, ta’minlash va qaytarish shartlarida yangi ish o‘rinlari yaratish uchun qisqa muddatli va o‘rta muddatli kreditlar berish va hoqazolar.

Shakllantirilgan ish bilan ta’minlash jamg‘armasi mablag‘larining 70 % Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari ixtiyorida qoladi,

keyinchalik tumanlar va shaharlar o'rtasida taqsimlanadi, 30 % i respublika darajasida markazlashtiriladi.

Ijtimoiy ta'minot mablag'lari maqsadli mablag'larning manzilligini ta'minlash maqsadida joylardagi tegishli mahalliy organlar orqali, ijtimoiy ta'minot bo'limlari orqali etkaziladi.

Hozirgi kunda Respublikamizda ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshilash maqsadida joylarda "Mahalla" jamg'armalari, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari, ya'ni mahalla fuqarolar yig'inlari, ijtimoiy ta'minot bo'limlari ish olib boradi.

Ijtimoiy himoya sifatida aholiga ajratiladigan xarajatlar tegishli ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan rejalashtiriladi. Rensiya jamg'armasi xarajatlari jamlangan budjet xarajatlari jamisiga nisbatan oladigan bo'lsak, 23-24 % ini tashkil etadi.

Davlat budjeti tarkibida alohida ijtimoiy ta'minot xarajatlari ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan 0,8-1,0 % ini tashkil etadi. Kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga moddiy yordam xarajatlari 10-12 % ini tashkil etadi.

9.2. Aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari

Ijtimoiy siyosat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonuniy hujjatlar bilan belgilab quyilgan fuqarolarning ijtimoiy huquq va kafolatlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2007 yil «Ijtimoiy himoya yili» deb e'lon qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, turmush darajasini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasi bo'ldi.

«Ijtimoiy himoya yili» Davlat Dasturida aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlashga qaratilgan quyidagi vazifalarni amalga oshirish ustuvor yo'nalish qilib belgilangan.

- aholi nochor qatlamlarining turli toifalariga, birinchi galda yolg'iz keksa fuqarolar, nogironlar, boquvchisini yo'qotgan balog'atga etmagan bolalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam normalari va stavkalarini maqbullashtirish;

- keksalar va nogironlar uylarini, bolalar uylarini hamda kasalliklarga chalingan bolalar uchun internatlarni, urush va mehnat

faxriylari uchun davolash muassasalarini ta'minlashga sarflanadigan Me'yoriy moddiy xarajatlar miqdorini maqbullashtirish;

- 2 yoshgacha bolalari bo'lgan onalarga, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga mahalla ko'mitalari tomonidan ko'rsatiladigan moddiy yordam va ijtimoiy miqdorlarini qayta ko'rib chiqish;

- «Mehribonlik» uylari va maxsus maktab-internatlarning moddiy-texnika bazasini mustaxhamlash, boquvchisiz qolgan bolalarga e'tiborni yanada kuchaytirish, «Sen yolg'iz emassan» insonparvarlik shiorini hayotga amaliy joriy etilishini ta'minlash;

- aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish, nochor oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga aniq va samarali ijtimoiy yordam ko'rsatishni oshirish, ularning ehtiyojlarini yanada to'liq qondirilishini ta'minlash, ularga moddiy yordam va ma'naviy madad ko'rsatish, aholini ijtimoiy ko'llab-kuvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda mahallaning rolini kuchaytirish;

8. «Mehribonlik», «Saxovat» va «Muruvvat» uylarining ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va munosib baholash mexanizmini anada takomillashtirish;

- yoshlarning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish, yosh oilalar mustaqil hayotga qadam ko'yishida ularni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish yo'li bilan ko'llab-kuvvatlash, yosh oilalarga imtiyozli kreditlar berish.

Mamlakatimiz Rrezidenti tomonidan 2007 yil 19 dekabrda qabul qilingan «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'lib aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ko'llab-kuvvatlash qaratilgan islohotlarning davomi hisoblanadi. Mazkur farmon aholini ijtimoiy himoya qilish yanada kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarni zarur moddiy yordam ko'rsatish orqali ko'llab-kuvvatlashni ta'minlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va haq to'lash mexanizmini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan.

Bu tadbirlarni amalga oshirishga davlat budjeti hisobidan 31,5 mlrd. so'm mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

Ijtimoiy himoya yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish faoliyatida qanday qatnashishga qaramasdan, aholining ma'lum tabaqalarini turmush darajasini yaxshilash amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda respublikamizda ijtimoiy yordamning quyidagi turlari ko'rsatilmoqda:

1. Bolali oilalarga nafaqalar: - homiladorlik va tug'ruq bo'yicha nafaqa;

• bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa; - bola 2 yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun beriladigan nafaqa; - Voyaga etmagan bolalari bor oilalarga nafaqa.

2. Ijtimoiy nafaqalar: - tug'ma nogironlar va boshqa toifalardagi nogironlarga; - ish staji yo'q qariyalarga; - boquvchisini yo'qotgan oilalarga.

3. Ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlash: - qariyalar va nogironlar uylari; - mehribonlik uylari - kasalmand bolalar uchun internatlar.

4. Turli imtiyozlar: - bepul va arzonlashtirilgan narxda transport vositalari va nogironlar aravachalari berish; - sanatoriy-kurort yo'llanmalari bilan ta'minlash; - protezlash; - kommunal xizmatlar uchun to'lovlar va soliqqa doir imtiyozlar.

5. Kam ta'minlanganlik bo'yicha nafaqalar: - ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirishning asosiy manbai davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalar hisoblanadi.

Davlat budjeti mablag'lari hisobidan: - bolali oilalarga nafaqalar; - keksalar va nogironlar uyidagilarni boqish va xizmat ko'rsatish; - nogironlarni mehnatga o'rgatish, ishga joylash, protez qo'yish; - Chernobil' AESdagi falokatda qatnashganlarga, nogironlarga moddiy yordam beriladi.

Bolalar uchun beriladigan nafaqalarni moliyalashtirish davlat budjeti mablag'lari hisobidan, shuningdek mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, muassasa va tashkilotlarining mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mahalla tizimi orqali budjetdan moliyalashtirish quyidagi asosiy ijtimoiy qo'llab-quvvatlash turlari amalga oshiriladi: kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar, bola ikki yoshga etgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqalar, voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, to'liq davlat ta'minotidagi etim bolalar va ota-ona qarovsiz qolgan bolalar pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar.

Kam taminlangan oilalarga beriladigan nafaqalar har oylik moddiy yordam oilaga 3 (uch) oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi. Kam taminlangan oilalarga beriladigan nafaqalar respublika budjeti mablag'lari, mahalliy (viloyat, shahar va tumanlar) budjet mablag'lari va budjetdan tashqari turli manbalar (jamoat va xayriya jamg'armalari, korxonalar va xo'jaliklarning mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy xayriyalar va boshqalar) mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Mablag'lar qishloq, ovul yoki mahalla fuqarolari o'zini - o'zi boshqarish organlarining jamg'arma bankining tegishli muassasalaridagi maxsus schyotlariga o'tkaziladi va olib qo'yilmaydi.

Har oylik moddiy yordam miqdori amaldagi eng ish haqining 1,5 dan 3 baravarigacha miqdorida belgilanadi. Moddiy yordam to'lash muddati tugaganda, yordam ko'rsatilayotgan oilaning moddiy ahvoli o'zgarganda yoki doimiy yashash joyi o'zgargan hollarda moddiy yordam to'lash to'xtatiladi.

Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga etgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqalar mahalliy budjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Ular davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi "250" bo'limi, "5" paragrafi, "03" xarajatlar turi, "4" ob'ekti, "25" kichik ob'ekti bo'yicha aks ettiriladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan quyidagilarga tayinlanadi:

- ishlamaydigan onalarga yoki ular o'rnini bosadigan shaxslarga (odatda ota, o'g'il qilib oluvchi, vasiy yoki boshqa qarindoshlarga);
- ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o'rta maxsus va o'rta hunar o'quv yurtlarida pulli-kontrakt asosida o'qiydigan onalar yoki ular o'rnini bosadigan shaxslarga;
- yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi onalarga (ona o'rnini bosadigan shaxslarga), shuningdek faoliyatni yuridik shaxsni tashkil etmasdan amalga oshiradigan dehqon xo'jaliklari a'zolariga.

Bolani parvarish qilish nafaqasi har oyda, parvarish qilinadigan bolalar sonidan va mazkur nafaqani oladigan shaxsning mehnat stajidan qat'i nazar amaldagi eng kam ish haqining 200 % i miqdorida to'lanadi.

Ishlayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqa budjet tashkilotlarida (muassasalarida) ishlayotgan (ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotgan, bunga

pullik-kontrakt asosida o'qiyotganlar kiritilmaydi, xizmatni o'tayotgan) onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslar) uchun budjet hisobidan amalga oshiriladi. Bu xarajatlar davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi xarajatlar turi "03", hisobi "4", analitik hisobi "20"da ko'rsatiladi. Mulkchilik shaklidan qat'i nazar boshqa korxonalarda (tashkilotlarda) ishlayotgan onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslarga) uchun ushbu korxonalarining (tashkilotlarning) o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha onalarga beriladigan nafaqalar parvarish kilinayotgan bola ikki yoshga to'lganda, bola ixtisoslashtirilgan muassasaga (go'daklar uyiga) to'liq davlat ta'minotiga joylashtirilganda, bola vafot etganda, oila, bola bilan birgalikda, doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasi xududidan tashqariga chiqib ketgan hollarda to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi 1996 yil 10 dekabrda RF-1657-sonli va "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida" 2002 yil 25 yanvardagi RF-3107-sonli Farmonlariga muvofiq 16 yoshgacha bolalari bo'lgan, shuningdek umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa beriladi.

Voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa ushbu nafaqani olishga muhtoj bo'lgan, tug'ilgan, bolalikka va homiylikka (vasiylikka) olingan 16 yoshgacha ("umumta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha") bolalari bo'lgan oilalarga beriladi.

Voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa:

-bir bolali oilalar uchun - eng kam oylik ish haqining 50 % i miqdorida;

-ikki bolali oilalar uchun - 100 % i miqdorida;

-uch bolali oilalar uchun - 140 % i miqdorida;

-to'rt va undan ko'p bolali oilalar uchun - 175 % i miqdorida belgilanadi.

Nogiron bolali oilalar; ota-onaning ikkalasi ham bo'lmagan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug'ullanishadigan oilalar; bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;

ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lgan, mehnat birjasida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar nafaqalar olishda imtiyozli huquqqa ega.

Voyaga etmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar respublika budjeti va mahalliy budjetlar mablag'lari hamda budjetdan tashqari manbalar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Respublikamizda to'liq davlat ta'minotidagi etim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar pul nafaqalari hamda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar, shuningdek transportda yurish kartochkalari bilan ta'minlanadi.

To'liq davlat ta'minotidagi etim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ularga barcha turdagi umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotganda va ishga joylashayotganda kiyim-bosh, poyabzal va anjomlar sotib olish uchun nafaqalar amaldagi eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorida, eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravarigacha miqdorda pul nafaqasi ham beriladi.

Nafaqalar ta'lim muassasalarining bitiruvchisiga ta'lim muassasasini bitirib ishga joylashayotganida bir marta beriladi. Agar ushbu muassasalarning tarbiyalanuvchisi 9-sinfni bitirib, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejiga, 11-sinfni bitirib, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirsa, unda bitiruvchi har ikki nafaqani ushbu ta'lim muassasasida o'qishni tugatgandan so'ng shu muassasalardan oladi. To'lanadigan nafaqalar va pul nafaqalari uchun qilinadigan xarajatlar miqdori ular tarbiyalanayotgan ta'lim muassasalarining yoki o'qishni davom ettirayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning xarajatlar smetasida budjet xarajatlari iqtisodiy tasnifi bo'yicha 03-4-90-modda "Uy xo'jaliklariga boshqa transfertlar" moddasi bo'yicha aks ettiriladi.

Mehribonlik uylari va maktab-internatlarda tarbiyalanayotgan, umumta'lim maktablari, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o'qiyotgan to'liq davlat ta'minotidagi etim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar o'qiydigan ta'lim muassasasi yashash joyidan 3 kilometrdan ziyod masofada joylashgan bo'lsa, ular jamoat transporti va o'quvchilar uchun transportda imtiyozli yurish kartochkalari muomalada bo'lgan shahar va aholi punktlarida imtiyozli transportda yurish kartochkalari yoki transportda imtiyozli yurish huquqini beruvchi boshqa turdagi kartochka beriladi.

Qisqacha xulosalar

Ijtimoiy ta'minot va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari davlatning ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq. Ijtimoiy ta'minot va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari davlat budjeti, budjetdan tashqari maqsadli fondlar va boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi. Ijtimoiy nafaqalar ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan va ishlayotgan shaxslarga esa ish joyidan tayinlanadi. Ijtimoiy nafaqalar davlat tomonidan kafolatlangan bo'lib uning quyidagi turlari mavjud: yoshiga doir pensiyalar, kompensatsiyalar, nogironlarga beriladigan nafaqalar, kam ta'minlangan oylalarga nafaqalar, bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar, bola 2 yoshgacha beriladigan nafaqa, voyaga etmagan bolalari bor oylalarga nafaqalar, etim bolalarga beriladigan nafaqalar va imtiyozlar va boshqalar.

Hozirgi kunda Respublikamizda aholini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi qator organlar faoliyat ko'samoqda. Jumladan, "Mahalla" jamg'armasi, "Nuroniylar" jamg'armasi, «Mehribonlik», «Saxovat» va «Muruvvat» uylari va boshqalar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya siyosatining mazmunini tushuntirib bering?
2. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya xarajatlarini moliyalashtirish manbalarini ko'rsating?
3. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyaning qanday turlari mavjud?
4. Budjetdan tashqari Rensiya jamg'armasining daromadlari manbalari va xarajatlari yo'nalishlarini tushuntiring?
5. Budjetdan tashqari Ish bilan ta'minlash jamg'armasi daromadlari manbalari va xarajatlari yo'nalishlarini tushuntiring?
6. Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy ta'minot va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari turlarini sanab bering?
7. «Ijtimoiy himoya yili» Davlat Dasturida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan?
8. Kam ta'minlangan oylalarga nafaqalarning tayinlanish tartibini tushuntiring.

9. Voyaga etmagan bolalari bor oylalarga beriladigan nafaqalarning tayinlanish tartibini tushuntiring.

10. Bola 2 yoshga etkunga qadar beriladigan nafaqaning tayinlanish tartibini tushuntiring.

Asosiy adabiyotlar

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.

- O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

- Malikov.T.S. Budget soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

- G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 b.

- T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

- Islamkulov A.X. Turli darajadagi budget daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

- Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).
- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
- www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
- www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i)

X BOB. DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY MAQSADLARDAGI XARAJATLARI

10.1. Davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlarining yuqori darajasi sharoitida iqtisodiyotning real sektori, noishlab chiqarish sohalarining rivojlanishiga muvofiq budjet-soliq tizimini optimallashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni davlat budjeti orqali boshqarish tamoyillari va mexanizmini takomillashtirilib borishni taqozo qiladi. Keyingi yillarda yuqori darajadagi investitsion og'irlik mavjudligiga qaramasdan (2006 yil markazlashtirilgan investitsiyalar YaIMga nisbatan 7 %), iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi noishlab chiqarish sohalarini budjet tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi qisqartirilib bormoqda.

Rejali iqtisodiyotga asoslangan tizimda moddiy ishlab chiqarish sohasidagi xo'jalik sub'ektlari asosan davlat mulkchiligiga asoslangan edi. Shuning uchun ham ittifoq budjeti xarajatlari tarkibida iqtisodiyotni qo'llab quvvatlash xarajatlari asosiy salmoqni tashkil etgan edi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moddiy ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining aksariyati xususiylashtirildi. Natijada ularni davlat budjetidan moliyalashtirish tizimidan moliyaviy resurslarni shakllantirishda o'z-o'zini moliyalashtirish va kreditlash printsiplariga o'tildi. Davlat budjeti xarajatlarining asosiy salmog'i ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Shu bilan birga davlat budjetidan iqtisodiyotni qo'llab- quvvatlash xarajatlari ham oz bo'lsada saqlanib qolmoqda. Bu holat quyidagilar bilan belgilanadi.

- iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlar va investitsion siyosatni jonlantirishda davlatning bosh islohotchilik vazifasini barjarishi;

- iqtisodiyotdagi davlat sektorining mavjud bo'lishi.

- iqtisodiyotning ayrim tarmoqlaridagi ishlab chiqarilgan asosiy mahsulotga nisbatan davlat buyurtmalarining mavjudligi (qishloq va suv xo'jligini tizimi);

- xususiylashtiridan keyingi qo'llab quvvatlash tizimining amal qilishi va boshqalar.

Hozirgi vaqtda kapital qo'yilmalar asosan maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Ishlab chiqarish sohasini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimi iqtisodiy asoslangan loyihalarni moliyalashtirish uchun asosan qaytarib berish shartlari asosida amalga oshirilmoqda.

10.2. Davlat budjetining iqtisodiyotni qo'llab quvvatlash xarajatlarini tahlili

Davlat budjetining iqtisodiyotni rivojlantirish xarajatlari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadlardan biri, aholining turmush farovonligini oshirishdan iborat ekanligi, budjet hisobidan iqtisodiyotni rivojlantirish xarajatlarini amalga oshirishni taqozo qiladi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan 2003-2005 yillarda iqtisodiyotni rivojlantirish xarajatlarini ko'rib chiqamiz.

15 – jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan 2018-2020 yillarda iqtisodiyot uchun sarflanayotgan mablag'lar (mlrd.so'm hisobida)

Xarajat turlari	2018 y.		2019 y.		2020 y.	
	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%
Maqsadli jamg'armalarsiz xarajatlar, jami	7353,1	100	10913,0	100	13732,5	100
Iqtisodiyot xarajatlari	933,3	12,6	1305,7	11,9	1573,2	11,5
Jumladan:						
Qishloq va so'v xo'jaligi vazirligi so'v xo'jaligi tashkilotirining elektr energiyadan foydalanganligi uchun to'lovlar	408,4	43,7	545,6	41,8	547,9	34,8
Moliya vazirligi qoshidagi so'g'oriladigan erlarninig meliorativlik holatini yaxshilash jamg'armasiga yo'naltiriladigan mablag'lar	75,0	8,0	130,0	9,9	150,0	9,5
Davlat extiyojlari uchun past unumdorli yerlarda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarayotgan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar	60,0	6,4	120,0	9,2	130,0	8,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumoti

Keltirib o‘tilgan jadvalda ko‘rsatilishicha, iqtisodiyot uchun qilingan sarflar 2018 yilda 933,3 mlrd. so‘mni tashkil etgani holda, 2018 yilda 545,6 mlrd. so‘m, 2020 yilda esa 1573,2 mlrd. so‘mdan iborat bo‘lishi rejalashtirilgan.

Davlat budjetining iqtisodiyot taraqqiyotidagi salmog‘ini belgilab beruvchi ko‘rsatkichlardan yana biri, - davlat tomonidan iqtisodiyotga qilinayotgan investitsiyalar va xarajatlardan iborat.

Markazlashgan investitsiyalarning kamayib borishi esa, iqtisodiyotga davlatning aralashuvining kamayib borayotganligini, iqtisodiyotdagi investitsiyalar asosan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar mablag‘lari va aholining bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilish hisobidan amalga oshirilishi ko‘zda tutilganligini bildiradi.

Yuqoridagi fikrimizning dalili sifatida yurtboshimiz I.A. Karimovning 2003 yilda mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2004 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi “Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo‘lidan izchil borish asosiy vazifamiz” nomli ma‘ruzasidan quyidagi jummalarni keltirib o‘tgan: “Har tomonlama puxta o‘ylangan, faol olib borilayotgan investitsiya siyosati iqtisodiyotimizdagi barqarorlik, tarkibiy va sifat o‘zgarishlarini belgilovchi muhim omil bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi, o‘tgan yillarda bo‘lganidek, O‘zbekistonimizning jahon bozorida munosib o‘rin egallashida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini, shuningdek ijtimoiy soha, avvalambor, ta‘lim va tibbiyot sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlat yuyudjetidan iqtisodiyot tarmoqlariga 2019 yilda 820 mlrd. So‘m mablag‘ ajratilishi rkjalashtirildi. Davlat budjetidan investitsiya jarayonlariga yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida ma‘lumot quyidagi jadvalda keltirilgan.

Investitsiya manbalarining tarkibi ham o‘zgardi - iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida markazlashgan sarmoyalar hajmining kamayib borishi ob‘ektiv holatga aylandi.

Ayni vaqtda korxonalarining o‘z mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning bu boradagi ulushi ortib bormoqda.

2019 yilda davlat budjetidan 500 mlrd. soʻmdan ortiq mablagʻlar tijorat banklari ustav jamgʻarmalarini va kredit resurslarini koʻpaytirishga yoʻnaltirish orqali banklar tomonidan eksport qiluvchi korxonalariga, aylanma mablagʻlarini toʻldirish uchun imtiyozli kreditlar ajratishga yoʻnaltirildi.

Qisqacha xulosalar

Davlat budjetidan iqtisodiyotni qoʻllab quvvatlash xarajatlarining zarurligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bunday omillar asosan iqtisodiyotdagi davlat sektorining mavjud boʻlishi, tarkibiy islohotlar va investitsiya siyosatida davlatning bosh islohotchilik rolini oʻynashi va boshqa qator omillar bilan belginadi.

Keyingi yillarda davlat budjetidan iqtisodiyotni qoʻllab quvvatlash xarajatlari qisqarib bormoqda. Bu xususiylashtirishning jadallashuvi, iqtisodiyotga davlatning aralashuvini qisqarishi va boshqa omillar bilan bogʻliq.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjetining iqtisodiyotni qoʻllab quvvatlash xarajatlarining zarurligi nimalardan iborat?
2. Markazlashtirilgan investitsiyalar xarajatlari qaysi budjetdan moliyalashtiriladi?
3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlat budjetidan iqtisodiyotni qoʻllab quvvatlash xarajatlarining amaldagi xolatini tushuntiring.

Asosiy adabiyotlar

- Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: Oʻzbekiston, 2015 y.

- Oʻzbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil oʻzgartirish va qoʻshimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

- Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. OʻRQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq soʻzi, 2017-y.,

28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

- Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

- G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 b.

- T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

- Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

- Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).
- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
- www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
- www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

XI BOB. DAVLAT BUDJETINING DAVLAT HOKIMIYATI, BOSHQARUVI, SUD, PROKURATURA ORGANLARINI SAQLASH XARAJATLARI

11.1. Davlat budjetining davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasi boshqaruv orgalari tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi barcha organlarning hamda barcha darajadagi sud, prokuratura organlarining yig‘indisidan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati tizimidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi va u ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Rrezidenti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha oliy sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudidan, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo‘jalik sudlaridan iborat.

Boshqaruv xarajatlari - davlat o‘z funksiyalari bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan sarflarni aks ettirishi iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, respublika va mahalliy budjetlar doirasida amalga oshiriladi. Boshqarish xarajatlarinig iqtisodiy mohiyati turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, ya‘ni har bir xarajat o‘zining sifat va miqdoriy ifodasiga egadir.

Boshqaruv xarajatlarining sifat ifodasi - xarajatlarning iqtisodiy tabiati va iqtisodiy vazifasini o‘rganishga imkon bersa, miqdoriy ifodasi ularning hajmini aniqlash imkonini beradi. Jamiyatning

iqtisodiy hayotida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning roli oshishi budjetda boshqarish xarajatlarining turli ko‘rinishlarida bo‘lishini asoslaydi. Bu esa, o‘z navbatida, qator omillar bilan bog‘liqdir. Bu omillar jumlasiga qo‘yidagilar kiradi; - davlatning vazifalari; - mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; - davlatning ma‘muriy-hududiy tuzilishi; - Budjet mablag‘larini ajratish shakllari; - boshqaruv organlarida ishlovchilar soni va boshqalar.

Ushbu omillarni muvofiqlashtirish davlat rivojining har bir bosqichida iqtisodiy ehtiyojlari, mamlakatning boshqarish darajasi va ko‘rinishlariga mos kelishi boshqarish xarajatlari tizimini keltirib chiqaradi.

Boshqaruv samaradorigi boshqaruv organlarida qancha odam ishlayotgani yoki boshqaruvni amalga oshirish uchun qancha mablag‘ ajratgan bilangina xarakterlanmay balki uning qanchaliq samarali faoliyat ko‘rsatayotganligi, oldiga qo‘ygan vazifalarni qanchalik darajada bajarilishi bilan xarakterlidir.

Boshqaruv apparati soni va uning ta‘minotini xarajatlari qisqarishi ma‘muriy islohotlarning amaliy natijasi bo‘ldi. Bu ma‘muriy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri edi. Bu xarajatlarni takomillashtirish va qisqartirishda, o‘z navbatida korxonalar va aholining soliq yukini kamaytirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari boshqaruv xodimlarining qisqartirilishi natijasida ularning soni har ming kishiga 6,1 kishini tashkil etadi yoki aholi mehnat bilan band qismining 1,6 % idan oshmaydi. Bu MDHning boshqa mamlakatlaridagidan ancha kam. Taqqoslash uchun qo‘yidaga jadvalni keltirishimiz mumkin.

**Mehnatga layoqatli yoshdagi va ish bilan band aholi tarkibida
boshqaruv xodimlarining solishtirma salmog‘i ¹²**

Mamlakatlar	Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari boshqaruv xodimlari soni, ming kishi	Har 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan boshqaruv xodimlari soni	Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonida boshqaruv xodimlari solishtirma salmog‘i, % hisobida	Band aholining sonida boshqaruv xodimlar solishtirma salmog‘i, % hisobida
Ozarbayjon	265,3	32,3	6,0	7,1
Armaniston	25,8	8,1	1,2	2,3
Belarus	147,6	14,9	2,7	3,4
Gruziya	76,7	16,3	2,3	4,2
Qozog‘iston	280,4	19,2	3,4	4,0
Qirg‘iziston	66,3	13,3	2,6	3,6
Moldova	66,0	15,3	3,4	4,4
Rossiya	3223,3	22,1	3,9	4,9
Ukraina	956,8	20,0	3,5	4,5
O‘zbekiston	155,8	6,1	1,3	1,6

Jadval ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Qozog‘istonda – har ming kishiga 19,2 kishi va aholi mehnat bilan band qismining 3,4 % i, Ukrainada – 20 va 4,5, Rossiyada – 22,1 va 3,9.

Masalan: Rossiyada davlat apparatining ortiqcha vazifalarini qisqartirish bo‘yicha sa’y-harakatlariga qaramay davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini - o‘zi boshqaruv organlari xodimlari soni so‘nggi uch yilda 1141 mingdan 1259 mingga ko‘paydi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida davlat budjeti xarajatlari tarkibida, shu jumladan boshqaruv xarajatlari tarkibida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Davlat budjetidan 2001 yil hamda 2002 yillarda boshqaruvga qilingan xarajatlar, 2003 yil uchun rejalashtirilgan xarajatlar miqdori va ularning umumxarajat tarkibidagi salmog‘ini tahlil qilib chiqamiz.

¹² “Ma’muriy islohot – iqtisodiy taraqqiyot omili”. Soliq va bojxona xabarlari, 2004 y. 16 mart 11(503) – son, 3 b.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarida boshqaruv xarajatlari salmog‘i (mlrd. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2011 y	2014 y	2018 y	2019 y	2020 y.
Xarajatlar jami	1210,3	2743,2	8197	10762	13733
Sh.j. Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud, prokuratura organlari xarajati	22,0	54,0	206	273	352
Umumxara-jatda salmog‘i (%)	1,8	1,9	2,5	2,5	2,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma‘lumoti

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki respublika bo‘yicha 2001 yil umumiy xarajatlar 1210345,7 ming so‘m bo‘lib, shundan 22000,0 ming so‘mi boshqaruvga sarflangan. Bu umumiy xarajatning 1,8 % ini tashkil etgan.

2009 yili 2,5 % ni tashkil etgan va 2010 yili 2,6 % qilib belgilangan.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda davlat umumiy xarajatlaridan boshqaruvga qilinayotgan xarajatlar AQShda 1,3 % ni, Yaponiyada 10,8 % ni, Germaniyada 5 % ni, Frantsiyada 13,9 % ni, Rossiyada esa 11,6 % ni tashkil qiladi.

Mahalliy budjetdan mahalliy hokimlik organlari boshqarish xarajatlari (o‘z-o‘zini boshqaruv organlari), ya’ni qishloq fuqarolari yig‘inlari boshqaruvi, mahalla komitetlarini saqlash kabi xarajatlar amalga oshiriladi.

11.2. Huquqni himoya qiluvchi, sud va adliya organlarini moliyalashtirish

Boshqaruv xarajatlari tarkibi quyidagicha guruhlariga bo‘linadi:

1. Markaziy hokimiyat organlari va boshqaruv tarkibiga qilinadigan xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish faoliyati sohasini boshqaruvchi organlar xarajati;

3. Boshqaruv apparatining ijtimoiy soha bilan shug'ullanuvchi organi xarajati;

4. Sud, prokuratura va adliya organi xarajatlari;

5. Huquq tartibot organlari xarajati.

Boshqarish xarajatlarida O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari ancha salmoqqa ega bo'lib, bu xarajatlar Moliya Vazirligi boshqaruv xarajatlarini moliyalashtirish departamentida budjet hisobining 209-bo'limida alohida xarajat moddalari bo'yicha xarajatlar ko'rsatilgan bo'lib, shunga asosan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati va prokuratura, huquqni himoya qilish organlarini saqlash xarajatlari, mazkur sohadagi quyidagi tarmoq tarkibiy tuzilishlari bo'yicha amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik Sudi;
- Qaroqalpog'iston Respublikasi Oliy Sudi;
- viloyat, tuman va shahar sudlari;
- davlat notorial idoralari;
- respublika prokuratura organlari.
- IIV organlari.

Mazkur soha boshqaruvi organlarini xarajatlari to'lig'icha respublika budjeti tomonidan moliyalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi organlari, Respublika Rrezidenti Apparati va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari asosiy qismi respublika budjeti hisobidan amalga oshiriladi, qisman qismi mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladi va respublika budjeti xarajat qismida alohida bobda aks ettirilib boriladi.

Boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari uchunchi tarkibiy qismda Respublikamiz boshqaruv organlari asosiy qismi o'z aksini topadi. Bunda Respublika Vazirlar Mahkamasi barcha Vazirliklar, Davlat qo'mitalari, Respublika Saylov uchastkasi, Respublika Vazirlar Mahkamasi avtoxo'jaligi, Respublika Rrezidenti Devoni, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi ma'muriy binolaridan foydalanish boshqaruvi xarajatlari, shuningdek, Respublika budjetdan moliyalashtiriladigan Qo'mita va Markazlar hamda boshqa shu kabi davlat boshqaruvi

organlarini saqlash xarajatlari tashkil qiladi, bu xarajatlar Respublika budjetidan moliyalashtiriladi.

Rrokuratura organlarining moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti respublika budjeti mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat notarial idoralari vazifasi jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini notariuslar tomonidan qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan himoya qilishni ta'minlashdan iboratdir. Davlat notarial idoralari O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusning notarial harakatlarni amalga oshirganlik hamda huquqiy va texnik tUSDagi xizmatlar ko'rsatganlik uchun olgan pul mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa moliyaviy tushumlari uning faoliyatini mablag' bilan ta'minlash manbai hisoblanadi.

Notarial idoralar qo'shimcha o'zlarining budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalariga ham ega. Notarial harakatlar sodir etilganligi uchun notarial idoralar tomonidan undiriladigan davlat bojining 15 % i miqdoridagi ajratma to'g'ridan - to'g'ri budjetdan mablag' bilan ta'minlash o'rniga davlat notarial idoralari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash manbai etib belgilangan. Bunda undiriladigan davlat bojlari: 70 % i - mahalliy budjetlarga; 15 % i - Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini shakllantirishga; 15 % i - mablag'larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya Vazirligi viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining maxsus hisob raqamlariga to'plash yo'li bilan davlat notarial idoralari faoliyatini mablag' bilan ta'minlashga taqsimlanadi.

Sudlar va adliya organlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, ular faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 18 - martdagi Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi qaroriga muvofiq yagona Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

Jamg'arma daromadlari:

- davlat budjetiga umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha jarimalar va davlat bojlari to'lashdan tushayotgan summalarning 20 % i;

- davlat budjetiga xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha davlat bojlari va jarima sanksiyalarini to'lashdan tushayotgan summalarning 15 % i;

- adliya organlari, shu jumladan Fuqarorlik holatini dalolatnomalarni yozish (FHDYo) organlari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan 20 %, davlat notariuslari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan 15 % ;

- adliya organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarni, advokatlik byurolarini, firmalarni, hay'atlarni, xususiy notarial idoralarni ro'yxatdan o'tkazganlik, notarial va advokatlik faoliyatini litsenziyalaganlik, yuridik kadrlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazganlik uchun undiriladigan mablag'lar, shuningdek adliya organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida undiriladigan jarimalar;

- ijro ishi bo'yicha budjetga undirilgan summadan 30 % miqdoridagi ajratmalar, soliqlar hamda budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzlarni undirilishi bunga kiritilmaydi;

- davlat daromadiga o'tkazilgan mol - mulkni sotishdan tushadigan mablag'larning 10 % i va boshqa daromadlar.

Jamg'armaning mablag'lari birinchi galda umumiy yurisdiksiya sudlari binolarini qurish va ta'mirlash, ularni zarur anjomlar, kompyuterlar va boshqa zamonaviy tashkiliy - texnika vositalari bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. Shuningdek qo'shimcha:

1) xo'jalik sudlarini va adliya organlarini, shu jumladan notariatni, FHDYOni va sud ijrochilarini moddiy-texnik ta'minlashga;

2) sudlar va adliya organlari xodimlariga malaka klasslari, darajalari va muayyan vaqt davomida ishlaganligi uchun ustama va qo'shimcha haq to'lashga, ularning malakasini oshirishga, kadrlarni o'qitishga;

3) sudlar va adliya organlari xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishga;

4) sudlar va adliya organlari faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqa tadbirlarga yo'naltiriladi.

Ichki ishlar vazirligi va uning quyi organlari, bo‘linmalari, muassasalari va tashkilotlari respublika va mahalliy budjetlar mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlari tomonidan avtomototransport vositalarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun undiriladigan summaning 85 % i mahalliy budjetlarga, qolgan 15 % i O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining hisob raqamiga o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining markaziy apparati va ichki ishlar organlarini saqlashga ajratiladigan mablag‘lar miqdori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik markaziy apparatining tarkibi, shtatlari, xodimlarining moddiy - texnik va ijtimoiy - maishiy ta‘minoti, shuningdek ichki ishlar organlarining tarkibi va shtatlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan ularning soni va ularni saqlashga ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilanadi.

Adliya organlari va muassasalarini moddiy - texnik ta‘minlash, shuningdek adliya tizimining xodimlari mehnatiga haq to‘lash Vazirlikka ajratiladigan mablag‘ doirasida davlat budjeti hamda Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Sudyalarning ish haqi lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko‘p yillik xizmati uchun to‘lanadigan ustama haqlardan iborat. Sudyalarning hayoti va sog‘lig‘i davlatning maxsus muhofazasida bo‘ladi hamda respublika budjeti mablag‘lari hisobidan davlat tomonidan majburiy tartibda sug‘urta qilinadi.

Quyidagi ko‘rilgan zararni qoplash bo‘yicha to‘lovlar respublika budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilib, keyinchalik ular aybdor shaxslardan qonunda belgilangan tartibda undirib olinadi:

- sudya o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbga doir faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo‘lib qolsa, yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha shikast etkazilganida sudyaning yigirma besh oylik ish haqi miqdorida;

- sudya o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kasbga doir faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini istisno etmaydigan va mehnat qobiliyatining doimiy yo‘qolishiga olib kelmaydigan tan

jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilganida sudyaning besh oylik ish haqi miqdorida;

sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan kelgusida kasbga doir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini istisno etadigan darajada mayib bo'lib qolganida yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilganida majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha olingan to'lovlarni hisobga olmagan holda unga ish haqi va tayin etilgan pensiya o'rtasidagi farq har oyda to'lab boriladi;

sudya o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan tan jarohatlari yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilishi oqibatida halok bo'lsa (vafot etsa), uning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga sudya ish haqining ularning hissasiga to'g'ri keladigan qismi va boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan ularga tayinlangan pensiya o'rtasidagi farq har oyda, majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha olingan to'lovlarni hisobga olmagan holda to'lanadi;

sudyaning o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan unga tegishli mol - mulkni yo'q qilish yoki shikastlash oqibatida etkazilgan zarar sudyaga yoki uning oila a'zolariga to'laligicha qoplanadi.

Sudlarni moliyalash, ularning moddiy - texnika va o'zga xil ta'minoti, binolarini qo'riqlash va saqlab turish respublika budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Ajratilgan mablag'lar: Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi maxsus vakolatli organ tomonidan, harbiy sudlar uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari uchun tegishlincha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi tomonidan taqsimlanadi.

Xo'jalik sudlari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi tomonidan tashkiliy va moddiy-texnika jihatidan ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy sudning ishi respublika budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Konstitutsiyaviy sud sudyasining ish haqi lavozim maoshidan, malaka darajasi, ko'p yillik xizmati uchun to'lanadigan ustama haqlardan iborat bo'ladi.

11.3. Davlat budjetining mudofaa xarajatlari

Mudofaa tizimi har bir davlatlarda mavjud bo'lib, davlatlarning siyosiy daxlsizligi, barqarorligi ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mudofaa tizimini moliyalashtirish xarajatlari budjet xarajatlari ichida eng uzun tarixga ega bo'lib, budjetni shakllantirish zaruriyatlari ham aynan davlatlarning harbiy askarlarni saqlash va harbiy xarajatlar bo'yicha davlatlarning moliyaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Mudofaa xarajatlari quyidagi turkumlarga ajratiladi:

1. Mudofaga qilingan to'g'ri xarajatlar: a) qurollanish va mudofaa tizimini moddiy texnik ta'minlash xarajatlari; b) shaxsiy qurolli kuchlar tarkibini saqlash xarajatlari; v) harbiy ob'ektlarni qurish xarajatlari;

g) harbiy tekshiruvlar va tadqiqotlar uchun xarajatlar.

2. Mudofaaga qilingan egri xarajatlar: a) davlat qarzlari bo'yicha to'lovlar eng avval qarz harbiy xarajatlarning o'sib borishi hisobiga ko'payadi; b) vayronagarchiliklarni qayta tiklash uchun xarajatlar, iqtisodiyotni tinch rivojlanish yo'liga o'tkazish; v) urush qatnashchilariga nafaqa va pensiya to'lash; g) kontributsiya va repatriatsiya to'lash.

3. Yashirin xarajatlar: fuqarolar vedomosti smetasi bo'yicha o'tuvchi, harbiy xarakterga ega xarajatlar.

Qisqacha xulosalar

Davlat hokimiyati, boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri respublika va mahalliy budjetlar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi. Davlat boshqaruvi xarajatlarning hajmi davlatning boshqaruv tuzilmasiga, davlat funksiyalariga, boshqaruv sohasidagi xodimlarning soniga bog'liq. Boshqaruv sohasi xarajatlari ish haqi, ish haqiga qo'shimchalar, xizmat safari xarajatlari, kommunal xizmatlar xarajatlari, telefon kommunikatsiyasi va informatsion xizmatlar xarajatlari, texnikalar, asbob-uskanalar va boshqa joriy maqsaddagi xarajatlardan iborat.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat hokimiyati, boshqaruvi organlari xarajatlari qaysi budjet hisobidan moliyalashtiriladi?

2. Davlat hokimiyati, boshqaruvi organlari xarajatlari tarkibi nimalari bilan farq qiladi?

3. Sud va adliya organlarini mablag‘ bilan ta‘minlashning qanday qo‘shimcha manbalari mavjud?

4. Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasi manbalariga nimalar kiradi?

5. Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasi qaysi xarajat turlariga sarflanadi?

6. Ichki ishlar vazirligi va uning quyi organlari qaysi budjet mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi?

7. Ichki ishlar vazirligining markaziy apparati va ichki ishlar organlarini saqlashga ajratiladigan mablag‘lar miqdori qaysi organ tomonidan tasdiqlanadi?

8. Mudofaa xarajatlari tarkibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.

- O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

- O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018y., 03/18/476/1087-son.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

- Malikov.T.S. Budjet soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

- G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 b.

- T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

-Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A.. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

-Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

– www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
– www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).

– www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
– www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);

– www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
– www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).

– www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).

– www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).

– www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

IV BO‘LIM. BYUDJET JARAYONI VA BYUDJET IJROSINING G‘AZNACHILIK TIZIMI

XII BOB. BYUDJET JARAYONI VA UNING BOSQICHLARI

12.1. Budget jarayonining asosiy vazifalari

Budget jarayoni - davlat budgetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budgeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayon.

Budget jarayonining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

➤ muvozanatlangan bozorga kirib borish yo‘lida muhim taraqqiyotga erishish maqsadlarida iloji boricha ko‘proq moddiy va moliyaviy zaxiralarni izlab topish;

➤ budget daromadlarini alohida soliqlar va boshqa to‘lovlar, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning prognozlari va maqsadli dasturlariga muvofiq holda umumiy hajmi bo‘yicha belgilash;

➤ budget xarajatlarini mo‘ljallangan vazifalar bo‘yicha, shuningdek budgetning umumiy hajmini nazarda tutilgan umumdavlat ahamiyatiga molik jami tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda belgilash;

➤ budgetni iqtisodiyotdagi inflyatsiya tendentsiyalarini bartaraf etish va milliy pul tizimning barqarorligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan umumiy moliyaviy barqarorlashtirish dasturi bilan muvofiqlashtirish;

➤ iqtisodiy maqbul manbalar hisobidan budget taqchilligini qisqartirish va tugatish;

➤ turli darajadagi budgetlarni balanslanishini ta‘minlash maqsadlarida davlat daromadlari manbalarini shu budgetlar o‘rtasida, shuningdek xo‘jalik sohalari va iqtisodiy mintaqalar o‘rtasida qayta taqsimlash yo‘li bilan budget boshqaruvini amalga oshirish;

➤ barcha yillik miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning mutanosibli va balanslanganligini ta‘minlash maqsadlarida istiqbolga mo‘ljallangan budgetni rejalashtirish prognozlash rolini oshirish;

➤ yuridik shaxslar va ayrim fuqarolarning o‘z soliq majburiyatlarini bajarishlarida ularning moliyaviy faoliyatini va daromadlari ustidan nazoratni kuchaytirish;

➤ elektron hisoblash texnikasidan keng foydalangan holda moliyaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirish tizimi orqali budjetlarni tuzish va uning ijrosi jarayonlarini avtomatlashtirish.

Budjet jarayonini tashkil qilishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: yagonalik - yagona huquqiy baza, yagona budjet tasnifi, O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti va xududlar budjetlarini tuzishda statistik axborot tuzish uchun zarur bo‘lgan budjet hujjatlari shaklining yagonaligi; har bir qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyat organi budjet jarayonining mustaqilligi o‘z daromad manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlarini belgilash huquqi bilan ta‘minlanadi; balans usuli – jami budjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasida, shuningdek natural va moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasida to‘g‘ri nisbatlarni belgilashdir.

Bu budjet barqarorligini ta‘minlashi hamda mablag‘larni xo‘jalik sohalari, iqtisodiy mintaqalar o‘rtasida taqsimlashda zarur proportsiyalarni yaratishi lozim. Uning muhim sharti - budjet xarajatlarining daromadlarga mos bo‘lishi, moliyaviy zaxiralar tashkil qilishdan iborat. Bu tamoyil butun moliyaviy siyosatning asosiy maqsadi hisoblanadi va davlat budjetini tashkil qiluvchi budjetlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda davlat daromadlarini aniq manbalar bo‘yicha va xarajatlarni yo‘naltirish (moddalar) bo‘yicha rejalashtirish, davlat budjeti xarajatlarini Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun bilan belgilangan mablag‘lar doirasida sarflanishini amalga oshirishadi.

12.2. Davlat budjeti loyihasini tayyorlash

Budjet jarayoni hokimiyat organlarining budjetni tuzish, ko‘rib chiqish, bajarish bilan bog‘liq, qonun bilan tartibga solib turiladigan faoliyatidir. Budjetni tuzish va amalda bajarish ijro etuvchi hokimiyat tomonidan, uni tasdiqlash esa qonun chiqaruvchi organ tomonidan bajariladi.

Shaharlar va tumanlar hokimiyatlari (uning tarkibiga kiruvchilar) keyingi moliya yili uchun ko‘rsatilgan hududlar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Viloyatlar hokimiyati va Toshkent shahri hokimiyati qarorlari bilan aniqlangan budjet loyihalarini

kelishilgan muddatlarda (ammo yigirma beshinchi iyundan kechikmasdan) yuqori turuvchi moliya organlariga taqdim etadi.

Qoraqalpogiston Respublikasining Vazirliklari va boshqarmalari, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining bo'lim va boshqarmalari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining Respublika budjetidan, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlarining budjetidan mablag' oluvchilar Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya Vazirligiga, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlari moliya bo'limlariga kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, Viloyatlar hokimiyati va Toshkent shahri hokimiyati qarorlari bilan aniqlangan muddatlarda (ammo birinchi iyundan kechikmasdan) o'zlarining arizalarini topshiradilar. Shundan so'ng, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Viloyatlar hokimiyati va Toshkent shahri hokimiyati o'z hududlari bo'yicha budjet loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda (ammo birinchi iyuldan kechikmasdan) taqdim etadilar. Vazirliklar va Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'ini oluvchilar xuddi yuqoridagi ko'rishda o'z arizalarini taqdim etadilar. Moliya Vazirligi kerakli ma'lumotlarni va hujjatlarni talab qiladi va kelgusi moliya yili uchun joriy yilning 1 oktyabrigacha davlat budjetining loyahasini tuzadi.

12.3. Davlat budjeti loyahasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etilishi

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Davlat budjeti loyahasini budjet mablag'lari oluvchilar taqdim etgan buyurtmalarga va Davlat budjetining tuzilmasiga kiruvchi budjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasi:

1) budjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladigan Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini;

2) umumdavlat soliqlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlariga ajratmalar Me'yoriylari, shuningdek mazkur budjetlarning daromadlari, shu jumladan budjet dotatsiyalari va budjet subvensiyalari hamda xarajatlari miqdorlarini;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlarining aylanma kassa mablag‘i me‘yori miqdorlarini;

4) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg‘ar-masining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari zaxira jamg‘armalarining nazarda tutilmagan xarajatlarni qoplashga tegishli budjet mablag‘lari yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan doiradagi miqdorlarini;

5) Davlat budjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni moliyalashtirish manbalarini;

6) davlat ichki va tashqi qarzlarning, davlat tomonidan beriladigan kreditlar hamda kafolatli jamg‘armaning eng yuqori miqdorlarini o‘z ichiga oladi.

Kelgusi moliya yiliga mo‘ljallangan Davlat budjeti loyihasini tayyorlash jarayonini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi yoki uning topshirig‘iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi vakil qilingan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, shuningdek tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagilarni o‘z ichiga olgan budjetnoma loyihasini ishlab chiqadi va o‘n beshinchi sentyabrgacha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi;

- o‘tgan yilgi Davlat budjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobot va joriy yilgi Davlat budjetining kutilayotgan ijrosi bahosi;

- kelgusi yilga mo‘ljallangan Davlat budjeti loyihasini tuzishda asos bo‘lgan kelgusi yilning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari;

- mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo‘nalishlari loyihasi;

- mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo‘nalishlariga sharhlar;

- davlat ichki va tashqi qarzlari hamda ular bo‘yicha xarajatlar holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

- kelgusi moliya yiliga mo‘ljallangan Davlat budjeti loyihasi.

Budjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning o‘n beshinchi oktyabridan kechiktirmay

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritiladi. Davlat budjeti O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, raisi yoki uning topshirig‘iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri keyingi moliya yili uchun tuziladigan davlat budjeti loyihasini tayyorlash jarayonini muvofiqlashtiradi va nazoratini amalga oshiradi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, yoki uning topshirig‘iga ko‘ra Moliya Vazirligi birinchi noyabrdan kechiktirmasdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga keyingi moliya yili uchun budjet loyihasini taqdim etadi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan davlat budjeti loyihasini ko‘rib chiqish:

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat budjeti loyihasiga ilova qilingan budjet taqchilligini hisobga olgan holda davlat budjeti loyihasining daromadlar va xarajatlarning har qanday moddasini qaytadan ko‘rib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan xarajatlar moddasining oshirilishi boshqa xarajat moddalarining mos ravishda qisqarishini ko‘zda tutishi, yoki daromadlarning qisqarishi boshqa daromad moddalarining ortishini, yoki ma’lum xarajatlarning qisqarishini ko‘zda tutishi, yoki daromadlarning ortishiga asoslangan bo‘lishi kerak. Xuddi shunday daromad moddalarining qisqarishi boshqa daromad moddalarining ortishini, yoki ma’lum xarajatlarning qisqarishini ko‘zda tutishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi davlat budjeti qonuni tasdiqlangandan so‘ng uch kunlik muddat ichida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Vazirlar Kengashiga, Toshkent shahri va viloyatlar hokimiyatlariga ularning daromad va xarajatlari, shuningdek ularga Respublika budjeti tomonidan ajratiladigan budjet dotatsiya va subvensiyalarining hajmi to‘g‘risida ma’lumotni beradi. Shundan so‘ng Qoraqalpog‘iston Respublikasining Joqarg‘i Kengesi va Toshkent shahri, viloyatlar xalq deputatlari kengashi ikki xaftalik muddatda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti doirasida o‘z budjetlarni tasdiqlaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Joqarg‘i Kengesi va Toshkent shahar, viloyatlar xalq deputatlari uch kunlik muddat ichida shahar va tumanlar hokimiyatlar ular budjetining daromad va xarajatlari, shuningdek yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan dotatsiya va subvensiyalar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotni etkazadi.

Tasdiqlangan daromad va xarajatlarning hajmi bo'yicha ma'lumot berish.

Davlat budjeti haqidagi qonun qabul qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bir xaftalik muddat ichida tasdiqlangan daromadlar hajmi bo'yicha ma'lumotni beradi. O'n kunlik muddat ichida Moliya Vazirligi Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarni belgilangan daromad va xarajatlar hajmi bo'yicha ma'lumot beradi. Mahalliy darajadagi korxonalar va tashkilotlarga budjet daromad va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotni berish xuddi shu tarzda bir xaftalik muddat ichida amalga oshiriladi.

Har yili birinchi chorak davomida Moliya Vazirligi davlat budjeti ijrosi o'tgan moliya yilida davlat budjeti mablag'larini ishlatishi haqida hisobotlarni va barcha budjet mablag'i oluvchilardan va hududiy moliya organlaridan boshqa zarur ma'lumotlarni yig'adi.

Yig'ilgan hisobotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Markaziy Iqtisodiyot Vazirliklari va idoralari bilan hamkorlikda birinchi maygacha bo'lgan muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Respublikaning moliyaviy iqtisodiy holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari va kelgusi moliya yili uchun budjet-soliq siyosati to'g'risida nutq axborot taqdim qiladi.

O'tgan moliya yili uchun hisobotlarni tuzib bo'linishidan keyingi kelgusi yil budjeti loyihasini tuzish bo'yicha ishlar boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi har yili birinchi iyungacha budjet so'rovnomasini tayyorlaydi, u barcha budjet mablag'i oluvchilarga yuboriladi va ularni davlat budjetidan mablag' ajratilishi uchun asoslangan talabnoma taqdim qilish majburiyatini yuklaydi. Talabnoma tasdiqlangan shaklda tuziladi va budjet tasnifiga mos ravishda taqsimlab o'tiladi. Budjet so'rovnomasi yuqori idoradan quyiga qarab jo'natiladi. Budjet mablag'lariga talabnoma esa buning aksi tartibida jo'natiladi. Hududiy moliya organlariga taalluqli hududlarda joylashgan budjet mablag'lari oluvchilarning talabnomalari asosida yig'ma talabnoma tuzadilar va yuqori turuvchi moliya organiga jo'nata dilar.

Talabnomalar asosida taalluqli budjet mablag'lari oluvchilarning budjet loyihalari tuziladi. Budjet loyihalari quyi moliya organlari tomonidan yuqori moliya organlariga jo'natiladi. Ma'muriy hududlarning yig'ma budjeti loyihasi O'zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligiga ikkinchi yarim yillikning birinchi oyi yakunigacha yo'llanadi. Olingan budjet loyihalari asosida Moliya vazirligi budjet yo'llanmasi hamda kelgusi moliyaviy yil uchun davlat budjeti to'g'risidagi qonunni tayyorlaydi va ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kelgusi moliya yili uchun budjet yo'llanmasi O'zbekiston Respublasi Oliy Majlisga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi budjetning daromadlari va xarajatlarining istalgan moddasiga asosli ravishda o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan kelgusi moliya yili uchun davlat budjeti tasdiqlanganidan, o'z nisbatida hududiy ma'muriyatlar budjetlari mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri Xalq deputatlari qarori bilan tasdiqlanadi. Budjetni tasdiqlashdan keyin uni ijro qilish bo'yicha ishlar boshlanadi. Budjetni ijro qilish jarayonida budjet qonunchiligida belgilangan tartibda unga o'zgarishlar kiritilish mumkun.

Turli darajadagi budjetlarga daromadlarni o'z vaqtida va etarli miqdorda tushishiga Soliq qo'mitasi, Bojxona va boshqa organlar qonunchilikka asosan javobgar bo'ladilar. Budjet ijrosining borishi ustidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari nazorat olib boradilar.

Xulosa qilib shunday deyish mumkinki, budjetning mohiyati shundan iboratki, davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo mamlakat iqtisodini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilish, aholining turmush darajasini ko'tarish, ijtimoiy vazifalarni bajarish, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga qaratilib, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Bu umumdavlat xarajatlari budjet orqali moliyalashtiriladi. Budjetdan ajratiladigan mablag'lar olish uchun beriladigan buyurtma shakli va uni tuzish tartibini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi belgilaydi.

Kelgusi moliya yiliga budjetdan ajratiladigan mablag'lar olishga buyurtmalar beriladi:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetdan va mahalliy budjetlardan moliyalashtirilgan budjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan joriy yilning birinchi iyunidan kechiktirmay tegishli moliya organlariga.

2. Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan - joriy yilning birinchi iyulidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligiga taqdim etiladi.

3. Kelgusi moliya yiliga tegishli budjetlar loyihalari quyidagi tartibda taqdim etiladi: tumanlar va shaharlar hokimliklari moliya organlari tomonidan mahalliy hokimiyat vakillik organlari belgilangan tartibda va muddatlarda biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay yuqori moliya organlariga; O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi kelgusi moliya yiliga mo‘ljallangan Davlat budjeti loyihasini tayyorlaydi va joriy yilning 15 sentyabrigacha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Davlat budjeti loyihasini budjet mablag‘lari oluvchilar taqdim etgan buyurtmalari va Davlat budjetining tuzilmasiga kiruvchi budjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi.

Kelgusi moliya yiliga mo‘ljallangan Davlat budjeti loyihasi:

- budjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladigan Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini;

- umumdavlat soliqlaridan Qoraqalpogiston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlariga ajratmalar Me‘yoriylari, shuningdek mazkur budjetlarning daromadlari, shu jumladan, budjet dotatsiyalari va budjet subvensiyalari hamda xarajatlari miqdorlarini;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlarining aylanma kassa mablag‘i me‘yori miqdorlarini;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini zaxira jamg‘armasining, Qoraqalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari zaxira jamg‘armalarining nazarda tutilmagan xarajatlarini qoplashga tegishli budjet mablag‘lari yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan doiradagi miqdorlarini;

- Davlat budjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni moliyalashtirish manbalarini;

▪ Davlat ichki va tashqi qarzlari davlat tomonidan beriladigan kreditlar hamda kafolatli jamg'armaning eng yuqori miqdorini o'z ichiga oladi.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tayyorlash jarayonini muvofiqlashtirish va nazorat qilinishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi yoki uning topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, shuningdek tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagilarni o'z ichiga olgan budjetnoma loyihasini ishlab chiqadi va 15 - sentyabrgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilga yakunlarining prognoz bahosi;

- o'tgan yilgi Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot va joriy yilgi davlat budjetining kutilayotgan ijrosi bahosi;

- kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yilning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari;

- mamlakat budjeti va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlari loyihasi;

- mamlakat budjeti va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlariga sharhlar;

- davlat ichki va tashqi qarzlari hamda ular bo'yicha xarajatlar holati to'g'risida ma'lumotlar;

- kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, shuningdek tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagilarni o'z ichiga olgan budjetnoma loyihasini ishlab chiqadi va o'n beshinchi sentyabrgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi:

1) mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlari prognoz bahosi;

2) o'tgan yilgi Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot va joriy yilgi Davlat budjetining kutilayotgan ijrosi bahosi;

3) kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yilning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari;

4) mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlari loyihasi;

5) mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlariga sharhlar;

6) davlat ichki va tashqi qarzlari hamda ular bo'yicha xarajatlar holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

7) kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasi.

Budjetnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning o'n beshinchi oktyabridan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritiladi.

Budjetnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritiladi.

Davlat budjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadi.

Davlat budjetiga muvofiq:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari – Davlat budjeti qabul qilinganidan keyin ikki xaftalik muddat ichida tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi yuqori Kengashi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar budjetlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar budjetlari qabul qilinganidan keyin bir xaftalik muddat ichida tuman, shahar hokimiyat vakillik organlari tomonidan;

- Shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlari va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar budjetlari belgilangan muddatlarda mahalliy hokimiyat yuqori turuvchi vakillik organlari tomonidan qabul qilinadi.

Davlat budjeti daromadlari O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimidagi to'grisida" qonuni, soliq, bojxona to'g'risidagi qonun hujatlariga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq shakllantiriladi.

Davlat budjeti mablag'lari tasdiqlangan budjet ajratmalari doirasida, xarajatlar smetasiga muvofiq budjet mablag'larini oluvchilar tomonidan moliya yili davomida bosqichma-bosqich, muayyan davrga va tegishli summaga tayinlash sertifikatini rasmiylashtirish yo'li bilan: respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha -

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan; Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetdan yoki mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo‘yicha tegishli moliya organi tomonidan sarflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat budjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi budjetlarning qonun hujjatlarida belgilangan ko‘rsatkichlar doirasida bajarilishi uchun javobgardir. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari Davlat budjetining kassa ijrosini ta‘minlaydi. Banklar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining topshirig‘iga binoan Davlat budjetining kassa ijrosi operatsiyalarini bajaradi.

Budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari ularning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligida yoki uning hududiy bo‘linmalarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlaridagi budjetdan ajratilgan mablag‘lar qoldiqlari doirasida to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat budjeti ijrosini nazorat qilishda:

- turli darajadagi budjetlar ijrosi yakunlarini ko‘rib chiqadi;
- turli darajadagi budjetlarga mablag‘lar tushumi to‘g‘risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlardan axboratlar oladi;
- budjet mablag‘lari oluvchilaridan budjetdan ajratiladigan mablag‘larning tushumi va sarfi to‘g‘risida ma‘lumotlarni talab qilib oladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq banklaridan budjet mablag‘lari harakati to‘g‘risida ma‘lumotlar oladi;
- o‘z vakolatlari doirasida budjet mablag‘lari oluvchilarining moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat budjeti ijrosining O‘zbekiston Respublikasi Moliya

Vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi. Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga shu vazirlik belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan hamda mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan mablag'lari oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi belgilangan muddatlarda taqdim etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmay taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay taqdim etadi.

Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqori Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Nazorat iqtisodiy tizimning zarur elementi sifatida butun insoniyat tsivilizatsiyasi bilan birga rivojlanadi, evolutsion taraqqiyot va inqilobiy to'fonlar jarayonida, jamiyat iqtisodiy formatsiyasi, siyosiy tizimi, davlat va xo'jalik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov hokimiyati organlari almashinuvi jarayonida o'zgarib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va boshqa moliya organlari davlat budjeti ijrosi nazorat qilinishini amalga oshirishda. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va boshqa moliya organlari davlat budjeti ijrosi nazorat qilinishini amalga oshirish chog'ida: - turli darajadagi budjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi; - turli darajadagi budjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlardan axborotlar oladi; - budjet mablag'lari oluvchilardan budjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida ma'lumotlar

talab qilib oladi; - qonun hujjatlariga muvofiq banklardan budjet mablag'lari harakati to'g'risida ma'lumotlar oladi; - budjet mablag'lari oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyatini o'z vakolatlari doirasida taftish qiladi va tekshiruvdan o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat budjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

Qisqacha xulosalar

Budjet jarayoni davlat budjeti loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash, ijrosi va ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish va ko'rib chiqish, tadiqlash bosqichlarini o'z ichiga oluvchi jarayondir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Budjet jarayonining iqtisodiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Budjet jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
3. Byujet loyihasini tuzishda Moliya Vazirligining vakolatlarini tushuntirib bering?
4. Budjet jaryoanining asosiy vazifalarini tushutirib bering?
5. Davlat budjeti ijrosi nazorati tushuntrib bering?

Asosiy adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston, 2015 y.

- O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (2018 yil o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018y., 03/18/476/1087-son.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari

oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

- Malikov.T.S. Budget soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

- G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 b.

- T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69 b.

-Islamkulov A.X. Turli darajadagi budjet daromadlari/ Islamkulov A.X., Toshmatov Sh.A. - Toshkent : ILM-ZIYO, 2017. - 104 b.

-Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O'zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi).
- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)
- www.publicfinance.uz (O'zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi).
- www.ziynet.uz (O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

XIII BOB. BYUDJET IJROSI VA BYUDJET IJROSINING G‘AZNACHILIK TIZIMI

13.1. Davlat budjeti ijrosi

Budjet ijrosi deb - joriy budjet yili mobaynidagi kassa daromadlari va xarajatlarining barcha turlari tushuniladi.

Davlat budjeti ijrosi to‘g‘risida oylik, chorak va yillik hisobot tuziladi. Bu hisobotlar mahalliy budjetlar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya Vazirligi va mahalliy moliya organlari tomonidan tuziladi.

Oylik hisobot – O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan mahalliy budjetlar ijrosi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettiruvchi “Mahalliy budjet ijrosi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma” shakli (3-sonli shakl), mahalliy budjet ijrosi to‘g‘risidagi kodlashtirilgan hisobot shakli va mahalliy budjetning aniqlangan rejasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettiruvchi ma‘lumotnoma asosida amalga oshiriladi.

Budjet ijrosi to‘g‘risidagi oylik hisobot qisqa bo‘lib, unda budjetning daromadlari va xarajatlari ijrosi to‘g‘risidagi asosiy ko‘rsatkichlar beriladi. Oylik hisobotda daromadlar bir qancha bo‘limlarning boblari yoki paragraflari bo‘yicha guruhlashtiriladi hamda bo‘limlarning paragraflari bo‘yicha ko‘rsatiladi, xarajatlar esa bo‘limlar yoki bo‘limlar guruhi bo‘yicha qayd qilinadi.

Chorak hisobot - mahalliy budjet ijrosi to‘g‘risidagi chorak hisoboti oylik hisobotga nisbatan anchagina keng ma‘lumotlarga ega bo‘ladi. Chorak hisobotida ma‘lumotlar yil boshidan jami o‘sib borish tartibida ko‘rsatiladi. Viloyat, tuman va tumanlarga bo‘lingan shahar bo‘yicha umumiy yig‘ma chorak buxgalteriya hisobotlari chorak hisobotining shakllari bo‘yicha hamma quyi budjetlarning ijrosi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ham qo‘shgan holda tuziladi.

Budjet ijrosi to‘g‘risidagi hisobot – ijrosi to‘g‘risidagi chorak hisobotning “Daromadlar” qismida budjet tasnifining har bir bo‘limini paragraflar bo‘yicha kelib tushishi rejalashtirilgan daromadlar summolari hamda ularning haqiqatda kelib tushganini ko‘rsatuvchi summalar aks ettiriladi.

Yillik hisobot – mahalliy budjetlar ijrosi to‘g‘risidagi yillik buxgalteriya hisobotlarida oylik va chorak hisobotlarga nisbatan ko‘p ko‘rsatkichlar va budjet ijrosi jarayonining keng tavsifi beriladi. Yuqori

sifatda va belgilangan muddatlarda yillik hisobotni tuzishgacha moliya organlari ko'pgina tadbirlarni amalga oshiradi. Moliya organlari quyi moliya organlari va budjet tashkilotlarining bosh buxgalterlari bilan yillik hisobot tuzish masalalari bo'yicha instruktiv yig'ilishlarni o'tkazadi. Moliya organlari hisobot yil oxirigacha budjetlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarning tugatilishi va qisqa muddatli ssudalar bo'yicha qarzlarni to'la qaytarilishini ta'minlanishi ustidan nazorat qilishi kerak.

Budjet ijrosi to'g'risidagi yangi yilning birinchi yanvariga balansi -balans budjet ijrosi to'g'risidagi chorak balansida keltirilgan moddalar bo'yicha tuzilib, shu moddalar bo'yicha yil boshiga qoldiq va yil oxiriga qoldiq summalar ko'rsatiladi.

Budjet ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot - budjet ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotning "Daromadlar" qismida budjet tasnifining har bir bo'limining paragraflari bo'yicha kelib tushishi rejalashtirilgan daromadlar summolari hamda ularning haqiqatan kelib tushganligini ko'rsatuvchi summalar budjet turlari bo'yicha aks ettiriladi.

Davlat budjeti daromadlari shakllantirish 2004 yil 20.08. N 664-II sonli O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risi"da qonuniga muvofiq soliq, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq shakllantiriladi.

Hisoblab chiqarilgan, biroq joriy yilning o'ttiz birinchi dekabrigacha Davlat budjetiga to'lanmagan daromadlar kelgusi yilda Davlat budjetiga o'tkazilishi kerak.

Tasdiqlangan budjet mablag'lari doirasida, xarajatlar smetasiga muvofiq Davlat budjeti mablag'lari budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan moliya yili mobaynida bosqichma-bosqich, tayinlash sertifikatini muayyan davrga va tegishli summaga rasmiylashtirish yo'li bilan:

- respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan yoki mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha tegishli moliya organi tomonidan sarflanadi.

Tayinlash sertifikatlarini tayyorlash, rasmiylashtirish, berish, ijro etish va hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va barcha darajadagi mahalliy budjetlar hisobvaraqlaridagi budjet mablag‘lari qoldiqlari tasdiqlangan miqdorda aylanma kassa mablag‘i me‘yorini shakllantirishga yo‘naltiriladi. qoldiqlarning aylanma kassa mablag‘i me‘yorining tasdiqlangan miqdoridan ortiq qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining hamda tegishli hokimlarning qaroriga ko‘ra qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirishga yo‘naltirilishi mumkin.

Budjet tashkilotlari hisobvaraqlaridagi budjet mablag‘lari qoldiqlari olib qo‘yilmasligi kerak va ular budjet tashkilotlarining maxsus mablag‘lari hisobvaraqlariga o‘tkaziladi, kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lar bundan mustasno. Budjet tashkilotlarining maxsus mablag‘larini shakllantirish va sarflash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qabul qilingan Davlat budjeti bo‘lmagan taqdirda budjetni ijro etish tartibi agar kelgusi moliya yili uchun Davlat budjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo‘lsa, u holda Davlat budjeti qabul qilingunga qadar bo‘lgan davrda davlat xarajatlari quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi:

- boshlangan moliya yilidagi xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda budjet mablag‘larining avvalgi moliya yili so‘nggi uch oyining uchdan bir qismidan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda har oyda amalga oshiriladi;

- avvalgi moliya yilida qilinmagan budjet xarajatlari amalga oshirilmaydi;

- avvalgi moliya yilida amalda bo‘lgan soliq solish va majburiy to‘lovlar to‘lash tartibi Davlat budjeti qabul qilingunga qadar o‘z kuchini yo‘qotmaydi;

- Davlat budjeti moliya yili boshlanganidan keyin qabul qilingan taqdirda xarajatlarning umumiy summasi moliya yili mobaynida qabul qilingan Davlat budjetiga muvofiqlashtirilishi kerak.

Budjetdan ajratiladigan mablag‘larga o‘zgartirishlar kiritish, budjetdan ajratiladigan mablag‘larga moliya yili mobaynida o‘zgartirishlar kiritish bir budjet mablag‘lari oluvchisi uchun budjet mablag‘larining kamaytirilishi boshqa budjet mablag‘lari oluvchisi

uchun budget mablag'larining tegishli ravishda ko'paytirilishini nazarda tutgan tartibda:

1) tasdiqlangan budgetdan ajratiladigan mablag'lar hajmining o'n %iga qadari:

- Davlat budgetida ko'rsatib o'tilgan budget mablag'lari oluvchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

- respublika budgetidan moliyalashtiriladigan budget mablag'lari oluvchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti va mahalliy budgetlardan moliyalashtiriladigan budget mablag'lari oluvchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan tegishli moliya organlarining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimlar tomonidan (kapital qo'yilmalar moddolari bundan mustasno);

2) tasdiqlangan budgetdan ajratiladigan mablag'lar hajmining 10 % idan ortig'i:

- Davlat budgetida ko'rsatib o'tilgan budget mablag'lari oluvchilar uchun - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;

- respublika budgetidan moliyalashtiriladigan budget mablag'lari oluvchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilanadigan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti va mahalliy budgetlardan moliyalashtiriladigan budget mablag'lari oluvchilar uchun tegishli moliya organlarining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi hamda joylardagi tegishli hokimiyat vakillik organlari tomonidan (kapital qo'yilmalar moddolari bundan mustasno) amalga oshiriladi.

Budget mablag'lari oluvchining so'roviga binoan moliya yili uchun unga nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag'lar ayrim moddalar bo'yicha (kapital qo'yilmalar moddolari bundan mustasno) boshqa moddalar bo'yicha budgetdan ajratiladigan mablag'lari teng miqdorda kamaytirilgan va mazkur budget mablag'lari oluvchi uchun nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag'larning umumiy hajmi

saqlab qolingan holda dastlabki hajmining o'n besh %iga qadar ko'paytirilishi mumkin. Budjetdan ajratilgan mablag'larga mazkur o'zgartirishlar: - respublika budjetidan ajratiladigan budjet mablag'lariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan; - Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlardan ajratiladigan budjet mablag'lariga - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilangan tartibda tegishli moliya organlari tomonidan kiritiladi.

Davlat budjetini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish. Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari, agar muayyan harakatlari budjet taqchilligining qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori darajasidan oshib ketishiga olib keladigan bo'lsa, Davlat budjeti daromadlarini qisqartiruvchi yoki xarajatlarini oshiruvchi biron-bir harakat qilishga haqli emaslar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti hamda mahalliy budjetlar qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida ayrim turlar bo'yicha budjet daromadlarini qisqartirishga olib keluvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organining qarori, agar unda boshqa turlar bo'yicha daromadlarni ko'paytirish va (yoki) budjet xarajatlari tegishli miqdorda qisqartirilishi kerak bo'lgan moddalar nazarda tutilgan bo'lsagina, qabul qilinishi va amalga kiritilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida tegishli budjet xarajatlari qisqartirilishiga va (yoki) daromadlari ko'payishiga olib keluvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organining qarori qabul qilingan taqdirda hosil bo'ladigan ortiqcha mablag'lar mazkur qaror qabul qilingan darajadagi budjetga mablag'larni qayta taqsimlash uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda olib qo'yiladi.

Agar Davlat budjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida Davlat budjetidan olingan budjet mablag'larini ko'paytirish (kamaytirish) to'g'risida qaror qabul qilinadigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi budjetlar hajmiga o'zgartirishlar kiritiladi. Xarajatlarni ko'paytirish yoki ularni qisqartirish budjetlar o'rtasida o'zaro hisob-

kitob qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Budjetlar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitob o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Soliq va budjet to‘lovlari intizomini mustahkamlash yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarga tasdiqlangan ko‘rsatkichlardan tashqari tushgan qo‘shimcha daromadlar aylanma kassa mablag‘i me‘yori tasdiqlanganidan kam bo‘lmagan miqdorda saqlanib qolgan taqdirda qabul qilingan budjetdagidan tashqari xarajatlarga yo‘naltirilishi mumkin. Mazkur masalaga doir qarorlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimlar tomonidan qabul qilinadi.

Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat budjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi budjetlarning qonun hujjatlarida belgilangan ko‘rsatkichlar doirasida bajarilishi uchun javobgardir. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar yil mobaynida davlat daromadlari ancha qisqargan va Davlat budjetining oldindan belgilangan taqchilligi qonun hujjatlarida belgilangan chegara miqdoridan oshadigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat budjetining xarajatlarini alohida moddalar bo‘yicha qisqartirish to‘g‘risida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taklif kiritadi.

Turli darajadagi budjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovutni to‘g‘rilash maqsadida moliya yili mobaynida ularga tegishli budjetlardan budjet ssudalari ajratilishi mumkin. Budjet ssudalarini berishning eng kech muddati va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Turli darajadagi budjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovutni moliya yili mobaynida aylanma kassa mablag‘i me‘yori hisobiga uni moliya yili oxirigacha tasdiqlangan hajmga qadar tiklagan holda, budjet mablag‘larining foydalanilmagan qoldiqlari hisobiga, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlatning qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarini chiqarish hisobiga qoplash mumkin.

Davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari Davlat budjetining kassa ijrosini ta'minlaydi. Banklar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining topshirig'iga binoan Davlat budjetining kassa ijrosi operatsiyalarini bajaradi.

Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari ularning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlaridagi budjetdan ajratilgan mablag'lar qoldiqlari doirasida to'lov topshiriqnomalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat budjeti ijrosi nazorat qilinishini amalga oshirish chog'ida: - turli darajadagi budjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi; - turli darajadagi budjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlardan axborotlar oladi; - budjet mablag'lari oluvchilardan budjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida ma'lumotlar talab qilib oladi; - qonun hujjatlariga muvofiq banklardan budjet mablag'lari harakati to'g'risida ma'lumotlar oladi; - budjet mablag'lari oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyatini o'z vakolatlari doirasida taftish qiladi va tekshiruvdan o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat budjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan hamda mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari oluvchilar budjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

Tumanlarning, shuningdek respublika (Qoraqalpog‘iston), viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlarning moliya organlari shahar, tuman budjetining hisobot davridagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishli hokimliklarga hamda yuqori moliya organlariga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya Vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari tegishli budjetlarning hisobot davridagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va tegishli hokimliklarga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari budjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqib ma‘qullanganidan keyin bu hisobotlarni tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlariga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlarning Davlat budjetiga hisobot davridagi tushumlari to‘g‘risidagi hisobotni har oyda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Davlat soliq xizmatining joylardagi soliq organlari soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlarning Davlat budjetiga hisobot davridagi tushumlari to‘g‘risidagi hisobotni har oyda tegishli moliya organlariga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar hisobot davrida davlat maqsadli jamg‘armalariga mablag‘lar tushumi va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot yilidan keyingi yilning birinchi mayidan kechiktirmay taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot yilidan keyingi

yilning o‘n beshinchi mayidan kechiktirmay taqdim etadi. Davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

13.2. O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachiligi, uning budjet tizimini boshqarishdagi ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasida 2002 yildan boshlab Vazirlar Mahkamasining «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish haqida»gi Qarori asosida Jahon banki va xalqaro donor tashkilotlari yordamida respublikada g‘aznachilik tizimini joriy etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan edi.

Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2005 yilda dastlabki loyiha Toshkent shahri yoki Toshkent viloyati misolida, 2007 yildan g‘aznachilik tizimi mamlakatimizda to‘la faoliyat ko‘rsatishi mo‘ljallandi. G‘aznachilik tizimiga o‘tishgacha bo‘lgan davrda budjet ijrosi jarayoni ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Budjet tushumlarini taqsimlash va budjet mablag‘larini davlat budjeti mablag‘larini oluvchilar hisob raqamlariga o‘tkazish. Davlat budjeti mablag‘larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog‘liq. Davlat budjeti mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanilishini esa buxgalteriya hisoboti orqali tekshirish mumkin, ammo ushbu hisobotni o‘zi keyingi qabul qilingan xalqaro standartlarga moslashtirilishi lozim.

2006 yil boshiga budjet tashkilotlarining banklardagi hisob, raqami 110 mingdan oshib ketganligini hisobga olganda ularning 70 % i tijorat banklarida ochilgan. Bu esa pul mablag‘lari monitoringini o‘tkazishning imkoni yo‘qligi yaqqol ko‘rinadi. Hisob raqamlarining soni ko‘p bo‘lib, ular turli banklar bo‘yicha tarqalib ketganda, davlat budjeti mablag‘larini samarali boshqarish va nazorat qilishning imkoni yo‘q. G‘aznachilik tizimini joriy qilmasdan davlat budjeti mablag‘larini monitoringini o‘tkazish va samarali boshqarishni ta‘minlashning imkoni, mexanizmlari va asoslari ham yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish sharoitida 2004 yil 20 - avgustda 664 - II sonli

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjetining gazna ijrosi to‘g‘risi”da qonun qabul qilindi.

Mazkur Qonunga asosan davlat budjetining g‘aznachilik ijrosi tizimiga o‘tish O‘zbekiston Respublikasida ustuvor vazifasi hisoblanadi. Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘larining g‘azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Davlat budjeti g‘azna ijrosining asosiy tamoyillari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budjetining g‘azna ijrosi Davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritishdan iboratdir. Davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvaraقدan to‘lashdan iborat.

Davlat budjetining g‘azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladigan maxsus vakolatli moliya organi (g‘aznachilik) hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

“Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq G‘aznachilikning asosiy vazifalri qo‘yidagilardan iborat:

Davlat budjetining kassa ijrosi;

- Davlat budjeti mablag‘larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- Davlat budjeti mablag‘larini boshqarish;

- Davlat budjetida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan ularning topshirig‘iga binoan to‘lovlarni amalga oshirish;

- Budjet tashkilotlarining tovarlar etkazib berish uchun tuzadigan shartnomalarini, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzadigan shartnomalarini ro‘yxatga olish;

- Davlat budjeti g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;

- Davlat budjeti ijrosining qanday borayotganligi to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko‘rsatish, O‘zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish. G‘aznachilik o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlat

boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda bajaradi. Mazkur organlar va tashkilotlar Davlat budjetining kassa ijrosini amalga oshirishda, uning mablag‘larini boshqarishda, Davlat budjeti mablag‘larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda G‘aznachilikka ko‘maklashishlari shart.

G‘aznachilik bilan davlat soliq, bojxona xizmati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar, Davlat budjetida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik shaxslar, shuningdek budjet jarayonining boshqa ishtirokchilari Davlat budjetining g‘azna ijrosi sohasidagi ma’lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda almashib turadilar.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar, Davlat budjetida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik shaxslar, shuningdek budjet jarayonining boshqa ishtirokchilari G‘aznachilikka taqdim etiladigan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va asosliliigi uchun javobgar bo‘ladilar.

Yagona g‘azna hisobvarag‘i G‘aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘i bo‘lib, bu hisobvaraqqa Davlat budjeti mablag‘lari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari kiritiladi. Yagona g‘azna hisobvarag‘idan Davlat budjetida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to‘lanadi, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalarining xarajatlari amalga oshiriladi.

Yagona g‘azna hisobvarag‘i belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida G‘aznachilik tomonidan ochiladi. G‘aznachilik O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va o‘zga banklarda boshqa bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega. G‘aznachilikning bank hisobvaraqlaridan mablag‘larning so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo‘l ko‘yilmaydi.

Davlat budjetiga to‘lanadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritilib, ular tegishicha Respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarida aks ettiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari

yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi.

Davlat budjetiga chet el valyutasida to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek budjet tashkilotlarining chet el valyutasida tushadigan budjetdan tashqari mablag'lari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, G'aznachilikning bankdagi valyuta hisobvaraqlariga kiritiladi.

G'aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar summaları qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yagona g'azna hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

Davlat budjetining xarajatlari yagona g'azna hisobvarag'i yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan belgilangan muddatlarda va tegishincha Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjet, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi.

Mablag'larni sudning qaroriga binoan o'tkazish, dotatsiyalar va ssudalarni o'tkazish yagona g'azna hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan Davlat budjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlariga G'aznachilik tomonidan o'tkaziladi.

G'aznachilik yagona g'azna hisobvarag'idagi va G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridagi Davlat budjeti mablag'larini ularni Davlat budjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo'naltirish, shuningdek Davlat budjeti bo'sh mablag'larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan Respublika budjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari berish yo'li bilan boshqarib boradi.

Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek davlat soliq va bojxona xizmati organlari, budjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan Davlat budjeti g'azna ijrosining

buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi va budjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar G'aznachilik tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya Vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar moliya organlariga taqdim etiladi.

Davlat budjetining g'azna ijrosi sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi RQ-594-son "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Moliya vazirligining 2009 yil 11 dekabrda 160 sonli buyrug'iga muvofiq, 2010 yil 1 yanvardan G'aznachilik bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlarini g'azna ijrosi qamrab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2009 yil 4-avgustdagi 2009 yil 26-sentyabrdan kuchga kirgan "Davlat budjetining g'azna ijrosi Qoidalarini tasdiqlash haqida"gi 69-sonli bo'yrug'iga O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G'aznachiligi va uning quyi organlarida asosan davlat budjeti g'azna ijrosi amalga oshirilmoqda.

Budjetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shu jumladan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalarini ro'yxatga olish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish, tegishli budjetlar xarajatlarining to'lanishi, shu jumladan g'azna hisobvaraqlaridan budjet ssudalari, subvensiya va dotatsiyalar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

G'azna hisobvaraqlaridan foydalanib, g'azna ijrosi bilan qamrab olinadigan budjetlar, xarajat guruhlari, budjetdan mablag' oluvchilar, shu jumladan kapital qurilish buyurtmachilarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat budjeti g'azna ijrosining hisobini yuritish, hisobotini tuzish va taqdim etish qonunchilikda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar va muddatlar bo'yicha amalga oshiriladi.

G'azna hisobvaraqlari orqali xizmat ko'rsatiladigan budjetdan mablag' oluvchilar xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi davriy hisobot (1-OX shakl va 2-shakl)ni yuqori tashkilot va tegishli moliya organlariga taqdim etgunga qadar, uni xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalari bilan tegishli davrda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari va aniqlangan rejali budjetdan ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga mosligiga taqqoslanadi (budjetdan mablag' oluvchilarning hisobotlari g'aznachilik bo'linmalarining buxgalteriya hisobi bo'yicha vakolatli xodimlari tomonidan belgilangan shakldagi shtamp qo'yilib, imzolanadi).

Qisqacha xulosalar

Davlat budjetining g'azna ijrosi Davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritish, shuningdek Davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvarag'idan to'lashishi lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjeti ijrosi nima?
2. Davlat budjeti ijrosi tartibi qanday?
3. Budjet mablag'lari mablag'larni oluvchilarga qanday tartibda etkaziladi?
4. Budjet ijrosining nazorati kimlar tomonidan amalga oshiriladi?
5. Budjet ijrosining g'aznachilik tizimi nima?
6. O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi, uning budjet tizimini boshqarishdagi ahamiyati qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O'zbekiston, 2015 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-yil, 51-son, 612-modda.

6. Malikov.T.S. Budget soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

7. G‘aybullaev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 b.

8. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019. -69b.

9. Ли А.Н. Управление государственными финансами Республики Узбекистан: учебное пособие / Ли А.Н., Раимбаев А., Тошматов Ш., Воронин С.. - Ташкент : Молия, 2016. - 319 с.

Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).
- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)

– www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).

– www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).

– www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).

– www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

IZOHLI LUG‘AT

Aylanma kassa mablag‘i me‘yori - moliya yilida Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori.

Aniqlanmagan tushumlar - Agar daromadlarni hisobga olganda ularni aniq bir budjetga hisobga olish yoki budjet tasnifining aniq bir bo‘limiga o‘tkazish mumkin bo‘lmasa, ular aniqlanmagan tushumlar deb ataladi.

Budjet jarayoni - Davlat budjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

Budjet dotatsiyasi - o‘z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar etishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Budjetdan mablag‘ ajratish - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat budjetidan budjet tashkilotlariga hamda boshqa budjet mablag‘lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag‘lari.

Budjet profitsiti - muayyan davrda budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Budjet ssudasi - yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki xorijiy davlatga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.

Budjet subvensiyasi - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Budjet so‘rovi - budjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va budjetdan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi so‘rov

Budjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Budjet taqchilligi - muayyan davrda budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

Budjet transferti - budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari.

Davlat budjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat ichki qarzlari - davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Davlat maqsadli jamg'armalari - Davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat tashqi qarzi - davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish - aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarni) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish - aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarni) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

Davlat qarzi - davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Mahalliy budjet - Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek

moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi

Moliya yili - birinchi yanvardan o‘ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oluvchi davr;

Moliyaviy majburiyat - yuridik (jismoniy) shaxslarning ikkinchi tomon, tovar (ish va xizmat)lar etkazib beruvchilar oldidagi etkazib berilgan tovar (ish va xizmat)lar uchun xaq to‘lashni tasdiqlovchi hujjatlar, jumladan hisob-to‘lov hujjatlarida hisoblangan, ishchilarga ish haqi, to‘lov hujjatlari, sud qarorlari, hamda budjetdan mablag‘ oluvchilarni mol etkazib beruvchi yoki to‘lovni qabul qiluvchiga mablag‘larning o‘tkazilish majburiyatini yuklovchi hujjatlar.

Respublika budjeti - Davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining budjeti - Davlat budjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, budjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Kassa xarajatlari – tegishli budjetlarning ham budjet mablag‘lari oluvchilarining bankdagi hisobvaraqlaridan, ham mablag‘larsiz hisob-kitoblar yo‘li bilan ham naqd mablag‘ ko‘rinishida o‘tkazilgan yoki bergan barcha summalari budjetlarning kassa xarajatlari hisoblanadi. Tegishli budjetlarning hisobvaraqlaridan budjet mablag‘lari oluvchilarning hisobvarag‘iga va budjet ajratmalari quyi tasarrufchilari hisobvarag‘iga o‘tkazilgan summalar moliyalashtirish summalari hisoblanadi va budjetning kassa xarajatlariga kiritilmaydi.

Haqiqiy xarajatlar - Tashkilotlar, muassasalar, budjet mablag‘lari boshqa oluvchilarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan haqiqiy chiqimlari, shu jumladan kreditorlarning to‘lanmagan hisobvaraqlari bo‘yicha, hisoblab yozilgan ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar bo‘yicha qilingan xarajatlar haqiqiy xarajatlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I.O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: -T.: O‘zbekiston, 2015 y.

2.O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi (2018 yil o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) Toshkent: Adolat, 2018. - 320 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son

4.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 maydagi «2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘RQ-618-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.05.2020 y., 03/20/618/0596-son

5. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 6 yanvardagi “Davlat boji to‘g‘risida” O‘RQ-600-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son.

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 4 dekabrda “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-589-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.12.2019 y., 03/19/589/4126-son

II.O‘zbekiston Respublikasi Rrezidentining Farmonlari va qarorlari

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining «2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4555-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.01.2020 y., 07/20/4555/4257-son

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyuldagi “Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5755-son Farmoni

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 maydagi “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5723-son Farmoni

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida” PF-5635-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5621-son Farmoni

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4412-son Qarori

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 maydagi “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4337-sonli Qarori

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan samarali foydalanish to‘g‘risida” PQ-4258-son Qarori

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida” Qaroridan ko‘chirmaning 12-bandi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 52-son, 646-modda. http://www.lex.uz/pages/get-page.act_id=2849450

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2699-sonli qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 dekabrda “Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-2691-sonli Qarori

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 sentabrda “Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta’minlashning hamda Davlat budjeti daromadlarini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 720-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2018 y., 09/18/720/1871-son

III. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

21. Абдуллаев Ё.А. и др. Государственные финансы Республики Узбекистан. – Ташкент: Мехнат, 2001. – 85 с.

22. Alimardonov M.I., Tuxsanov Q.N. Soliqlar nazariyasi. – Toshkent: Adabiyot, 2005. – 209 b.

23. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 76 b.;

24. Ваҳобов А.В., Жамолов Х.Н. Согласование межбюджетных отношений. – Ташкент: Молия, 2002. – 239 с.

25. Gadoyev E.F. Soliqqa tortish tartib-taomillarini soddalashtirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili // IQTISOD VA MOLIYA jurnali, 2015, 1-son. – B.30-34

26. Jo‘rayev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. – Toshkent: Fan, 2004. – 242 b.

27. Кучкаров Д. и др. Местные бюджеты через призмы проблем // Экономическое обозрение. – Ташкент: 2004. 6-сон. – С.4

28. Qobulov X.A. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2006. – 23 b.

29. Qurbonov X.A. Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2010. – 24 b.

30. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. - Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. - 12 b.

31. Malikov T.S., Haydarov N.X. Budjet daromadlari va xarajatlari. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 245 b.

32. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat budjeti. O‘quv qo‘llanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007. 84 bet

33. Mamanazarov A.B. Mahalliy budjet va soliq. Monografiya. – Toshkent: Marifat-madadkor, 2001. – 120 b.

VI. Darsliklar

34. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. Род. ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. – М.: «ИД Юрайт», 2010. – 714 с.

35. Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik-T.: Sharq, 2009. 448 bet.

36. V.V. Ковалева. Финансы. Учебник, -М.: Проспект, 2008.

37. Вахобов А.В., Срождидинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник Т., «Иктисод-молия», 2006, 625 с.

38. Лушин С.И., Слепов В.А. Государственные и муниципальные финансы. –М.: Экономист, 2006. - 317 с.

39. Годин А.М., Максимова Н.С. Бюджетная система Российской Федерации. – М.: Дашков и К°, 2006. – 583 с.

40. Роляк Г.Б. Финансы бюджетных организаций. - М.: Вузовский учебник, 2006. - 417 с.

41. Финансы. Уч. для вузов. Род редакцией Л.А. Дробозиной. - М.: ЮНИТИ, 2003.

42. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. - T.: G‘.G‘ulom , 2000.

V. O‘quv qo‘llanmalar

43. O‘zbekiston Respublikasi Rrezidenti Islom Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish–ustuvor maqsadimizdir» hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy

majmua. Tuzuvchilar: B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'afurov – T.: Iqtisodiyot, 2010.-331 b.

44.Xodiev B.Yu. va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Rrezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009 y.

45.Tuxliev B.K., Kurbonov X.A., Bauetdinov M.J., Bijanova M.B., Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2007, 199 b

46.Tuxliev B.K., Alieva L.K., Aliev S.K. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi: O'quv qo'llanma - T.: TDIU., 2007. -144 b.

47. Vahobov A.V., Srojiddinova Z.X. Gosudarstvennyy budjet: Uchebnik T., «Iqtisod-moliya» , 2006, 625 s.

48. Malikov T., Xaydarov N. Budjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI – 2008, 98 b.

49. Malikov T., Xaydarov N. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI – 2007, 84 b.

50. Bekmurodov A. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 1,2,3,4,5-qismlar. Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida.- T.: TDIU, 2006. - 66 b.

51. Gadoev E.F., Qurbonov X.A. Moliya. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -189 b.

52. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 175 b.

53. Vahobov A.V. Qosimova G., Jamolov X.N., Budjet –soliq siyosati yaxlitligi: O'quv qo'llanma. -T.: Iktisod-moliya, 2005. - 166 b.

54. Sharifxo'jaev M. O'zbekiston Respublikasida budjet jarayoni. - T.: Quvasoy, 2003. – 267 b.

55.Налого.Учебное пособие. Под.общей ред. В. Черника. 2 - изд. М.: Финансы и статистика, 2003, - 87 с.

56.Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: Akademiya, 2002.

57.Jumaev N., Burxanov U. Moliyaning dolzarb muammolari. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.

58.Vohobov A, Srojiddinova 3. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. – T.: TMI, 2002.

IV. Internet saytlari

- www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
- www.lex.uz (O‘zb.Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).
- www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
- www.mineconomy.uz (Iqt. taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi);
- www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
- www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
- www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
- www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).
- www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BO‘LIM. DAVLAT BUDJETI VA BYUDJET TIZIMI AMAL QILISHINING NAZARIY ASOSLARI

I BOB. DAVLAT BUDJETINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	5
1.1. Davlat budjetining ijtimoiy- iqtisodiy mohiyati.....	5
1.2. Davlat budjeti-davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida.....	9
1.3. Davlat budjetining asosiy funksiyalari.....	11
Qisqacha xulosalar.....	14
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	14
Asosiy adabiyotlar.....	14

II BOB. DAVLAT BUDJETINING RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA BYUDJET SIYOSATI.....	16
2.1. Budjet siyosatining ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni.....	16
2.2. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining tarixi.....	21
2.3. Musutaqil O‘zbekistonda budjet-soliq siyosatining rivojlanish bosqichlari.....	25
Qisqacha xulosalar.....	33
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	33
Asosiy adabiyotlar.....	33

III BOB. O‘ZBEKISTON RESRUBLIKASI BYUDJET TIZIMI VA BYUDJET QURILMASI.....	35
3.1. Davlat budjeti qurilmasining iqtisodiy-huquqiy asoslari.....	35
3.2. Byudet tizimi va uning bo‘g‘inlari.....	36
3.3. Budjet tizimining asosiy tamoyillari.....	38
3.4. Budjet tizimida mahalliy byujetlarning tutgan o‘rni.....	39
3.5. Budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar.....	44
Qisqacha xulosalar.....	46
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	46
Asosiy adabiyotlar.....	46

II BO‘LIM. DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARI TIZIMI

IV BOB. DAVLAT BUDJETINING SOLIQLAR HISOBIGA SHAKLLANTIRILADIGAN DAROMADLARI.....48

4.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlari shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	48
4.2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, zarurligi va funksiyalari.....	49
4.3. O‘zbekistonda soliqlarning tuzilish asoslari.....	51
4.4. To‘g‘ri soliqlar va ularni budjet daromadlaridagi salmog‘i.....	52
4.5. Egri soliqlar, ularni budjet daromadlaridagi tutgan o‘rni.....	55
4.6. Resurs soliqlari va to‘lovlari tizimi, ularni budjet daromadlarini shakllantirishdagi tutgan o‘rni.....	58
Qisqacha xulosalar.....	62
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	62
Asosiy adabiyotlar.....	62

V BOB. DAVLAT BUDJETINING SOLIQSIZ

DAROMADLARI.....	64
5.1. Soliqsiz daromadlarning turlari.....	64
5.2. Davlat boji va uning ahamiyati.....	66
Qisqacha xulosalar.....	67
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	67
Asosiy adabiyotlar.....	67

III BO‘LIM. DAVLAT BUDJETINING XARAJATLARI TIZIMI

VI BOB. DAVLAT BUDJETINING XARAJATLARI TIZIMI...69

6.1. Davlat budjeti xarajatlari, ularning tarkibi, turlari.....	69
6.2. Davlat budjeti xarajatlarining guruhlanishi.....	70
6.3. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida xarajatlar tarkibidagi o‘zgarishlar.....	75
Qisqacha xulosalar.....	79
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	79
Asosiy adabiyotlar.....	80

VII BOB. BYUDJET TASHQILOTLARI XARAJATLARINI SMETA ASOSIDA MOLİYALASHTIRISH.....82

7.1. Xarajatlar smetasi – budjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida.....	82
7.2.Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, moliyalashtiruvchi organ tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi.....	84
7.3.Budjet tashkilotlarini budjetdan moliyalashtirish tartibi.....	93
7.4. Budjet tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish.....	98
Qisqacha xulosalar.....	101
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	102
Asosiy adabiyotlar.....	102

VIII BOB. DAVLAT BUDJETINING IJTIMOIIY-MADANIY TADBIR XARAJATLARI.....	104
8.1.Maktabgacha tarbiya muassasalari harajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.....	104
8.2.Umumta’lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.....	107
8.3.Sog‘liqni saqlash muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.....	117
Qisqacha xulosalar.....	122
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	123
Asosiy adabiyotlar.....	124

IX BOB. IJTIMOIIY TA’MINOT VA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH XARAJATLARI.....	126
9.1. Ijtimoiy ta’minot xarajatlari.....	126
9.2. Aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari.....	130
Qisqacha xulosalar.....	136
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	136
Asosiy adabiyotlar.....	137

X BOB. DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY MAQSADLARDAGI XARAJATLARI.....	139
10.1. Davlat budjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari.....	139
10.2. Davlat budjetining iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash xarajatlarini tahlili	140
Qisqacha xulosalar.....	142
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	142

Asosiy adabiyotlar.....142

XI BOB. DAVLAT BUDJETINING DAVLAT HOKIMIYATI, BOSHQARUVI, SUD, RROKURATURA ORGANLARINI SAQLASH XARAJATLARI.....144

11.1.Davlat budjetining davlat hokimiyati, boshqaruvi, sud, prokuratura organlarini saqlash xarajatlari.144

11.2. Huquqni himoya qiluvchi, sud va adliya organlarini moliyalashtirish.....147

11.3.Davlat budjetining mudofaa xarajatlari.....153

Qisqacha xulosalar.....153

Nazorat va muhokama uchun savollar.....153

Asosiy adabiyotlar.....154

IV BO‘LIM. BYUDJET JARAYONI VA BYUDJET IJROSINING G‘AZNACHILIK TIZIMI

XII BOB. BYUDJET JARAYONI VA UNI BOSQICHLARI.....156

12.1. Budjet jarayonining asosiy vazifalari.....156

12.2.Davlat budjeti loyihasini tayyorlash.....157

12.3.Davlat budjeti loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etilishi.....158

Qisqacha xulosalar.....168

Nazorat va muhokama uchun savollar.....168

Asosiy adabiyotlar.....168

XIII BOB. BYUDJET IJROSI VA BYUDJET IJROSINING G‘AZNACHILIK TIZIMI.....170

13.1. Davlat budjeti ijrosi.....170

13.2.O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachiligi, uning budjet tizimini boshqarishdagi ahamiyati.....178

Qisqacha xulosalar.....183

Nazorat va muhokama uchun savollar.....183

Asosiy adabiyotlar.....183

IZOHLI LUG‘AT.....186

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....189

**Komolov Odiljon Sayfutdinovich,
Bauyetdinov Majit Janizaqovich,
Gofurov Doston Boxromovich**

Davlat budjeti

(O'quv qo'llanma)

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	S.Abdunabiyeva
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoxidova

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35

№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 09.09.2021.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 13,0. Nashriyot bosma tabog'i 12,5.

Tiraji: 50. Buyurtma № 279

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**